




ISLOM MA'RIFATI

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining
ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali





ISLOM MA'RIFATI

№3
2023

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining
ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali





Muassis:

**Imom Buxoriy nomidagi
Toshkent islom instituti**

TAHRIR HAY'ATI:

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR
*O'zbekiston musulmonlari idorasi
raisi, muftiy. O'zbekiston xalqaro
islom akademiyasi faxriy doktori*

Muzaffar KOMILOV
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Davronbek MAXSUDOV
Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Uyg'un G'OFUROV
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ilhom BEKMIRZAYEV
Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Rashid ZOHIDOV
Filologiya fanlari doktori, professor

Nurboy JABBOROV
Filologiya fanlari doktori, professor

Ne'matullo MUHAMEDOV
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Qo'ldosh PARDAYEV
Filologiya fanlari doktori (DSc)

Ahmad Sa'd DAMANHURIY
Ilohiyot fanlari doktori

Saidjamol MASAYITOV
*Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Saidahmadxon G'AYBULLAYEV
*Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Abdurasul ABDULLAYEV
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Azizxo'ja INOYATOV
*Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Nasriddin MIRZAYEV
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari
bo'yicha qo'mitaning 2024-yil 06
yanvardagi 0307/80-sonli xulosa
xatiga asosan tayyorlandi.

MUNDARIJA

ISLOM VA JAMIYAT

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR.
Fatvoning mohiyati, shartlari va mas'uliyati 3
 Behzodbek SOIPOV.
**Bag'rikenglik tamoyili – jamiyat ijtimoiy-siyosiy
barqarorligini ta'minlashda muhim omil**10
 Ivadulla AXROROV.
Islom – tinchlik dini 17

TARIX

O'ktambek SULTONOV.
**Musulmon tarixnavisligida umumiy
tarix janri**.....23
 Obid TANGIROV.
**XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent
shahridagi masjidlar faoliyati**31
 Nasriddin MIRZAYEV.
Oilaviy masalalarga oid tarixiy hujjatlar tahlili ..35
 Umid RAHMATULLAYEV.
**Islomda diplomatiya tushunchasi vujudga
kelishining tarixiy ildizlari**40

ADABIYOTSHUNOSLIK

Rashid ZOHID.
**Navoiy konseptual tizimida ma'rifat
tushunchasi**44
 Samariddin AHMEDOV.
**Qosim Xorazmiy – xorazmlik buyuk
shoir va adib**52
 Abdullo G'OFUROV.
**"Mahbubul qulub" matnlarining qiyosiy
tadqiqi**56

ISLOM HUQUQI

Farhod JO'RAYEV.
Hanafiy mazhabidagi mo'tabar manba62

QUR'ONSHUNOSLIK

Qodirxon MAHMUDOV.
**Rahmon surasining nozil bo'lish sababi
va fazilati**65
 Ahmadxon RASHIDOV.
Qiroat ilmining buyuk ustoz 71

MANBASHUNOSLIK

Islom UBAYDULLAYEV.
Alloma Ali Qoriy hayoti va ilmiy merosi 75
 Bahodirjon A'ZAMOV.
**Hakim Termiziyning "Amsol minal kitob
vas sunna" asari tavsifi**79
 Xurshida USMANOVA.
Shayx Xovand Tohur risolalari tahlili 83

Shayx Nuriddin XOLIQTANAZAR
O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
faxriy doktori

FATVONING MOHIYATI, SHARTLARI VA MAS'ULIYATI

THE ESSENCE, CONDITIONS AND RESPONSIBILITY OF FATWA

“Fatvo” soʻzi arab tilida biror savolga javob berish maʼnosida ishlatiladi [6:20].

Soʻralgan savol xoh sharʼiy hukmlar borasida boʻlsin, xoh boshqa masalaga doir boʻlsin, baribir. Qurʼoni karimda bir nechta oyati karimalarda fatvo soʻzi ushbu maʼnoda kelgan:

“Shoh (bir kuni) dedi: “Men tushimda yettita ozgʻin sigir yettita semiz sigirni yeyayotganini va yettita yashil boshqoq bilan birga boshqa (yettita) qurigan boshqoqlarni koʻrdim. Ey aʼyonlar! Agar tush taʼbirini aytuvchi boʻlsangiz, tushim toʻgʻrisida fatvo (javob) beringiz!” (“Yusuf” surasi, 43-oyat);

“(U borib dedi): “Yusuf! Ey, rostgoʻy odam! Bizga yettita ozgʻin sigir yettita semiz sigirni yegani hamda yettita yashil boshqoq bilan birga turgan boshqa (yetti) quruqlari toʻgʻrisidagi (tush) fatvosi (taʼbiri)ni aytib bergin. Shoyad, odamlar oldiga borganimda zora, ular ham (buni) bilib olishsa” (“Yusuf” surasi, 46-oyat);

“(Malika) aytdi: “Ey, zodagonlar! Menga bu ishimda fatvo (maslahat) beringiz! Men to sizlar guvoh boʻlmaguningizcha biror ishni qatʼiy qiluvchi emasman” (“Naml” surasi, 32-oyat).

Yuqoridagi oyati karimalarda fatvo soʻzi sharʼiy hukmlarga aloqasi boʻlmagan savolga javob berish maʼnosida ishlatilgan [11:8].

Paygʻambar (*alayhissalom*) ham koʻpgina hadislarda fatvo soʻzini mana shu maʼnoda qoʻllaganlar. Jumladan, Rasululloh (*alayhissalom*): “Fatvo berishga jurʼatlirogʻingiz doʻzaxga ham jurʼatlirogʻingizdir”, dedilar (Imom Dorimiy rivoyati).

Hozirgi davrda ulamolar fatvo soʻzini “biror diniy savolga javob berish” maʼnosida qoʻllaydilar. Bu oʻrinda diniy soʻzi umumiy boʻlib, dinga tegishli barcha savollarni qamraydi. Chunki muftiy faqatgina fiqhiy hukmlarga javob berish bilan kifoyalanmaydi, balki eʼtiqodiy masalalar, hadislarning maʼnolari va isnodiga tegishli masalalarga ham javob beradi. Islom ulamolari nazdida fatvo quyidagi uch qismga boʻlinadi:

A) Tashriiy fatvo – Paygʻambar (*alayhissalom*) davrida biror savolga javob berish yoki sodir boʻlgan biror hodisaning hukmini bayon qilishdan iborat. Tashriiy fatvo Qurʼoni karim oyatlari bilan boʻlsa, Alloh taolodan boʻladi, hadisi shariflar bilan boʻlsa, Paygʻambar (*alayhissalom*)dan boʻladi. Buning misolini quyidagi oyati karimalarda koʻrish mumkin:

“Sizdan (ey, Muhammad!) ayollar toʻgʻrisida fatvo soʻraydilar” (“Niso” surasi, 127-oyat);

“(Ey Muhammad!) Sizdan fatvo soʻraydilar. Ayting: “Alloh sizlarga otasi ham, farzandi ham boʻlmagan odam toʻgʻrisida (shunday) fatvo beradi:...” (“Niso” surasi, 176-oyat);

“Sizdan (ey, Muhammad!) hilollar (yangi oylar) haqida soʻraydilar. «Ular odamlarga (yil hisobi) va haj uchun vaqt oʻlchovlaridir», – deb ayting” (“Baqara” surasi, 189-oyat);

“Sizdan (Ey Muhammad!) oʻljalar haqida soʻraydilar. Ayting: «Oʻljalar Alloh va Paygʻambarnikidir. Bas, Allohdan qoʻrqingiz va oralaringizni tuzatingiz! Agar moʻmin boʻlsangiz, Alloh va (Uning) Rasuliga itoat etingiz!” (“Anfol” surasi, 1-oyat);

“(Ey Muhammad!) Alloh Siz bilan oʻz eri haqida bahslashayotgan va Allohga shikoyat qilayotgan ayolning soʻzini eshitdi.



Alloh siz ikkingizning so'zlashuvingizni eshitur. Albatta, Alloh eshituvchi va ko'ruvchidir ("Mujodala" surasi, 1-oyat) oyati sahobiya Havla binti Sa'labaning eri uni ziyor qilgan vaqtida nozil bo'lgan.

Hadislar bilan sobit bo'lgan tashriiy fatvoga misol quyidagi rivoyatdir: Ibn Abbos raziyallohu anhumo rivoyat qiladi: "Bir ayol Payg'ambar (*sollallohu alayhi vasallam*) huzuriga kelib: "Onam haj qilishni nazr qildi keyin haj qilolmasdan vafot etdi. Men onamning nomidan haj qilsam bo'ladimi?" deb so'radi. Payg'ambar (*alayhissalom*): "Ha, onang nomidan haj qilaver", deb javob berdilar (*Imom Buxoriy rivoyati*).

Fatvo bu turi Payg'ambar (*alayhissalom*) dunyodan o'tishlari bilan to'xtagan [12:217].

B) Fiqhiy fatvo – biror faqih aytadigan fatvo bo'lib, maxsus hodisaning hukmiga javob berishga o'xshamaydi. Balki fiqhiy masalalarni sharhlayotganda yoki muayyan juz'iy masalaga aloqadar bo'lmagan umumiy savolga javob berish jarayonida aytiladi. Bu turdagi fatvolarni fiqhiy masalalarni kitob shaklida to'playdigan mujtahid ulamolar aytadi. Ya'ni, mujtahid ulamolar so'ralmagan yoki umumiy yoxud faraziy, juz'iy, fiqhiy masalalarni tasavvur qilib, shar'iy dalillardan ularning hukmlarini chiqaradi va uni biror kitob yoki risolada bayon qiladi.

D) Juz'iy fatvo – muayyan voqea borasidagi savolga umumiy fiqh dalillari bilan javob berish. Masalan, "ota-onasi, xotini, bir o'g'li va bir nafar qizi qolgan mayyitning merosi qanday taqsimlanadi?", degan savolga

berilgan javob. Fatvo lafzi ko'pincha mana shu ma'noda ko'proq ishlatiladi [11:7-9].

Mahoratli ustozlar huzurida fiqhni ta'lim olmagan kishi fiqhiy kitoblarni mutolaa qilgan bo'lsada, fatvo berishi joiz emas. Shuningdek, ustozlar huzurida fiqhni o'rganagan lekin unda hukmlarning manbalari, qoidalari, illatlarini ajrata biladigan darajada malaka hosil bo'lmagan va mo'tabar kitoblarni boshqasidan ajrata olmaydigan kishiga ham fatvo berish joiz emas [4:253].

Faqihlar o'zlarining kitoblarida fatvo berish uchun quyidagi shartlarni keltirganlar.

1. Balog'at;
2. Aql;
3. Ilm;
4. Tajriba;
5. Adolat;
6. Ulamolarning unga ishonch bildirishi.

Aql va balog'at – muhim va ahamiyatli, ishlarni tasarruf qilishda topilishi lozim bo'lgan umumiy sifatlardan hisoblanadi. Faqihlarning dalillariga ko'ra, muftiyning erkak, hur bo'lishi shart emas. Shuning uchun ham yuqoridagi shartlarni o'zida mujassam etgan qul va ayol ham fatvo berishi joiz.

Ibn Saloh (*rohimahulloh*) "Erkak va hurlik hadis rivoyat qiluvchi roviyda shart qilinmagani kabi muftiyda ham shart qilinmaydi va yana muftiyning hadis roviysiga o'xshash jihati qarindoshchilik, adovat, manfaatni jalb qilish, zararni ketkazish degan vositalar ta'sir o'tkazmaydi. Chunki muftiy biror shaxsga aloqador bo'lmagan shar'iy masaladan xabar beradi. Uning fatvosi majburan

Annotatsiya: Mazkur maqolada fatvoning ma'nolari, shakllanish bosqichlari va turlari haqida muhim ma'lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek, fatvo bilan qozining hukmi o'rtasidagi farqlar hamda muftiylik shartlari bayon qilingan. Sahobalar va tobeinlar fatvo berish mas'uliyati borasidagi so'zlari naql qilingan.

Annotation: This article provides important information about the meanings, stages of development and types of fatwa. Also, the differences between fatwa and the verdicts of qazis and the conditions of the position of mufti are explained. The words of the companions and tabiuns regarding the responsibility of giving fatwa are given.

Kalit so'zlar: Fatvo, muftiy, ifto, istifto, mazhab, mujtahid, muqallid, payg'ambar, sahoba, tobein, oyat, hadis, halol, harom, musthab, makruh.

Keywords: fatwa, mufti, ifta, istifta, mazhab, mujtahid, muqallid, prophet, companion (sahaba), tabiun, ayah (verse), hadith, halal, haram, mustahab, makruh.

bajartirilmaydi. Qozining muftiydan farqi u hukm qilgan masala majburiyatni qamrab olgan bo'ladi".

Ilm – muftiy uchun ilm shart bo'lishining dalili Alloh taolo Quro'ni karimning "A'rof" surasi 32-oyatida keltiradi: **"Ayting: "Rabbim faqat fahsh ishlarning oshkorayu pinhonasini, gunoh (ishlar)ni, nohaq gunoh va tajavuzkorlikni va Alloh hech qanday hujjat tushirmagan narsa(lar)ni Unga sherik qilishingizni hamda Allohning sha'niga o'zingiz bilmagan narsalarni gapirishingizni harom qildi"**.

Rasululloh (*alayhissalom*): "Alloh taolo bandalardan ilmni ulamolarni vafot qildirishi bilan olib qo'yadi. Ulamolar qolmagach, insonlar johillarni boshliq qilib olishadi, ulardan savol so'ralsa, bilmasdan javob berishadi, o'zlari ham adashishadi, boshqalarni ham adashtirishadi", deganlar.

Boshqa hadisda Rasululloh (*alayhissalom*): "Ilmsiz fatvo berishning gunohi fatvo bergan kishiga bo'ladi" deganlar.

Fatvo uchun ilmning shart ekanligi dalilga ehtiyoj tushmaydigan ochiq-oydin ish hisoblanadi. Lekin kishi fatvoga loyiq bo'lishi uchun, talab qilingan ilm qay darajada bo'lishi borasida usulul fiqh ulamolarining bir qancha fikrlari bor. Mutaqaddim ulamolar va bir guruh faqihlar muftiyning mujtahid bo'lishi shart ekanini aytib o'tganlar. Muqallid (taqlid qiluvchi)ga taqlid qilayotgan ishida o'zining amal qilishi joiz bo'ladi, lekin o'zidan boshqa kishi uchun fatvo berishi joiz emas [12:287].

Hofiz Ibn Saloh Movarounnahr shofe'iy imomlaridan imom Halimiy, Qozi Abul Hasan Ruyoniy va boshqalardan naql qilib aytadiki, muqallidga taqlid qilayotgan o'rinda uni boshqalarga fatvo qilib berishi joiz emas.

Ushbu masalada mujtahidlarning kam yoki yo'qligi va zamonning ehtiyoji mavjudligi sababli faqihlar mujtahid bo'lmagan kishi mazhab mujtahidning taxrijiga asoslangan holda fatvo aytishigi ruxsat berganlar [1:315–318].

Shayx Abu Muhammad Juvayniy Imom Shofe'iyning risolasiga yozgan sharhida,

o'zining shayxi Abu Bakr Qaffol Marvaziydandan naql qilib, mazhab asoschisining yo'lini va dalillarini yaxshi bilgan kishiga garchi uning mazmun-mohiyati va murakkab joylarini to'laqonli tushinib yetmagan bo'lsa ham fatvo berishi joizligini aytib o'tgan.

Mazkur fikrga Shayx Abu Muhammad quyidagicha qarshi fikr bildirgan: "Boshqa mazhabni chigal va daqiq joylarini batafsil bilmagan kishiga o'sha mazhab borasida fatvo berishi joiz emas. Shuningdek, mujtahidning fatvolarini jamlab olgan omi kishiga fatvo berishi joiz emas. Lekin ularning fatvolarini batafsil o'rgangan bo'lsa, fatvo berishi durust bo'ladi".

Ibn Daqiq Iyd (*rahimahulloh*) aytadi: "Fatvoning mujtahid topilishiga bog'lab qo'yishlik katta qiyinchilik yoki insonlarni havoi-nafsga berilib o'zboshimcha ish tushlariga olib keladi. Sababi oldingi imomlarning so'zini tushinish imkoniyatiga ega odil yetkazuvchi muqallidga ularning gapini hikoya qilib bersa, muqallid uchun mana shu kifoya qiladi. Chunki bu ma'lumot omi insonning fikrida Alloh taoloning hukmi ekanligi g'olib keladi. Fatvoni mana shu turiga bugungi kunda ijmo bo'lgan".

Mana shu zaruriy ilm bilan birga saho-balarning ayollari hayz va undan boshqa masalalarda Rasululloh (*alayhissalom*)dan erlari yetkazgan xabarga kifoyalanganlar. Shuningdek, Ali (*roziyallohu anhu*) ham maziy qissasida Miqdod ibn Asvad (*roziyallohu anhu*)ni yuborgan vaqtida mana shu yo'lni tutgan.

Bizning masalamizda bu ish aniq-ravshan bo'lib, o'sha paytda Payg'ambar (*alayhissalom*)ga murojaat qilish imkoni bo'lgan, bugungi kunda muqallidning oldingi imomlarga murojaat qilishi imkonsiz hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ulamolar ijtehad shartlari topilmasada, qozilarning hukmi ijro bo'lishiga ittifoq qilganlar. Muqallid uchun fatvo berish joiz deganining ma'nosi o'zidan kelib chiqib fatvo bera olmaydi, balki imomining fatvosini naql qiladi, xolos [11:178].

Ibn Saloh rahimahulloh aytadi: "Muqallid fatvo berishi mumkin emas", degan qavlning



ma'nosi muqallid fatvo berayotganda o'zining mustaqil fikrini ifoda qilmasdan, taqlid qilayotgan imomining fatvosini aytib o'tayotganligini zikr qilishi zarur. Shunday ekan, muftiylarning toifasidan deb sanalayotgan muqallidlar, aslida muftiy emas, balki ularning ishlarini bajarganligi uchun muqallidlar ham muftiy hisoblangan.

Muqallidning fatvo borasidagi yo'li – "Hanafiy mazhabi bir masalada bunday degan yoki uning mazhabining taqozosi bunaqa va shunga o'xshash gaplarni aytish"dan iborat bo'ladi. Xulosa shundan iboratki, muftiy hanafiy yoki shofe'iy mazhabida fatvo berish bilan tanilgan bo'lsa, har marotaba masalaga javob berayotganda aynan mazhabni aytib o'tishiga ehtiyoj yo'q.

Ibn Amir Hojning so'ziga ko'ra, usul ulamolari muftiy mujtahid bo'lishi shart ekani-ga ittifoq qilgan. Ammo mujtahid bo'lmagan kishi ularning so'zini yodlab olgan bo'lsada, muftiy bo'lib qolmaydi. Undan biror masala so'ralgan paytda, Abu Hanifa (*rahimahulloh*)ga o'xshagan mujtahid ulamolarning so'zlarini hikoya tarzida zikr qilish unga vojib bo'ladi. Ma'lumki, zamonimizda savollarga berilayotgan javoblarning aksari fatvo emas, balki fatvo so'ragan kishi uchun mujtahid muftiyning gapini naql qilishdir.

Muqallidning mujtahiddan naql qilishi ikki xil bo'ladi: uning aytayotgan masalasida, mujtahidga yetib boradigan sanadi bo'lishi kerak yoki mashhur kitoblardan olgan bo'lishi mumkin. Misol uchun Imom Muhammad va boshqa mujtahidlarning yozgan asarlari. Chunki bu kitoblar ulardan kelgan mutavotir va mashhur xabar o'rnida bo'ladi. Imom Roziy ham shunga o'xshash gapni aytgan [2:312].

Imom Abu Hanifa va boshqa mujtahidlardan rivoyat qilinadi: "Hech bir kishiga biz qayerdan olganimizni bilgunga qadar, bizning so'zimizga fatvo berish durust emas" [8:165]. Ibn Obidin (*rohimahulloh*) bu so'zning sharhida ikkita ehtimolni aytgan. Birinchisi, bu gap mutlaq mujtahidga tegishli bo'lib, unga biror imomga taqlid qilish faqatgina o'sha imomning dalillari unga ma'lum bo'lsagina joiz.

Ikkinchisi, bu gap biror mazhab doirasida ijthod qiluvchi mujtahidga tegishli bo'lib, unga imomining mazhabiga ko'ra yangi masalalarni taxrij qilishi durus emas. Faqatgina shu masala borasida imomining dalillarini yaxshi bilsagina joiz bo'ladi. Sababi mazkur asosiy masalaning dalili va illatini bilmasdan turib, taxrij qilish mumkin bo'lmaydi. Bu ikki ehtimol o'rtasida hech qanday ziddiyat yo'q. Demak, ushbu ikki ish mujtahidlarning ko'zlagan maqsadi bo'lishi mumkin.

To'g'risi, haqiqiy ma'noda mujtahidgina fatvo beradi. Bu o'rinda mujtahid mutlaq yoki mazhab ichida bo'ladimi farqi yo'q. Ammo mazhab ichida mujtahid bo'lmagan kishi haqiqiy muftiy emas. Balki Ibn Saloh, Ibn Humom va boshqa ulamolar aytib o'tganidek, uimomning fatvosini naql qiluvchi xolos.

Fatvo bilan qozining hukmi o'rtasidagi ma'lum bir farqlar mavjud:

A) Fatvoda faqatgina joizlik yoki mustahablik, vojiblik yoki makruhlik va haromlikdan iborat shar'iy hukm bayon qilinadi. Unda fatvo so'rovchiga so'ragan savolning taqozo qiladigan hukmiga amal qilishni vojib qiladigan biror hissiy majburiyat bo'lmaydi. Qozining hukmi majburlab bo'lsada bajartiriladi.

B) Fatvo so'ralgan savoldan kelib chiqib beriladi. Ya'ni muftiy so'ralgan savol voqe'likka muvofiq, degan faraz bilan shar'iy hukmi bayon qiladi. Hukmi so'ralgan hodisa haqiqatda bo'lgan yoki bo'lmagani hujjatlar bilan aniqlashtirishi muftiyning vazifasi hisoblanmaydi. Shuning uchun muftiy: "So'ralgan masalaning hukmi bunday..." deydi. Bu o'rinda so'ralgan masala haqiqatda voqe'likda shunday bo'lishi shart emas.

D) Fatvo vojiblik, haromlik, mubohlik, mustahablik, makruhlik, sahiihlik yoki botilik hukmi kelib chiqadigan masalalarga tegishli bo'ladi. Qozining hukmi esa mustahablik yoki makruhi tanzihilik bo'lgan masalalarda joriy bo'lmaydi. Chunki mustahablik biror ishni qilishga, makruhlik esa qilmaslikka targ'ib hisoblanadi. Bunday ishlarni bajarib-bajarmaslikda biror majburiyat bo'l-

maydi. Qozining hukmida esa hukm qilingan shaxsga nisbatan majburiyat bo'ladi.

E) Fatvo fiqhiy hukmlar bilan cheklanmasdan aqida masalalari va ibodatlarga ham aloqadar bo'ladi. Qozining hukmi aqida masalalari va ibodatlarga aloqasi bo'lmaydi. Illo biror ishga tobe tarzda bu masalada ham hukm chiqarishi mumkin [9:318].

Oldingi asrlarda yashab o'tgan ulamolar fatvo berish xatarli va mas'uliyatli ekani, shu bilan birga fazilatli ekanini ta'kidlab o'tishgan. Jumladan, Imom Navaviy (*rohimahulloh*) shunday deydi: "Bilingki, fatvo berish xatari ulkan, qadri yuksak va fazilati ko'p ishdir. Chunki muftiy Payg'ambar (*alayhissalom*)larning merosxo'ri hisoblanadi. Muftiy o'zini xatarga qo'yib, islom dinidagi farzi kifoya amalni bajaruvchi hisoblanadi. Shuning uchun ulamolar "Muftiy shar'iy hukmga Alloh taolo tomonidan imzo chekuvchi", deyiladi".

Shu e'tibordan muftiy fatvo berish mansabining xatari va mas'uliyatini his qilishi lozim. Fatvo o'zining shaxsiy fikrini bildirish yoki aqlidan kelib chiqib hukm qilish yoki nafsiy his-tuyg'ularidan kelib chiqib ish qilish emasligini bilishi lozim. Fatvo berish bu insonlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotlarida zarur bo'ladigan fiqhiy hukmlar va ibodatlarni bayon qilishdir. Alloh taolo joriy qilgan shar'iy hukmlar va ibodatlar insonlarning ikki dunyoda abadiy baxtga erishishini ta'minlaydi.

Muftiy berayotgan fatvosida Alloh taolo tomonidan shar'iy hukmni bayon qilayotganini bilishi, Qiyomatda bergan fatvosiga mas'ul bo'lishi va javob berishini esada tutishi lozim. **"Fatvo berishga jur'atlirog'ingiz do'zaxga ham jur'atlirog'ingiz"**, hadisi ham fatvo berishning mas'uliyati og'ir ekaniga dalolat qiladi.

Uqba ibn Muslim aytadi: "Abdulloh ibn Umar (*roziyallohu anhu*) bilan o'ttiz to'rt oy hamroh bo'ldim. Ko'pincha biror masala haqida so'ralsa: "Bilmayman", deb javob berardi. So'ngra menga qarab: "Bilasanmi, ular mendan nima xohlayapti? Ular bizning orqamizni o'zlari uchun do'zaxga ko'prik qilib olishni xohlashmoqda" der edi".

Sahobalar fatvo berishga shoshilmas edilar. Fatvo bersa ham voqelikda sodir bo'lgan masala haqida fatvo berishar edilar Chunki ular biror hodisa sodir bo'lgan vaqtda Alloh taolo fatvo beruvchini to'g'ri javob berishga muvaffaq qilishiga ishonardilar. Fatvo so'ralganda ham imkon qadar yonidagi sherigi fatvo berishini xohlardi.

Baro ibn Ozib raziyallohu anhu aytadi: "Badr g'azotiga qatnashgan uch yuz nafar sahobalarni ko'rdim. Har bittasi o'zidan so'ralgan fatvoga sherigi javob berishni yaxshi ko'rardi". Imom Shofeiyy rahimahulloh aytadi: "Men ibn Uyaynachalik fatvo berishga salohiyatli bo'lgan biror kishini ko'rmadim. Shunga qaramasdan u kishi fatvo berishdan ko'p sukut qilardi" [14:282].

Sufyon ibn Uyayna aytadi: "Fatvo berishda insonlarning bilimlirig'i unda sukut qiluvchirog'idir. Fatvo berishda insonlarning ilmsizrog'i fatvo berishda ko'p gapiruvchirog'idir". Bishr ibn Horis aytadi: "Kim o'zidan masala so'ralashini yaxshi ko'rsa, u savol so'ralishga loyiq emas".

Ato ibn Soib aytadi: "Men bir toifa insonlarni uchratdimki, ularning birortasidan biror masala so'ralsa, qaltirab javob berar edi".

Mashhur tobein Ibn Sirin (*rohimahulloh*)dan halol va haromga oid fiqhiy masala so'ralsa, rangi o'zgarib, oldingi holatidan tamoman boshqa holatga tushib qolardi. Imom Molik rahimahullohning shogirdlaridan shunday hikoya qilinadi: "Imom Molikdan biror savol so'ralsa, go'yoki jannat va do'zaxning o'rtasida turgandek bo'lardi".

Abdulloh ibn Umar (*roziyallohu anhu*) aytadi: "Sizlar bizdan fatvo so'raysiz, go'yoki biz sizlarga bergan fatvoimiz haqida so'ralmaydigandek".

Imom Abu Hanifa (*rohimahulloh*) aytadi: "Ilmning zoye bo'lishi borasida Allohndan qo'rqmaganimda biror kishiga fatvo bermas edim. Fatvo berganimda foydasi unga, guno hi mening zimmamda bo'ladi".

Muhammad Ibn Vose aytadi: "Qiyomat kuni birinchi hisob-kitobga chaqiriladiganlar ulamolar bo'lishadi".



Sufyon ibn Uyayna (*rohimahulloh*) aytadi: “Olimning bitta gunohi kechirilishidan oldin ilmsiz kishining yetmishta gunohi kechiriladi”.

Umar ibn Xalda (*rohimahulloh*) Rabia ibn Abu Abdurrahmonga qarata aytadi: “Ko’rib turibmanki, insonlar savol so’rab, seni o’rab olishibdi. Qachon bir kishi sendan savol so’rasa, uni qutqarishni o’ylamasdan balki uning savoliga javob berayotgan chog’ingda o’zingni qutqarishni o’yla”.

Abu Said Abdussalom aytadi: “Eng badbaxt inson dunyosi uchun oxiratini sotgan kishi. Undan ham badbaxtroq inson boshqaning dunyosi uchun o’zining oxiratini sotgan kishi”.

Ibn Saloh (*rohimahulloh*) aytadi: “Insonlar ichida fatvo berishga jur’atlirog’i bo’lgani ilmi ham kamroq bo’ladi”.

Ibn Abbos va Ibn Mas’ud (*roziyallohu anhumo*)lar aytdi: “Kim barcha savolga fatvo bersa, u majnundir”.

Sha’biy, Hasan va Abul Husayn (*rohimahulloh*) aytadi: “Sizlarning biron tangiz fiqhiy masalada bemalol qo’rqmasdan fatvo bermoqda. Agar men Umar ibn Xattob roziyallohu anhuning oldiga shu masalada fatvo so’rab borsam, javob berish uchun Badr ahlini to’plar edi”.

Abdurahmon ibn Abu Laylo aytadi: “Bir yuz yigirmatta ansor sahobani uchratdim. Ulardan biror savol so’ralsa, yonidagisiga jo’natar, hatto savol so’ragan kishi birinchi savol so’ragan sahobaga qaytib kelar edi”.

Imom Shofe’iy (*rohimahulloh*)dan bir masala haqida so’ralganida javob bermasdan sukut qildi. U kishidan “Qachongacha sukut qilasiz? deb so’raldi. U “Fazilat sukut qilishdami yoki javob berishdami shuni bilgunimcha”, dedi.

Amr ibn Abu Zubayda aytadi: “Biror narsa haqida so’ralsa, “Bu borada biror ma’lumotim yo’q”, degan gapni Sha’biydan ko’ra ko’proq ishlatgann biror kishni ko’rmadim”.

Abdurrahmon Umariy aytadi: “Menga Imom Molik shunday degan: “Ko’pincha menga bir savol beriladi, u meni yeb-ichishdan va uyqudan to’sadi”.

Abdurrahmon ibn Qosim aytadi: “Men Imom Molik shunday deyotganini eshitdim: “Men o’n yildan ortiq muddat mobaynida bir masala haqida fikr yuritaman. Hali-hanuz o’sha masala borasida to’g’ri javobga muvafiq bo’lmadim” [11:242].

Rasululloh (*sollallohu alayhi vasallam*) zamonlarida muftiylik va fatvo berish amaliyoti joriy qilinmaganlining sababi Payg’ambar alayhissalomning o’zi musulmonlar barcha savollariga fatvo berar edilar.

Sahobalar roziyallohu anhum orasida fatvo beruvchilar juda kam bo’lib, ular 140 nafarni tashkil etgan, xolos. Vaholanki, ularning adadi 100 mingdan ortiq edi. Sahobalar ichida ko’p fatvo berish va fiqhiy masalalarda suyaniladigan faqihlari yetti nafar bo’lgan:

1. Umar ibn Xattob;
2. Abdulloh ibn Mas’ud;
3. Ali ibn Abu Tolib;
4. Zayd ibn Sobit;
5. Oisha binti Abu Bakr;
6. Abdulloh ibn Umar;
7. Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhum [3:297].

Fiqh ilmining rivojiga ta’sir qilgan asosiy omil mazhablarning shakllanishi bo’lgan. Mazhab ilk huquqiy maktablardan farq qilar edi. Ilk huquqiy maktablarda huquq haqidagi qarashlar savol so’rovchilar yoki boshqa ehtiyoj asosida, ya’ni ijtimoiy hayotdagi muammolarga bog’liq holda shakllanib borgan edi.

Mazhablar shakllanganda esa faqat ijtimoiy hayot taqozosi emas, balki maqsadli ravishda ijtimoiy hayot talabi va tug’ilishi mumkin bo’lgan muammolarni qamrab olgan holda tizimli ravishda huquqiy munosabatlarni tartibga solishga harakat qilingan.

Bu davrda salohiyatli katta olimlar – mujtahidlar shakllangan bo’lib, bugungi kunda ulardan 13 tasining mazhabi shakllanganligi aniqlangan. Ular quyidagilar:

1. Hasan ibn Yazor Basriy (21-110/642-728);
2. Abu Hanifa No’mon ibn Sobit (80-150/699-767);

3. Abdurrahmon ibn Amr Avzo'iy (88-157/707-774);
4. Sufyon ibn Sa'id Savriy (97-161/716-778);
5. Lays ibn Sa'd (94-175/713-791);
6. Molik ibn Anas Asbahiy (93-179/712-795);
7. Sufyon ibn Uyayna (107-198/725-814);
8. Muhammad ibn Idris Shofe'iy (150-204/767-820);
9. Ishoq ibn Ibrohim Rohuya Hanzaliy (161-238/778-853);
10. Abu Savr Ibrohim ibn Xolid Kalbiy (vaf. 240/854);
11. Ahmad ibn Hanbal (164-241/780-855);
12. Dovud ibn Ali Zohiriy (201-270/816-884);

13. Muhammad ibn Jarir Tabariy (224-310/839-923) [13:56].

Ushbu mujtahidlar o'z davrida fatvo berish bilan mashhur bo'lib, har birining tarafdorlari ibodat, muomalot va boshqa masalalarda ulardan fatvo so'rar edi. Keyinchalik, mazhab sifatida shakllangan hanafiy, molikiy, shofe'iy, hanbaliy mazhabidan o'zgalari yo'qolib ketgan.

Xulosa qilib aytganda, fatvo Rasululloh (*sollallohu alayhi vasallam*) hayotlik chog'larida asos solinib, sahoba va tobeinlar davrida rivojlangan hamda fihiy mazhablar orqali takomillashtirilgan, tizimga solingan, tarqoq fatvolar bir joyga jamlangan, fatvo tizimiga asos solingan. Keyingi davrlarda esa har bir mazhab bo'yicha chiqarilgan fatvolar to'planib, fatvo kitoblari yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulqodir Qurashiy. Al-Javohir al-muziyya fiy tabaqot al-hanafiya / Tahqiq Muhammad Abdulloh Sharif. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 2005.
2. Ahmad ibn Nasiriddin Naqib. Al-Mazhab al-hanafiy. J. I. – Riyoz: Maktabatur rushd, 2001.
3. Aminov H., Primov S. Hanafiy fihi tarixi, manbalari va istilohlari. – T.: Movarounnahr, 2017.
4. Bekmirzayev I. Fatvo berish asoslari // o'quv qo'llanma. – Toshkent: Qamar-mediya, 2020.
5. Imom Sayrafiy. Sharhul muntaho. – Qohira: Matbaa ansoris sunna. J. III. tarixsiz.
6. Al-Mavsuatul fihiyya. J. XXXII. – Kuvayt: Vizaratul avqof vash shuunil islomiyya, 1995.
7. Muhammad Abdulloh ibn Muslim Bahlaviy. Adillatul hanafiyya minal ahadis in nabaviyya alal masailil fihiyya (Muhammad Rahmatulloh Nadaviy nashri). – Damashq: Dorul qalam, 2007.
8. Muhammad Abu Zahra. Abu Hanifa: hayotuhu va asruhu, arouhu va fiqhuhu. – Qohira: Dorul fikril arabiy, 1997.
9. Muhammad Abu Zahra. Tarixul mazohibil islomiyya. J. II. – Bayrut: Dorul fikril arabiy, 2016.
10. Muhammad Amin ibn Umar ibn Obidin Dimishqiy. Sharh al-manzuma uqudu rasm al-muftiy // Rasoilu Ibn Obidin. – Istanbul: Sahhofiya, 2014.
11. Muhammad Taqiy Usmoniy. Usulul ifto va odobuhu. – Dimashq: Dor al-qalam, 2014.
12. Primov S., Umaraliyev Sh. Islom huquqiga kirish // o'quv qo'llanma. – T.: Qamar-mediya, 2020.
13. Toshqulov J. va boshqalar. Islom huquqshunosligi (fiqh). – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
14. Zafar Ahmad Usmoniy Tahonaviy. Favoid fi ulumil fiqh // Muqaddimatu e'lous sunan. J. XIX. – Bayrut: Dorul fikr, 2001.



Behzodbek SOIPOV
Din ishlari bo'yicha qo'mita
Boshqarma boshlig'i
e-mail.: behzod.soipov@mail.ru

**BAG'RIKENGLIK TAMOYILI – JAMIYAT
IJTIMOIY-SIYOSIY BARQARORLIGINI
TA'MINLASHDA MUHIM OMIL**

THE PRINCIPLE OF TOLERANCE IS AN
IMPORTANT FACTOR IN ENSURING SOCIO-
POLITICAL STABILITY OF SOCIETY

Bugungi kunda xalqaro miqyosda dolzarb muammolardan biri shubhasiz davlat va din o'rtasidagi munosabatlar uyg'unligini ta'minlash bo'lib bormoqda. Jahon mamlakatlarining ichki va tashqi siyosatida din omili tobora ijtimoiy-siyosiy bahs munozaralarning muhim ob'yektiga aylangani holda siyosiy jarayonlar va institutlarni diniy mushohadalar orqali aniqlashga asoslanib bormoqda. Bu bir tomondan global tahdidlar bilan aloqador bo'lsa, ikkinchi tomondan davlatlarning milliy manfaatlari uyg'unlashuvini ta'minlash borasida yangi siyosiy strategiyalarni izlash jarayonida aksar tahlilchilar tomonidan din omili milliy - etnik, demografik, ekstremistik va boshqa turdagi tahdidlarga qarshi turuvchi ma'naviy kuch sifatida qarab kelinmoqda. Shuning bilan, zamonaviy dunyo jamiyatning dindorlik darajasi va sekulyarizm tendensiyalari o'rtasidagi ixtiloflar majmui sifatida ham xarakterlanadi.

O'zbekistondagi demokratik taraqqiyot yo'li asnosida huquqiy davlatchilik va kuchli fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida vijdon erkinligining kafolatlanishi bois diniy tashkilotlar faoliyatining tez sur'atlarda o'sishiga, ular sonining keskin ko'payishiga va buning natijasida dinning jamiyatga ta'siri kuchayishiga olib keldi. Shuningdek,

mamlakatdagi ijtimoiy jarayonlar Yangi O'zbekistonning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda davlat-konfessiyaviy munosabatlarning muqobil modelini shakllantirishni talab qilmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev o'z ma'ruzasida "Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim" [10]-deb ta'kidlagan edi.

Bugungi globallashuv va milliy qadriyatlarining emirilishi zaminida jamiyatning ma'naviy tamadduni albatta din omiliga asoslanadi va aksincha davlat instituti barcha insonlarga huquq va erkinliklarni kafolatlagani holda turli diniy aqidalardan yiroqlashadi. Bu elementlar, avvalo, jamiyatning tayanch ustunini tashkil etuvchi yoshlar qatlamining ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashida aks etishi lozimligi bilan belgilanadi.

Hozirgi zamonda diniy bag'rikenglik madaniyati dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. Shu tamoyilga asoslangan O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki global terrorizm sababli butun insoniyatni ma'naviy-ruhiy inqirozga yuz tutishi mumkinligini jamiyatshunos olimlarning o'zlari ham alohida qayd etmoqdalar. Shu boisdan ham Jak Delor "terrorizmning butun jahonga xavf solib turishi barchamizni unga qarshi kurashishga, tinchlik, xavfsizlik va bag'rikenglikni mustahkamlash uchun birlashishga undaydi" [2:28], deb ta'kidlaydi.

Keyingi paytda diniy ziddiyatlar qatorida dinning siyosiylashuvi keskin tus olmoqda va bu butun jamoatchilikka, davlat xavfsizligiga, xattoki, umumjahon xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. Ana shunday omillar sirasiga kiruvchi xalqaro terrorizm, diniy fundamentalizm va ekstremizm kabi muammolar global ahamiyatga ega bo'lgan omil bo'lib, har qanday hukumat u bilan ham ichki, ham tashqi siyosatida hisoblashishiga to'g'ri kelmoqda.

Bugungi kunda mamlakatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash mustaqilligimizga xavf solayotgan ekstremizm, terrorizm, prozeletizm, shovinizm, "ommaviy madaniyat" kabi turli ma'naviy tahdid va xurujlarga qarshi turish, kurashda muhim rol o'ynamoqda. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, diniy bag'rikenglik jamiyat a'zolarining ong-u tafakkuri va insonga xos munosabat madaniyatida, xulq-atvorlarida, muammo va qiyinchiliklarni engishda, har bir insonga muruvvat ko'rsatishda va bag'rikenglik fazilatlarini namoyon qilishda o'z ifodasini topmoqda.

Bag'rikenglik madaniyati – asrlar mobaynida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan ko'p qadimiy qadriyatlaridir. Kishilik rivoji xalqlarning o'zaro aloqadorligi yaqinlik, bog'liqlik, hamkorlikning muntazamligiga ko'ra amalga oshib kelgan. Markaziy Osiyoning tub xalqlari tabiatida boshqa millatlarning vakillariga nisbatan keng fe'llik

xislari qadimdan mavjud bo'lgan. Bu sof insoniy tuyg'u, o'zbeklarda shu qadar rivojlanganki, milliy-ma'naviy keng fe'llik ularning umumiy madaniyati va ruhiyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan. Ochiq ko'ngillilik, mehmondo'stlik, insonparvarlik, ishonuvchanlik, boshqa xalqlarga yordam berish o'zbek xalqining bag'rikengligiga xos fazilatlaridir.

Bugungi globallashuv insoniyat jamiyati taraqqiyoti va ijtimoiy jarayonlarning jahon miqyosida integratsiyalashib borishi hamda uning jahon miqyosida olamshumul ahamiyat kasb etishini o'zida ifodalovchi tushuncha bo'lib, globallashuv kommunikatsiya vositalaridagi tub o'zgarishlar, investitsiyalardagi yangi jarayonlar hamda dunyoga yangicha qarashning vujudga kelishida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatib, xalqaro munosabatlar hamda davlatlarning siyosatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Globallashuv jarayoni (talab-ehtiyojlarning globallashuvi) qarama-qarshi tomonlarga ega bo'lib, u bir tomondan yer kurrasi bo'ylab axborot, bilim va texnologiyalarning tarqalishi bilan rivojlanishga, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga yangi imkoniyatlar yaratadi. Lekin, bunda ikkinchi tomondan, ijtimoiy xilma-xillik, hayotning turli-tumanligi va madaniyati nazarga

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro miqyosda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar uyg'unligini ta'minlash, jahon mamlakatlarining ichki va tashqi siyosatida din omili, globallashuv, uning ijobiy va salbiy oqibatlari, huquqiy davlatchilik va kuchli fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida vijdon erkinligining kafolatlanishi hamda diniy bag'rikenglik tamoyillari masalalari yoritildi.

Abstract. In this article, the issues of ensuring harmony in the relations between the state and religion at the international level, the factor of religion in the internal and external policies of the countries of the world, globalization, its positive and negative consequences, the guarantee of freedom of conscience and the principles of religious tolerance in the context of the development of a legal state and a strong civil society were highlighted.

Kalit so'zlar: davlat va din munosabatlari, globallashuv, konsepsiya, konfessiya, huquqiy davlatchilik, diniy bag'rikenglik.

Key words: relations between the state and religion, globalization, concept, confession, legal statehood, religious tolerance.



olinishi kerak. Bunga ma'naviy me'yorlar bilan yondashish, global muammolarni har bir millatning milliy xarakteri, madaniyati, urf-odatlarida asosida hal etish zarur. Darhaqiqat, barcha dinlardagi konservativ qarash vakillari yangilikka, bag'rikenglikka qancha qarshi bo'lmasinlar ijobiy globallashuv jarayoni ularni zamon, davr taraqqiyoti bilan to'g'ri va hamma uchun maqbul yo'lga solib yuboraveradi.

XX asrning so'nggi choragi va XXI asr boshlarida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari esa bu jarayonlarni yanada tezlashtirib yubordi. Bu degani bag'rikenglikka bo'lgan ehtiyoj mutanosib ravishda ortib bormoqda, deganidir. Bag'rikenglikning ilmiy va kundalik tasavvur sifatidagi tadriji, uning jamiyat hayotidagi muhim tamoyilga aylanishi tarixiga tashlangan qisqa bir nazar mazkur hodisaning tadriji naqadar murakkab kechganidan guvohlik berdi. Alohida individ hayotida ham bag'rikenglik shakllanishi xuddi shunday, ehtimol, undan ham murakkabroq tarzda kechadi.

XXI asr boshlariga kelib jahon taraqqiyotida o'ziga xos yangi xususiyatlar vujudga kela boshladi. Bugungi davrda aksariyat davlatlarning mafkurasi "umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik g'oyalari ustuvordir" [3:85]. Shu bois har bir mamlakat jamiyatdagi barqarorlikni saqlash, ichki va tashqi tahdid manbalarini aniqlash hamda bartaraf etishga katta e'tibor qaratishi tabiiy. XXI asrda ana shunday tahdid manbalaridan biri sifatida etnik va diniy mojarolarni qayd etmoq lozim. Hozirgi kunda dunyoning qator nuqtalarida mahalliy va ichki nizolar davom etayotganini hamda aksariyat hollarda ushbu mojarolarning tub zaminida o'z vaqtida bartaraf etilgan milliy va diniy adovat yotganini ko'rish mumkin. Yoki mazkur omil ichki va tashqi salbiy kuchlar ta'sirida jamiyat barqarorligiga tahdid etishga intilayotganini bilish mumkin. Bizga ma'lumki, har bir jamiyat va davlatning yuksalishi uchun, barqaror

taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida diniy bag'rikenglik tamoyilining fuqarolar ongi va qalbidan mustahkam o'rin olgani, konfessiyalararo sog'lom munosabatlar qaror topgani bilan namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ushbu omil polietnik davlatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki konfessiyalararo munosabatlar jamiyatdagi millatlararo munosabatlar xarakteriga, jamiyatning "tahdidbardoshlik salohiyati"ga jiddiy ta'sir qiluvchi omildir. Zero, "polietnik birliklarning tahdidbardoshlik salohiyati jamiyatda milliy totuvlikning ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir" [7:10]. Milliy totuvlikning qaror topishi esa diniy bag'rikenglik tamoyilining jamiyat a'zolari qalbida chuqur ildiz otishiga aloqador.

Hozirgi davrda respublikamizdagi turli millat vakillarining milliy o'zligini anglashi ayrim holatlarda diniy o'zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog'lanib ketayotganini e'tiborga olish muhim. Shu o'rinda "Din va etnosning o'zaro aloqadorligi etnos (millat) va dinning parallel rivojlanishida, diniy va milliy o'ziga xoslikning aynanlashtirilishida yaqqol namoyon bo'ladi" [9:21-22], -degan fikrni asosli deb hisoblash o'rinlidir. Jamiyatda bag'rikenglik tuyg'usining uzviy qismi bo'lmish diniy bag'rikenglikni mustahkam qaror toptirish globallashayotgan, madaniy qadriyatlar sintezlashuvi ro'y berayotgan XXI asr voqeligida "o'zaro bir-birini tushunish va hurmatning asosi bo'lib xizmat qiladi" [1:166]. Zero, yoshlarning "ayniqsa, talaba va o'quvchi yoshlarda siyosiy bilimlarni oshirish, vatanparvarlik hissini kuchaytirish" [5:560] uchun harakat qilinayotgan ekan, barcha millat vakillariga, milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhini mazkur jarayonning asosiga qo'ymoq lozim.

Respublikamizda milliy bag'rikenglikni, shu asosda ijtimoiy hamkorlik va barqaror taraqqiyotni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

Birinchi, millatlararo munosabatlar ba'zan diniy konfessiyalararo munosabat

xarakteriga bog'liqligidan kelib chiqqan holda konfessiyalararo hamkorlik markazini tashkil etish lozim. Bu markaz turli diniy e'tiqod vakillarida o'zaro bir-birini tushunish va hurmat madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lishi mumkin;

Ikkinchidan, millatlararo totuvlik mintaqamizdagi siyosiy, etnik jarayonlar va qo'shni respublikalardagi millatlararo munosabatlar xarakteri bilan chambarchas bog'liq. Bu holat milliy va fuqaroviy birlik konsepsiyalarini mintaqaviy birlik konsepsiyasi bilan muvofiqlashtirishni, mintaqada milliy va diniy munosabatlarni sog'lomlashtirishga doir maxsus davlatlararo dastur ishlab chiqishni taqozo etadi;

Uchinchidan, globallashuv jarayonining milliy va diniy bag'rikenglik rivojiga ko'rsatishi muqarrar bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirini doimiy ravishda tahlil qilib borish va shunga muvofiq ravishda tegishli chora-tadbirlar tizimini joriy etib borish zarur. Yuqorida ta'kidlangan jihatlar echimi milliy taraqqiyotimizning barqaror rivojini ta'minlovchi omil sifatida e'tiborlidir. Jamiyatda mafkuralar xilmaxilligi, plyuralizm tamoyillarini shakllantirish fuqarolarning siyosiy madaniyatini oshirishning muhim jihati ekanini ta'kidlash joiz.

Bag'rikenglik yoki toqatsizlik asoslari o'z ko'rinishi va namoyon bo'lishiga ko'ra asosan quyidagi turlarga bo'linadi: shaxsiy, oilaviy, irqiy, milliy, diniy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, gender va hokazo. Milliy bag'rikenglik deganda, boshqa millatlarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lishni tushunish mumkin.

Asosiy Qomusimiz kishilik jamiyatida kelib chiquvchi nizo va mojarolarni atroflicha chuqur tahlil etish orqali odamlarni diniy-milliy xarakterdagi firqalarga bo'linishining oldini olishni ko'zda tutadi. Shu ma'noda asosiy Qomusimizdagi o'ziga xoslik va bag'rikenglik aslida ajdodlardan avlodlarga meros ekani bilan qadrlidir. Asosiy Qonunimiz bag'rikenglikni har bir fuqaroning shaxsiy huquq va erkinligi daxlsizligi

bilan bog'liq moddalarda yaqqol ifodalagan. Zero, har qanday odam millati, elati, kelib chiqishi, tili, rangi, ijtimoiy mavqei, yoshi va boshqa ijtimoiy-madaniy farqlaridan qat'i nazar qonunda belgilangan huquq va erkinliklarga egadir.

O'zbekistonda jamiyat hayotining demokratlashuvi jarayonida diniy bag'rikenglik g'oyasining ahamiyati beqiyosdir. Demokratik taraqqiyot yo'lidan borishda milliy qadriyatlarni tiklash asosida milliy o'zlikni anglashga erishish jamiyatning oldida turgan muhim vazifalardandir. Jumladan, diniy bag'rikenglik g'oyasini shakllantirish demokratik jamiyat qurishning asosiy talablaridan biridir. Uning eng muhimlaridan biri sifatida demokratik jamiyat qurishning dunyoda e'tirof etilgan tamoyillarini tan olish hamda demokratiyaning milliy-madaniy meros va qadriyatlar bilan bog'liq xususiyatlarga tayanishdan iborat. Mamlakat ijtimoiy hayotida diniy bag'rikenglik g'oyasi demokratik jarayonlarda milliy istiqloq g'oyasining muhim salohiyati sifatida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham milliy g'oyaning, O'zbekistonda diniy bag'rikenglik g'oyasining ahamiyati, uning o'ziga xos jihatlari tadqiq etilishi davr talabidir. Zero, bu uzviy bog'liqlikni ilmiy tahlili O'zbekistonda shakllanayotgan demokratik jamiyatning ustuvor yo'nalishlari, tendensiyalari va tamoyillarini aniqlash, ularni takomillashtirish yo'llarini to'g'ri tushunish imkonini beradi. Darhaqiqat, diniy bag'rikenglik g'oyasining mazmun-mohiyati, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri anglash uchun, Markaziy Osiyo xalqlarining kamida uch ming yillik madaniy va ma'naviy tarixini yaxshi bilish talab qilinadi. Shuni yaxshi anglash kerakki, hozir bu g'oya jamiyatning barcha jabha va sohalarida uzul-kesil amal qilib kelishi tasodifiy bir hol emas, balki u zaruriy hodisa sifatida xalqning ongi va qalbida yetishib, shakllanib, uning hayotida sinovlardan o'tib, yuksak baholanib va ma'qullanib kelingan.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda o'zbek



xalqining ilg'or madaniy-ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, ayni vaqtda bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud bo'lib kelgan dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi, tadrijiy taraqqiyotini o'rganish turli konfessiya vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda diniy bag'rikenglik muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda shuni ham aytish kerakki bunday insonlar boshqa din vakillariga nisbatan ham yuksak hurmatda bo'ladi. Ya'ni insonni qadrlaydigan yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib yetishadi.

Umuman olganda global o'zgarishlar sharoitida diniy bag'rikenglik quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi:

Birinchidan, din va diniy qadriyatlar etnosiyosiy paradigмага qarshi chiqmaydi, balki rivojlanishini ta'minlashga o'z vosita va usullari bilan yordam beradi. Etnosiyosiy paradigmaning strategik maqsadi jamiyatning barcha a'zolari, shu jumladan, dinga e'tiqod qiluvchilar, konfessiyalar, diniy tashkilot a'zolariga ham daxldordir.

Ikkinchidan, O'zbekiston dunyoviy, demokratik, huquqiy davlat, unda din davlatdan ajratilgan, din davlat ishlariga aralashmaganidek, davlat ham diniy idoralar, tashkilotlar ichki ishlariga aralashmaydi. Biroq bu din va diniy idoralar, e'tiqod qiluvchilar istagan ishini qilishi, davlat va jamiyat hayotiga indifferant munosabatda bo'lishi mumkin, degan fikrga olib kelmasligi zarur. Dindorlar qanday ijtimoiy-axloqiy va siyosiy-huquqiy qadriyatlarga tayanishiga davlat va jamiyat befarq qaray olmaydi.

Uchinchidan, xalqlar, millatlar inoq yashaganida, strategik maqsadni o'zining hayotiy maqsadi sifatida qabul qilganida ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash mumkin.

To'rtinchidan, millatlararo munosabatlarda dinga, diniy qadriyatlarga tayanish vijdon erkinligi orqali ta'minlanadi. Qaysi dinga e'tiqod qilish, qanday diniy qadriyatlarni e'zozlash, targ'ib etish va qo'llab-quvvatlash shaxsning konstitutsion huquqidir. Ammo din va diniy tashkilotlarning millatlararo

munosabatlarga bevosita aralashishi, ularni u yoki bu shaklda uyushtirish, bir millatni ikkinchisiga qarshi qo'yishi mumkin emas.

Beshinchidan, millatlararo munosabatlarda din va diniy tashkilotlar to'plagan tarixiy, madaniy, ijtimoiy-axloqiy tajribalardan foydalanish har ikki tomon, ayniqsa, ijtimoiy taraqqiyot uchun konstruktiv ahamiyatga ega. Shuningdek, dinda konservativ va dogmatik unsurlar ham borligini, ulardan destruktiv kuchlar foydalanishga intilayotganini unutish mumkin emas. Hozirgi kunda diniy fundamentalizm va terrorizm keng tarqalayotgani bois, davlatlararo, millatlararo munosabatlarda bir-biriga shubha bilan qarash, to'la ishonmaslik real voqelikka aylanib bormoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Dunyoviy va diniy mafkuralar munosabatini o'zaro uyg'unlashtirishda mafkuraviy tarbiya alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, g'arazli manfaatlarini ko'zlagan ayrim kuchlar dindan niqob sifatida foydalanib, yoshlarni o'z domiga tortishga intiladi. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda, globallashuv sharoitida ayrim yoshlar ongiga bu holat salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu boisdan ham, haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqloq yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi [4:76-77].

Diniy ma'rifatning jamiyat intellektual darajasiga mos o'zgarishi, takomillashuvi – zaruriy, ijobiy jarayon. Ammo hozirgi davrda paydo bo'layotgan yangi diniy sektalar jamiyat ma'naviy taraqqiyotining kelajagi bo'lgan yoshlarning bir qismini o'z tomoniga og'dirib, ijtimoiy hayotdan chetlashtirishga, yoshlar faoliyatini davr qo'yan muammolarni oqilona hal qilishga yo'llamasdan, balki

tushkunlik, egoistik, umidsizlik kayfiyatiga yo'naltirmoqda va jamiyat ma'naviyatiga katta zarar yetkazmoqda. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalari. Agarki biz o'zimizning ma'naviy burchimizni oqlashni istasak, ularga otalarcha g'amxo'rlik qilishimiz kerak, shuning uchun, ularning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish zarur [4:80].

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat ishlaridan ajratilgan holda bizning mustaqil, hur, ko'pmillatli mamlakatimizda islom dini bilan barobar pravoslavlik, yahudiylik, baptistlik, adventistlik, katoliklik singari o'ndan ortiq boshqa konfessiyalar mutlaqo erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Qaysi din yoki mazhabga mansubligidan qat'i nazar, bu konfessiyalarning farovonligi va ravnaqi uchun astoydil mehnat qilmoqdalar.

Nemis olimi T.Nagelning: "O'zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. Chunki, konstitutsiyaviy dunyoviy-ma'rifiy davlatda vijdon erkinligi qonuni diniy e'tiqodi va dunyoqarashlaridan qat'i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qiladi" [6:25], - deb ta'kidlashi ham bunga isbot bo'la oladi.

Bugungi kunda O'zbekiston shaharlarida turli dinlarga mansub muassasalar – musulmonlarning masjidlari, yahudiy sinagogalari, katolik kostellari, pravoslav va protestant cherkovlarining turli shahobchalariga oid ibodatxonalarni ko'rish mumkin. Tarixiy murakkab jarayonlarni o'zbek xalqi boshqa dinlar vakillari bilan birgalikda boshidan kechirar ekan dinlararo bag'rikenglik borasida ulkan tajriba to'plab borgan.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat va e'tiqod vakillari yurtida tinchlik va barqarorlikdan manfaatdordirlar hamda shu yo'lda hamjihatlik bilan harakat qiladilar. Chunki, "Millatlararo totuvlik g'oyasi – umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi" [8:59].

Xulosa qilib aytganda, bag'rikenglik madaniyati masalasini o'rganishda milliy an'analarga, milliy qadriyatlarga va milliy madaniyatga e'tibor berish lozim. Chunki bag'rikenglik xususiyati ham o'zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. O'zbek milliy mentalitetida bag'rikenglik umuminsoniy qadriyatlar va tamoyillarning o'zaro muvofiqlik darajasini belgilash omili hamdir. Ayni vaqtda bag'rikenglikni ifodalovchi xususiyatlarga odamlarning hammasi ham ongli ravishda bo'ysunavermaydi, balki ularning bir qismi ko'pchilikka taqlidda, masala mohiyatini yetarli his etmay turib ham amal qilaveradilar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. BMT Bosh kotibining Xalqaro bag'rikenglik kuni munosabati bilan yo'llagan bayonotnomasi. – Toshkent: // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari, № 4 (44). 2008.
2. Jacques Delor. Learning: the Treasure within // Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. – Paris: UNESCO, 1997.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin // Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. J.7. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
6. Nagel T. Lotin Yevropasida dunyoviy-ma'rifiy davlat rivoji // Islom va dunyoviy-ma'rifiy davlat. – Toshkent: 2003.
7. Paxrutdinov Sh., Nazarov N. Milliy totuvlik – tahdidbardoshlik omili. – Toshkent: // Jamiyat va Boshqaruv jurnali, 2005. № 3.
8. Rahimov S. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
9. Хўжамуродов И.Р. Проблема формирования национального (этнического) самосознания узбекского народа и влияние на него Ислама. Автореф. дисс. доктора филос. наук. – Ташкент: 1994.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/vatanimiz-ta-diri-va-kelazhagi-y-lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017>

Ivadulla AXROROV

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tayanch doktoranti
e-mail.: AIBODULLOH@INBOX.RU*

ISLOM – TINCHLIK DINI



ISLAM IS A RELIGION OF PEACE



Jahonning bir necha mintaqalarida notinchlik hukm surayotgan hozirgi kunda tinchlik so'zining qadri naqadar qiymatli ekanini har bir oqil inson anglab yetmoqda. Yurtdagi tinchlik, osoyishtalik, xonadonlardagi xotirjamlik zamirida xalq iymon-e'tiqodi, qanchadan-qancha kishilarning zahmatli mehnati, oqilona tadbiri turibdi, deyilsa, ayni haqiqat aytilgan bo'ladi. Shu o'rinda otabobolarning har kunlik, har bir dasturxon boshida, taomlanib bo'lgandan keyin o'qiydigan quyidagi duosi o'zbek xalqining mashhur maqoliga, purma'no hikmatiga aylanib ulgurgan: "Tinchlik-xotirjamlik bo'lsin". Yurti tinch, oilasi xotirjam kishidan ham baxtli odam bormikan bu dunyoda!?

XXI asr – axborot asri. Insoniyat ulkan taraqqiyotga erishgan asr. Ilm-fan, texnika, madaniyat, meditsina, qo'yingki, barcha sohalar rivoj topayotgan davr. Bugungi kunda kompyuterning turli dasturlari ixtiro qilinib, internet tarmoqlari keng yoyildi. Natijada, ilm-fan o'z taraqqiyotining yangi ommalashuviga erishdi. Shu bilan bir qatorda yovuz g'oyaviy xurujlar avj oldi. Insoniyatni qirib bitirishga yetarli turli xildagi qirg'in qurollari ishlab chiqildi. OITS, Ebola va turli yangidan-yangi virus va kasalliklar paydo bo'ldi. Ma'naviyat olamida "ommaviy madaniyat" degan ofat barcha xalqlar madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Shuningdek, fitnachilar din

niqobi ostida soxta g'oyalar, buzuq aqidalarga chaqiryapti. Demak, islom himoyachisi bo'lgan kishi "jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida Islom dinining asl ma'no-mohiyati, sof islomiy aqidalari asosida javob berishi kerak. Shu nuqtai nazardan islomning ba'zi jihatlariga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi.

Islom – ma'rifat dini. Alloh taolo O'zining oxirzamon payg'ambarini arablar orasidan tanlab oldi. Makon sifatida Arabiston o'lkasini ixtiyor etdi. Bunda Yaratganning O'ziga ayon bo'lgan ko'plab hikmatlar bor, albatta. Ammo manbalarda kelgani shuki, risolat kelgan VII asr arablar jaholat botqog'iga botgan, butlarga sig'ingan, qizlaridan or qilib, tiriklayin ko'mgan, urug' va qabilalar o'rtasida tez-tez urush bo'lib turgan, insonning qadr-qimmatini molu dunyo, kuch-qudrat bilan o'lchanadigan, qulchilik avj olgan davr edi. Alloh taolo zalolatdagi kishilarni to'g'ri yo'lga boshlash uchun Muhammad (*alayhissalom*) ga Qur'oni karimni nozil qildi. Eng birinchi nozil bo'lgan so'z "Iqro" kalimasi bo'ldi. Uning ma'nosi "O'qi!" deganidir. Shu birgina So'zi bilan Yaratgan zalolat va jaholat degan dardning davosi ma'rifat ekanini anglatdi. Zalolatning ilk muolajasi ilmu ma'rifatga chorlash bilan boshlandi. Dastlabki oyati karima ilmu ma'rifatga chorlash bo'ldi.

Alloh taolo 23 yil mobaynida nozil qilgan ilohiy kitobini "Qur'on" deb nomladi. Ushbu so'z arabcha "qara'a" fe'lining o'zagi bo'lib, "o'qish, o'qimoq" degan ma'noni bildiradi. Qur'oni karim oyatlarida "ilm" va unga oid so'zlar 765 marotaba takrorlanib keladi. Payg'ambari Muhammad (*alayhissalom*) "Beshikdan qabrgacha ilmu izlanglar", "Ilmni talab qilmoq har bir musulmon erkak va ayolga farzdir" kabi hadislarni aytganlar. Musulmonlarni dunyo va oxirati uchun lozim bo'lgan ilmlarni egallashga chaqirdilar. Demak, islomning asosi bo'lgan oyat va hadislar ilmu ma'rifatga chorlaydi. Aslo jaholat, buzg'unchilik, gunoh ishlarga, qotillik kabi illatlarga chaqirgan biror oyat yoki hadislarni topa olmaysiz. Ilohiy ta'limotlarning birortasi ham gunoh va razolatga chorlamagan.



Tarixga nazar solinsa, Islom dini ravnaq topgan, tinchlik-osoyishtalik hukm surgan davrlarda bu diyorda masjidu madrasalar qurildi, asriy inshootlar barpo qilindi. Natijada Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Imom Zamaxshariy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Muin Nasafiy, Abul Barakot Nasafiy kabi turli soha allomalari aynan Movarounnahrda yetishib chiqishdi. Ular kelajak avlod uchun boqiy meros bo'lgan kitoblar bitib, turli ixtirolar qilishdi. Bu bilan din ravnaqi, xalq manfaati, yurt obodligiga hissa qo'shishdi.

Islom – tinchlik dini. Alloh taolo insonlarga hayot deb atalmish ulug' ne'matni berdi. Har bir inson hayotga bir marotaba keladi. Mana shu bir martalik umrini nimaga sarflashi kerak? Hayot deb atalmish ne'mat nima uchun bandalarga ato etildi? Savob va xayrli ishlarni amalga oshirishi uchunmi yoki gunoh va qotilliklar qilishi uchunmi? Alloh taolo Mulk surasining 2-oyatida shunday degan:

الَّذِي خَلَقَ الْمَوْتَ وَالْحَيَاةَ لِيَسْأَلُكُمْ أَيُّكُمْ أَحْسَنُ
عَمَلًا وَهُوَ الْعَزِيزُ الْعَفُورُ

“(U) sizlarning qaysi biringiz chiroyliroq (savobliroq) amal qiluvchi ekaningizni sinash uchun o'lim va hayotni yaratgan zotdir. U Aziz (qudratli) va G'afur (kechirimli) dir”[2:562].

Mazkur oyati karimadan ko'rinadiki, inson xayrli va savobli amallarni qilish uchun yaratildi, gunoh, ma'siyat, bir-birining qonini to'kish uchun emas. Odamzod go'zal amal va

savobli ishlarni amalga oshirishi uchun esa tinchlik va xotirjamlik kerak. Tinchlik tufayli inson hayotda farovonlikka erishadi, jamiyat taraqqiy topadi, mo'min odam xayrli ishlarni amalga oshirib dunyo va oxirat baxtu saodatiga erishadi. Alloh taolo Baqara surasining 208-oyatida bu haqda shunday deydi:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا ادْخُلُوا فِي السَّلَامِ كَافَّةً وَلَا تَتَّبِعُوا
خُطُوَاتِ الشَّيْطَانِ إِنَّهُ لَكُمْ عَدُوٌّ مُّبِينٌ

“Ey imon keltirganlar! Yoppasiga itoatga kirishingiz va shaytonning izidan er-gashmangiz! Albatta, u sizlarga aniq dus-hmandir”[2:32].

Islom Allohga bo'ysunish ma'nosini bildiradi. Bu holatda oyatning umumiy ma'nosi: “Allohga butun borlig'ingiz ila bo'ysuning”, degani bo'ladi. Ya'ni, Allohga bo'ysunish to'laligicha bo'lsin. Tili bilan bo'ysunib, dili bilan bo'ysunmasdan yoki badani bilan bo'ysunmasdan qolishi kerak emas.

Islomning ma'nolaridan yana biri – tinchlik. U holda oyatning umumiy ma'nosi, tinchlikka to'lig'icha kiring, degani bo'ladi. Tinchlikka to'lig'icha kirish esa, Islomni tatbiq qilish bilan bo'ladi. Islomda tinchlik inson qalbining tinchligidan boshlanadi [3:-197]. Qalbi tinch inson oilasining tinchligiga sabab bo'ladi. Oilasi tinch bo'lgan kishi qo'ni-qo'shnisi bilan tinch yashashga harakat qiladi. Qo'ni-qo'shnisi bilan tinch yashagan inson butun mahallasi bilan tinch yashaydi. Mahallalardagi bu tinchlik jamiyat tinchligiga olib keladi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada tinchlik ne'mati har bir jamiyat fuqarosi uchun naqadar ahamiyatli ekani oyat va hadislar, tarixiy faktlar, ulamolarning fikr va xulosalari yordamida yoritib berilgan. Shuningdek, muqaddas Islomning besh ruknini ado etishda tinchlik ne'matining o'rni borasida to'xtalib o'tilgan.

Abstract. In this article, the importance of the blessing of peace for every citizen of the society is explained with the help of verses and hadiths, historical facts, opinions and conclusions of scholars. Also, the role of the blessing of peace in fulfilling the five pillars of Islam was discussed.

Kalit so'zlar: Islom, imon, namoz, ro'za, zakot, haj, ushr, sadaqa, savob, gunoh, ezigulik, yovuzlik, boy, faqir, Qur'on, oyat, hadis, ma'rifat, jaholat.

Key words: Islam, faith, prayer, fasting, zakat, pilgrimage, ushra, charity, reward, sin, goodness, wickedness, rich, poor, Quran, verse, hadith, enlightenment, ignorance.

Islom nimani anglatadi? Muqaddas din Islom deb nomlandi. Bu dini Alloh taoloning O'zi "Islom" deb nomladi. Alloh taolo Moida surasining 3-oyatida shunday marhamat qildi:

الْيَوْمَ أَكْمَلْتُ لَكُمْ دِينَكُمْ وَأَتَمَمْتُ عَلَيْكُمْ نِعْمَتِي
وَرَضِيتُ لَكُمُ الْإِسْلَامَ دِينًا

"Ana endi bugun diningizni kamoliga yetkazdim, ne'matimni tamom ila berdim va sizlar uchun Islomni din bo'lishiga rozi bo'ldim" [2:106].

Islom degan so'zning lug'aviy ma'nosi tinchlik, salomatlik, bo'ysunish, xavfsizlik, eson-omonlik degan ma'nolarni anglatadi. Istilohiy ma'nosi esa Alloh va Uning Rasuliga ikki shahodat bilan guvohlik berish, buyruqlariga amal qilish va qaytariqlaridan qaytish orqali bo'ysunish, deganidir [1:5].

Islomning asosiy ustunlari beshta bo'lib, ular: iymon, namoz, ro'za, zakot va haj amallaridan iborat. Mazkur amallardan har birini to'la-to'kis ado etish uchun tinchlik-xotirjamlik lozim ekanini quyida biroz mulohaza qilib ko'rish o'rinli:

Islomning ma'nolaridan biri tinchlikdir. U ko'ngil tinchligidan boshlanib to jamiyat tinchligigacha bo'lib, aytish mumkinki, u dunyo tinchligini ham o'z ichida qamrab oladi. Qaysi yurtda tinchlik barqaror bo'lsa, o'sha yerda ilm-fan, madaniyat rivojlanadi, taraqqiyot bo'ladi. Barcha sohalarda ulkan islohotlar amalga oshiriladi, xalqi farovon yashaydi. Uning aksi bo'lgan joyda jaholatparastlik, ilmsizlik avj oladi, qotilliklar yuz beradi. Mamlakat taraqqiyoti orqaga ketib, fuqarolari qullik va jaholatga mahkum bo'ladi.

.....**Sizga tinchlik tilayman!** "O'zbek xalqi tinchlikni qadrlaydi. Uni o'z orzu-tilishlari, maqsad-muddalari ro'yobga chiqishining sharti deb biladi. Shuning uchun ham doimo Yaratgandan tinchlik va omonlik tilaydi. Movarounnahr diyori aholisi – Sharq xalqlaridan hisoblanadi. Sharq mamlakatlari-ning qayeriga borilmasin, odamlar bir-biri bilan uchrashganda, avvalambor, "Assalomu alaykum!" deyishadi. Ushbu kalom arabchadan olingan bo'lib, "Sizga tinchlik bo'lsin, sizga tinchlik, salomatlik tilayman", degan

ma'nolarni anglatadi. "Salom", ya'ni "tinchlik" so'zi Qur'oni karimda 40 o'rinda uchraydi. Bu muqaddas kitobning oyatlaridan birida shunday deyiladi: "Mehribon Parvardigor tomonidan odamlarga olqish ma'nosida "tinchlik" so'zi aytilur". Ko'rinib turibdiki, tinchlik, totuvlik, hamkorlik g'oyasi Allohga ham, bandalariga ham xush keladigan ezgu g'oyadir". Tinchlik bo'lgan joyda barqarorlik ham bo'ladi [4:194].

Alloh taoloning 99 ismi va sifatlaridan biri "As-Salom"dir. U salomatlik, tinchlik ma'nolarini bildiradi. Ammo buning aksi, mazkur sifatlar ichida yomonlik, notinchlik ma'nosini anglatuvchisi yo'q. Demak, Yaratuvchi zot bandalariga yomonlikni ravo ko'rmaydi, yomon va gunoh amallarni qiluvchi bandadan rozi ham bo'lmaydi. Dinu diyonat insonlarni hech qachon yomonlikka boshlamagan. Endi kimki yomonlikni paydo qilsa, uni dinga nisbat bersa, dindandeb bilsa, dinda bor deb aytsa yolg'onchiligini ma'lum va oshkor qilgan bo'ladi. Bugungi kunda din niqobi ostida buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilayotganlar ortida siyosiy, iqtisodiy va uchinchi tomon maqsadlari yotgani hech kimga sir bo'lmay qoldi. Ularning aldovlariga yurayotganlarning aksarini ilm-ma'rifatdan, dinu diyonatdan uzoq bo'lgan, e'tiqodi sust, aqidasi noto'g'ri shakllangan kishilar tashkil qiladi, de-yish to'g'ri bo'ladi.

Muqaddas Islom dinining avvali ilmu ma'rifatga chorlash bilan ya'ni "O'qi!" xitobi bilan boshlanib, oxiri esa Moida surasidagi **"Ana endi bugun diningizni kamoliga yetkazdim, ne'matimni tamomila berdim va sizlar uchun Islomni din bo'lishiga rozi bo'ldim"** – deyish bilan takomiliga yetdi. Umuman olganda, Qur'on oyatlarida bayon etilgan ko'pgina xulosalar bugun ham muhim ahamiyatga ega. Ular insonlarni o'zaro tinchlik hamjihatlikda yashashga, adolatparvar, haqiqatgo'y bo'lishga chaqiradi. Barcha odamlar millati, irqi va nasabidan qat'iy nazar Alloh oldida teng ekanini ta'kidlab, bir-birlarini kamsitish, bir-birlariga zulm qilishdan qaytaradi.

"Bismillah"ning ma'nosi. Mo'min-musulmon kishi qilmoqchi bo'lgan har bir xayrli



ishini “Bismillah” deb boshlaydi. Qur’oni karim suralari “Bismillahir Rohmanir Rohim” bilan boshlanadi. Bu qisqacha “basmala” deb ham yuritiladi. Buning ma’nosi “Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman” deganidir. Basmala Qur’oni karimda jami 114 marta zikr qilingan. Shundan 113 tasi har bir suraning avvalida kelib, Tavba surasida kelmagan. Naml surasida esa ikki marta: suraning boshlanishida va 30-oyatida kelgan. Shuning o’zidan ma’lum bo’ladiki, o’tgan barcha samoviy dinlar kabi Islom dini ham mehr-shafqatga, ezgulikka, rahmdillikka chaqiradi. Din o’gitlari “kimki bu dunyoda rahmli bo’lsa, oxiratda unga ham rahm qilinadi”, deb ta’lim beradi. Zinhor yovuzlikni, qotillikni, shafqatsizlikni yoqlamaydi, aksincha, bu kabi yomon ishlarini qoralaydi va gunoh deb biladi.

Iymon. Islomning asosiy ustunlari beshta bo’lib, ular iymon, namoz, ro’za, zakot va hajni tashkil etadi. Allohning birligi va Uning elchisi, payg’ambari Muhammad (*alayhissalom*) ekanini aqlan his etib, qalban iymon keltirish uchun avvalambor insonga tinchlik-xotirjamlik zarur. Zero, tinchligi, xotirjamligi bo’lmagan odamning ko’ngliga hech narsa sig’masligi barchaga ayon. Payg’ambar (*alayhissalom*) Hudaybiyada Makka mushriklari bilan o’n yil davomida urushmaslik haqida sulh, ya’ni tinchlik shartnomasini tuzdilar. Alloh taolo bu sulhni to’g’ri bo’lganini tasdiqlab Fath surasini nozil qildi. Bu tinchlik sulhi musulmonlar uchun ulkan muvaffaqiyat bo’lganini bildirdi. Ammo sahobalarning ko’pchiligi “Biz mushriklar aytgan shartlarga rozi bo’lsak, qanday qilib bu ulkan muvaffaqiyat bo’ladi?” deb hayratda qolganlari ham bo’ldi, e’tiroz bildirganlari ham topildi. Darhaqiqat, mazkur tinchlik haqidagi Hudaybiya sulhidan keyin ikki yil davomida musulmon bo’lganlarning soni, undan avvalgi o’n to’qqiz yil davomida musulmon bo’lganlardan ko’p bo’ldi. Payg’ambar (*alayhissalom*)ning qilgan tadbirlari va Alloh taoloning tasdig’i o’sha davr odamlarini hayronu lol qoldirgan bo’lsa-da, keyinchalik tinchlik tufayli kelgan yutuq, ulkan muvaffaqiyatlar buning naqadar to’g’ri bo’lganini isbotladi.

Zamona ulamolaridan birlari tinchlik haqida shunday degan edi: “Bir muammo-ning yechimi urush orqali o’n kunda hal bo’lsa, tinchlik tufayli o’n yilda hal bo’ladigan bo’lsa, tinchlik tomoni olinadi. Sababi o’n kunlik urush oqibatlarini o’n yilda ham qayta tiklab bo’lmaydi!”.

Umumiy aholisi 278 mln.dan (2023y.) ko’proq bo’lgan Indoneziya davlatining asosiy qismi Islom diniga e’tiqod qiladi [5]. Tarixda Indoneziya va uning atrofida bo’lgan Malayziya, Singapur kabi okeanorti mamlakatlar aholisi tinch yo’l bilan, ya’ni musulmon savdogarlari ta’sirida Islom dinini qabul qilganlar. Mazkur davlatlar hozirgi kunda iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish jihati-dan yuqori o’rinlarni egallaydi. Bundan keyin ham qayerda tinchlik bo’lsa, o’sha yerda Islom dini ravnaq topadi, musulmonlar soni ko’payadi, ilm-ma’rifat rivoj topib, mamlakat taraqqiy etadi. G’oyasi qanchalik jimjimador bo’lmasin urush faqat va faqat vayronkorlikka va mamlakat tanazzuliga olib kelishini tarix ko’p bor isbotlagan.

Namoz. Namoz ibodatini o’tash uchun avvalo inson tahorat olishi kerak. Undan so’ng Robbining roziligini topish maqsadida namoz o’qiydi. Bu ibodatni ado etishi uchun bandaning kiyimi, badani, namoz o’qiydigan joyi pok bo’lishi kerak. Qiblaga yuzlanishi, namoz vaqti kirgan bo’lishi farz hisoblanadi. Bir so’z bilan aytganda, ushbu namoz shartlarini amalga oshirishi uchun, banda Robbisi bilan “muloqot” qilishi uchun tinchlik kerak. Payg’ambar (*alayhissalom*) Madinai munavvara himoyasi uchun Xandaq g’azotiga chiqib, peshin va asr namozlari qazo bo’ldi. Shu kuni ulug’ sahobalar va ko’pchilik musulmonlarning namozlari qazo bo’lgan edi. Demak, namozni o’z vaqtida o’tash uchun har bir musulmon kishiga tinchlik kerak bo’ladi.

Payg’ambar (*alayhissalom*) zamonlarida musulmonlar mushrik kofirlar zulmidan qochib, tinchlik va omonlik yurti Yasribga hijrat qilganlar.

Bugungi kunda yangi va zamonaviy masjidlar tinch yurtda barpo etilmoqda va juma va besh vaqt namoz ado etilmoqda. Saodat asrida ham ilk masjid – Qubo masjidi omon-

lik yurti Madinai Munavvarada qurilgan edi va dastlabki juma namozi ham shu o'lkada o'qilgan edi. Ro'za, zakot, haj ibodatlarining farz bo'lishi, azonning joriy bo'lishi, masjidida minbar barpo qilinishi mana shu tinch yurt-Madinai Munavvarada bo'lgan edi.

Usmon ibn Affon rivoyat qilgan hadisda Payg'ambar (*alayhissalom*) aytdilar: **"Kimki Alloh rizoligi uchun bir masjid qursa, Alloh unga jannatda bir qasr quradi"** [1:88]. Janнат istayotganlar tinchlik diyorlarida masjid qurilishida o'z hissalarini qo'shib, jannatdagi qasrlarini qo'lga kiritsalar qanday ham yaxshi bo'lardi!

Ro'za. Ro'za tutish uchun ham banda o'z uyida xotirjam bo'lishi lozim. Zero, musofir kishi ro'za tutishda ixtiyorli bo'ladi. Safar asnosida qiyinchilik va mashaqqatga uchrash ehtimoli bo'lsa, ro'zasini qazo qiladi. Rasululloh (*alayhissalom*) safarda sahobalariga ro'zalarini buzishni buyurdilar. Zotan, ro'za musofirlarni holsizlantirib qo'yishi shubhasiz edi. Lekin sahobalar bu buyruqni ikkilanish bilan qarshi oldilar. Buni ko'rgan Payg'ambar (*alayhissalom*) qo'llaridagi suv idishni hamma ko'ra oladigan qilib ko'tardilar-da, suv ichdilar va:

– Mana, men ro'zamni buzdim, sizlar ham buzinglar, – dedilar.

U zotning bu harakatlarini ko'rgandan keyin taraddudlanishga o'rin qolmadi. Hamma ro'zasini keyin qazo qilish niyati bilan ochdi.

Ro'zador odam hech kim bilan urushmasligi, hatto so'kishmasligi, boshqalarni haqorat qilmasligi zarur. Mabodo ikkinchi tomondan haqoratli so'z eshitsa, "Men ro'zadorman", deb javob berishi hadislarda keltiriladi.

Islom dinining asosiy ruknlaridan biri bo'lgan ro'za ibodatini mukammal ado etish, masjidlarda taroveh namozlari o'qilib, xatmi Qur'onlar qilinishi uchun albatta, tinchlik kerak.

Zakot. Zakot ibodatini jamiyatning boy kishilari ado etadi. Ularning boyliklari nisobga yetgan bo'lsa, qirqdan biri shu jamiyatning faqir va miskinlariga beriladi. Zakot beruvchi boy kishi farzni ado etishi uchun, unga tinchlik-xotirjamlik kerak bo'ladi. Alloh taolo Baqara surasining 267-oyatida marhamat qiladiki:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا أَنْفِقُوا مِنْ طَيِّبَاتِ مَا كَسَبْتُمْ وَمِمَّا أَخْرَجْنَا لَكُمْ مِنَ الْأَرْضِ

"Ey iymon keltirganlar! Kasb qilgan pok narsalaringizdan va Biz sizlarga yerdan chiqarib bergan narsalarimizdan sadaqa qilinglar"[3:277].

Bu oyati karimadan ko'rinadiki, inson kasb qilib topgan halol mehnati natijasida kelgan daromaddan zakot beradi. Daromad hosil bo'lishi uchun esa jamiyatda tinchlik-farovonlik bo'lishi kerak. Tinchlik hukm surayotgan o'lkada boy-badavlat, zakotga qodir bo'lgan kishilar ko'payadi. Aksincha, urush bo'layotgan joydan ko'pincha o'ziga to'q, sar-moyasi bor odamlar tinch yurtlarga oilasi bilan ko'chib ketishga majbur bo'lishadi. Xuddi shuningdek, yerdan chiqqan hosilning ushr zakotini ado etish uchun ham yurt tinchligi, dehqon xotirjamligi zarur bo'ladi. Notinchlik bo'lgan joyda bog'bon mevali daraxt ekmaydi, dehqon yerga urug' sepmaydi. Hosilni yig'ib olishga ko'zi yetmaydi. Bundan ko'rinadiki, boy odam zakotini, bog'bon va dehqon ushri-ni ado etishi uchun albatta tinchlik va xotirjamlik kerak bo'ladi. Zero, bog'ni bunyod etish uchun, yerga sepilgan urug'lar unib chiqib, hosilga kirishi uchun suv kerak bo'ladi. Tabiiy holki, tog'lardan oqib kelayotgan daryo suvlari bir yoki bir nechta mamlakat chegarasidan oqib o'tadi. Urush maydoni qo'shni mamlakat bo'lgan taqdirda ham suvning tozaligiga yoki ikkinchi mamlakatning suv yo'lini to'silmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Demak, dehqon ushr zakotini ado etishi uchun uning o'z yurtidan tashqari, yon atrofdagi mamlakatlarda ham tinchlik-oso-yishtalik hukm surishi kerak bo'ladi.

Haj. Haj ibodatini amalga oshirish uchun, tinchlik uning shartlaridan biri hisoblanadi. Yurt tinch bo'lmasa yoki haj yo'lida xavf-xatar bo'lsa haj farz bo'lmaydi. Alloh taolo Oli Imron surasining 97-oyatida bu haqda shunday marhamat qiladi:

وَلِلَّهِ عَلَى النَّاسِ حِجُّ الْبَيْتِ مَنِ اسْتَطَاعَ إِلَيْهِ سَبِيلًا

"Yo'lga qodir bo'lgan odamlar zimmasida Alloh uchun Baytni haj qilish (farzi) bordir" [2:62].



“Yo'lga qodir bo'lgan odamlar” deyilganda bir qancha ma'nolar tushuniladi. Jumladan, haj yo'lida hojining hayotiga xavf-xatar bo'lsa yoki borgan joyidan omon qaytishiga ko'zi yetmasa yoki haj qiluvchi kishi haj ibodatiga ketgan paytida, uning oila ahlining joniga, mol-mulkiga tajovuz ehtimoli ko'p bo'lsa, haj farz bo'lmaydi. Bundan ko'rinadiki, haj ibodati ado etuvchi hojining yurti, haj yo'lidagi mamlakatlar va haj amallari ado etiladigan mamlakat tinch bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Islom dining beshta asosiy ustunlaridan hech biri tinchliksiz ado bo'lmas ekan, tinchliksiz Islom ruknlarini ham ado etish amri mahol. Dinu diyonat azal-azaldan insonlarni ezgu amalga chorlab, yomonliklardan, o'zgalar haqqiga xiyonat qilishdan, birovlariga zulm

qilishdan qaytarib kelgan. Din bu vazifasini qiyomatga qadar davom ettiradi.

Ey vatandoshim, dindoshim! Islomning ma'no-mohiyatini anglamoqchi bo'lsangiz, tinchlik diyorida uni o'qib-o'rganing! Hunar o'z ustasidan o'rganilgani kabi, ilm ham yetuk mutaxassis ustozlardan o'rganiladi. Uchragan odamdan yoki internetdagi noma'lum shaxsdan diniy ilmni o'rganib bo'lmaydi. Qur'on oyatlarini teran anglashga, tafsirlar yordamida tushunishga harakat qiling! Avval o'tgan va zamondos ulamolar so'zlariga qu-loq tuting! Balandparvoz shiorlarga aldan-mang! Diningiz, iymoningiz va aqidangizni salomat saqlang! Shunda Allohning rizoligiga, dunyo va oxiratda yuqori martabalarga yetasiz, inshaalloh!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muso Shahin va Abdul Ol. Manhalul hadis fi sharhil hadis. J. I. – Toshkent: Movarounnahr, 1992.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano-standart, 2021.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. J. I. – Toshkent: ShARQ, 2008.
4. Yaxshilikov J.Y. Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya-taraqqiyot strategiyasi. O'z.FA Fan, 2017.

O'ktambek SULTONOV

*O'zRFA Sharqshunoslik instituti bosh ilmiy
xodimi, tarix fanlari doktori, professor
e-mail.:usultonov@mail.ru*

MUSULMON TARIXNAVISLIGIDA UMUMIY TARIX JANRI

UNIVERSAL HISTORY GENRE IN ISLAMIC HISTORIOGRAPHY

Tarix bir so'z bilan aytganda o'tmish haqidagi fan. Olimlarning fikricha, o'tmishni yozib qoldirish, ya'ni tarixnavislikning ilk ildizlari Qadimgi Bobilda yaratilgan toshbitiklar bilan bog'liq. Keyinroq, antik davr hamda ilk o'rta asrlarning nasroniy mualliflari tarafidan turli janrlarda tarixga oid ko'plab asarlar yozilgan. Tabiiyki, musulmon olimlari ham dunyo va insoniyat tarixi haqida bahs-munozaralar olib borib, bu haqda turli uslublarda asarlar yozib qoldirganlar. Ularning tarixni yoritish uslublarini boshqa xalqlaridan farqlash uchun "musulmon tarixnavisligi" (*islamic historiography*) nomi bilan yuritiladi.

Musulmon tarixnavisligiga mansub ilk asarlar Rasululloh (*alayhissalom*) hayoti va faoliyatiga oid voqealar hamda hadislarining ishonchlilarini saralab yozib olish maqsadida shakllangan. Musulmon tarixnavisligining yuzaga kelishi esa Madina va Kufa shaharlari bilan bog'liq. Madina tarixnavislik maktabida voqealar markazida Payg'ambar (*alayhissalom*) hayoti va faoliyati turadi. Tarixni bunday yoritish zamirida *siyar* janri yuzaga kelgan. Shuningdek, bu davrda sahobalarning mushriklar bilan bo'lgan janglari va harbiy yurishlar haqidagi voqealarni bayon qilish ham mavjud edi. Bo'lib o'tgan voqealarni bayon etishning bunday uslubi zamirida esa *xabar*, *mag'oz* (*futuhot*) janri shakllandi. Ikkinchi tarixnavislik maktabi 636-yilda Iroqda barpo etilgan Kufa shahrida yuzaga keldi. Ushbu

maktab uslublari keyinroq Damashq, Bag'dod, Basra, Halab kabi yirik shaharlarda rivojlantirildi. Bu bir tarafdin xalifalik poytaxtining dastlab Kufaga, so'ng Damashq va Bag'dodga ko'chirilishi bilan bog'liq. Ayni paytda ko'plab sahobalarning ko'chib kelishi natijasida mazkur shaharlar madaniy-ma'rifiy markazga aylanib, ilm-fanning ko'p sohaları rivojlandi. Ibn Nadimning (*vaf. 995*) yozishicha, Umaviy xalifalardan Muoviya (*h.y. 661-680*) va Valid (*h.y. 743-744*) davrida bir necha bor keng miqyosli tarixiy asarlar yozishga harakatlarni bo'lgan. Xalifa Hishom (*h.y. 723-743*) esa fors podshohlari tarixi haqida asar yozishga topshiriq bergan [2:31-32]. Haqiqatan ham, Umaviylar davrida Sulaym ibn Qays (*vaf. 695*), Urva Zuhriy (*vaf. 712*), Vahb ibn Munabbih (*vaf. 728*), Ibn Shihob Zuhriy (*vaf. 741*), Muso ibn Uqba (*vaf. 752 yoki 758*) kabi bir necha muarrix ijod qilgan. Biroq ularning asarlari bizgacha to'liq yetib kelmagan. Lekin shu narsa aniqki, bu paytga kelib musulmonlar tarixi faqatgina Makka va Madina shaharlari-da yoki Hijozda yuz bergan voqealardangina iborat emas edi. Shu sababli ham endilikda tarixiy asarlarning geografik maydoni kengaydi. Yangi fath qilingan o'lkalar, musulmonlarga qo'shni uzoq-yaqin mamlakatlar tarixi va tavsifi, sahobalar va tobeinlar, Islom olimlari hayotiga bag'ishlangan asarlarga (*axborul buldon*, *axborul mudun*, *fazoil*, *tabaqot*) ham ehtiyoj, ham qiziqish ortib bordi.

Ta'kidlash lozimki, musulmon olimlari tarix ilmiga alohida e'tibor bilan qaragan. Xususan, Abu Abdulloh Xorazmiy (*vaf. 997*) o'zining ilmlar tasnifiga bag'ishlangan "Mafotihul ulum" asarida zamonasidagi ilmlarni ikki qismga bo'lgan. Tarix ilmi uning birinchi qismida, shariat va unga bog'liq bo'lgan fiqh, kalom, sarf-nahv, ish yuritish va aruz kabilar arab ilmlari qatoriga kiritilgan [3:14,76]. Alloma Jaloliddin Suyuti (*vaf. 1505*) esa bu sohada maxsus "Shamarix fi ilmit tarix" nomli risola yozib qoldirgan. Muallif risolada tarix ilmining foydalari haqida to'xtalar ekan, "turli vaqtlar va ularning boshlanishi, olimlarning tavalludi va vafoti, to'g'ri so'zlovchining haqiqat gaplari hamda kazzoblarning yolg'oni-ni aniqlab beradi", deb fikr bildirgan [5:17].



Demak, musulmon olimlari tarix ilmiga Islom shariatiga bog'liq va uni o'rganishga xizmat qiluvchi fan sifatida qaraganlar. Aksariyat din ulamolarining tafsir, hadis va aqidaga oid kitoblar bilan birga tarixiy asarlar yozib qoldirganidan ham ularning bu ilmga befarq bo'lmaganlarini ko'rish mumkin.

Musulmon tarixnavisligida asrlar davomida turli janrlarda juda ko'plab asarlar yozilgan. Ular u yoki bu soha tarixini o'rganishda alohida qiymatga ega. Afsuski, bir maqolada ularning barchasi haqida batafsil to'xtalish imkonsiz. Shu sabab e'tiboringizga taqdim etilayotgan maqolada birgina umumiy tarix janri va uning xususiyatlarini yoritishga harakat qilindi.

Umumiy tarix janrining shakllanishi va xususiyatlari

Musulmon tarixnavisligida yoritiladigan mavzular xilma-xilligining ortib borishi natijasida o'tmishni qachondan boshlab va qanday voqea-hodisalarni yozish kerakligi haqidagi savollar ham kun tartibiga chiqqan. Ayniqsa, tarixiy asar yozmoqchi bo'lgan muarrixlar oldida ikki yo'l turgan. Birinchisi – o'z asarini insoniyatning paydo bo'lishidan o'zi yashagan davrgacha davom ettirish bo'lib,

u fanda "umumiy tarix" (*universal history/general history/world history*) uslubi deyiladi. Ikkinchisi – ma'lum bir podshoh, hokim hukmronligi yillari, shahar va o'lkaning o'zi yashagan davri tarixini yozib qoldirish uslubi bo'lib, u "mahalliy tarix" (*local history/regional history*) deb nomlangan [8:133,150].

Umumiy tarix janri boshqalardan muallifning o'z kitobini dunyoning yaratilishidan o'zi yashagan davrgacha davom ettirishi bilan ajralib turadi. Bu mazkur janrdagi asarlarni boshqalaridan juda oson farqlash yo'li. Lekin bunday asar yozish muallifdan tarix ilmi bo'yicha chuqur bilim, tajriba va mahorat talab qilgan. Muallif o'z oldiga insoniyat tarixi qachondan boshlanadi va u qanday davrlashtiriladi? Dunyodagi turli mamlakatlar va xalqlar qanday o'tmishga ega? - degan bir qator savollarga javob berishi kerak edi. Shu o'rinda insoniyat tarixini qadimdan yoritish va uni davrlashtirish muammolari Islomdan oldingi xalqlarda ham mavjud bo'lganini e'tirof etmoq lozim. Masalan, antik davr muarrixlari asarlarida qadimgi dunyo tarixini davrlashtirish va yoritishda sulolaviy yondashuv, ya'ni o'tmishni qudratli saltanatlar hukmronligining ketma-ketligi bilan chegaralash alohida

Annotatsiya. Musulmon tarixnavisligi Islom va musulmon mamlakatlari, ularga qo'shni o'lkalalar va xalqlar tarixiga oid turli manbalarni qamrab oladi. Ular orasini umumiy tarix janrida yozilgan asarlar davri va geografik qamrovi, tuzilishi va mazmuni bilan boshqalardan alohida ajralib turadi. Ming yildan ortiqroq davr mobaynida Islom olamida, turli maktablar va an'analar asosida bu janrga oid minglab asarlar yozilgan. Arab, fors va turkiy tillarda yozilgan bunday asarlar yozma manba sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. E'tiboringizga taqdim etilayotgan maqolada musulmon tarixnavisligida ushbu janrining shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlari va ba'zi yirik asarlar tahlili haqida so'z boradi.

Abstract. Muslim historiography covers various sources related to the history of Islam and Muslim countries, neighboring countries and peoples. Among them, works written in the genre of general history are distinguished from others by the period and geographical scope; structure and content. For more than a thousand years, thousands of works related to this genre have been written in the Islamic world, based on different schools and traditions. Such works written in Arabic, Persian and Turkish languages are of special scientific importance as written sources. The article presented to your attention is devoted to the formation of this genre in Muslim historiography, its characteristics and the analysis of some major works.

Kalitso'zlar: tarix ilmi, musulmon tarixnavisligi, umumiy tarix, Madina va Kufa tarixnavislik maktabi, Tabariy, Mas'udiy, Xorazmiy, Suyutiy.

Key words: history, Islamic historiography, universal history, historical schools of Medina and Kufa, Tabari, Masudi, Khwarazmi and Suyuti.

ajralib turadi. Yunonistonlik tarixchi Ktesiy Knidskiy (*mil. av. 415-398*) dunyoning to'rt yirik saltanati sifatida Ossuriya, Midiya, Fors va Makedoniyani kiritgan bo'lsa, rimlik tarixchi Pompey Trog (*mil. av. I – mil. I asr*) ularni Ossuriya, Midiya, Fors va Rim, deb ko'rsatgan. Nasroniy tarixnavisligida esa insoniyat tarixini davrlashtirish avvalo ushbu din ta'limoti asosida ancha o'zgardi. Xususan, nasroniylarning mashhur muarrixi Avgustin Avreliy (*354–430*) insoniyat tarixini Odam (*alayhissalom*) dan Nuh (*alayhissalom*) to'fonigacha, to'fondan Ibrohim (*alayhissalom*)gacha, Ibrohim (*alayhissalom*)dan Dovud (*alayhissalom*)gacha, Dovud (*alayhissalom*)dan yahudiylarning Bobildan quvilishigacha, yahudiylarning quvilishidan Iso (*alayhissalom*)gacha, nasroniylik boshlanishidan qiyomatgacha hamda abadiylik deb nomlangan yetti davrga bo'lgan.

Musulmon tarixnavisligida umumiy tarix janriga oid asarlar yozishda qadimgi davr tarixiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu davrni yoritishda arablar va ularga qo'shni xalqlarning yozma va og'zaki yodgorliklari, isroiliyot hikoyalari va boshqa xalqlar asotirlari asosiy manba bo'lib xizmat qilgan [1:16-20]. Hijriy I asr davomida bunday og'zaki naqlar va qadimgi arablarning bitiklaridan olingan parchalar Ibn Is'hoq (*vaf. 761*), Muhammad ibn Umar Voqidiy (*vaf. 823*), Ibn Hishom (*vaf. 834*) kabi muarrixlarning asarlari orqali musulmon tarixnavisligiga kirib kelgan. Bundan tashqari, Sosoniylar davriga oid Mazdak haqida hikoya qiluvchi "Xvadaynamak", Anushervon hikoyalari o'rin olgan "Kitobut toj", vazir Tansar qalamiga mansub "Nomai Tansar ba Gushnasp" kabi asarlar ham arab tiliga tarjima qilingan. Bu kabi manbalardan Qadimgi Yaman, Misr, Rum va Eron tarixini yoritishda, ushbu xalqlarning yil hisoblari, mashhur voqea-hodisalar bo'yicha qiyosiy xulosalar berishda foydalanilgan. Masalan, musulmon tarixnavisligida qadimgi Eron tarixini Peshdodiylar (*afsonaviy sulola*), Kayoniylar (*Ahamoniylar*), Ashkoniylar (*Arshakiylar*) va Sosoniylar sulolalari ketma-ketligida davrlashtirish an'anasi mustahkam o'rin oldi. Abu Abdulloh

Xorazmiyning yuqorida nomi zikr qilingan "Mafotihul ulum" asarida Qadimgi Eron tarixi ayni shu to'rt sulola bayoni bilan boshlangan [3:76-80].

Umumiy tarix uslubiga ko'ra, Qadimgi Eron sulolalari tarixidan so'ng Islom dinining tarqalishi, chahoryorlar, Umaviylar, Abbosiylar va musulmon mamlakatlarida hukmronlik qilgan ularga zamondosh sulolalar xronologik tartibda yoritilgan. X asrdan boshlab Xuroson va Movarounnahrda mahalliy sulolalar saroyida forsiy tilda tarixiy asarlar yozish ommalashgan bir paytda Eronda hukmronlik qilgan qadimgi sulolalar bayonida Islomdan oldingi forslar mifologiyasi va Avesto hikoyatlari keng o'rin ola boshladi. Keyingi asrlarda Hijoz, Shom, Iroq, Misr, Mag'rib, Andalus, Onado'li, Eron, Xuroson, Movarounnahr, Hindiston kabi o'lkalarda hukm surgan musulmon sulolalar saroyida turli mafkuraviy omillarga asoslangan umumiy tarix janridagi asarlar yozildi va o'ziga xos tarixnavislik maktablari va an'alari shakllandi. Umuman olganda, musulmon renessansi va ilm-fani yutuqlari tarixnavislikning ham Islomdan oldingi xalqlarning insoniyat o'tmishi va olamning yaratilishi haqidagi qarashlaridan ancha ilgarilab ketishiga zamin yaratdi. Zero, musulmon mualliflarining umumiy tarixga oid ulkan asarlari nafaqat ma'lumotlarning ko'pligi, balki tarixiy bilim va tafakkurning, qarashlarning taraqqiy topgani bilan ham bog'liq edi. Shunday qilib, umumiy tarix janri qadimgi yunon-rim tarixnavislari ijod mahsuli bo'lsa-da, musulmon tarixchilari tarafidan boyitildi va yangi bosqichga olib chiqildi.

Umumiy tarixga oid asarlarning manbaviy ahamiyati

Umumiy tarixga oid asarlar davriy, geografik va mavzu qamrovi sabab katta hajmni talab qilgan. Masalan, Abu Ja'far Tabariyga mansub (*vaf. 923*) "Tarixur rusul val muluk" asarining ilk matni 30000 varaq bo'lgani haqida qaydlar bor. Ibn Javziyning (*taxm. 1116–1201*) xalifalik tarixiga bag'ishlangan "Muntazam fi tarixil muluk val umam" asari esa 10 jilddan iborat bo'lgan. Bunday katta hajmdagi asarlarni yozish uchun avvalo qudratli homiy-buyurtmachi hamda qimmatli manbalardan



foydalanish imkoniyati va ko'p vaqt zarur edi. Shu sababli umumiy tarixga oid asarlar odatda saroy xizmatchilari tarafidan hukmdorlar, hokim yoki vazirlarning maxsus buyurtmasi bilan yozilgan.

Umumiy tarixga oid asarlarda muallifning o'zidan oldingi davrlar voqealarini avvalgi muarrixlarning asarlaridan saralab olishi alohida ajralib turuvchi xususiyatdir. Bunday uslub "kompilyatsiya" deb nomlanadi. Bu atama aslida lotin tilidagi talonchilik ma'nosini bildiruvchi "sompilatio" so'zidan olingan. Lekin tarixnavislikda avvalgi mualliflarning asarlaridagi ma'lumotlarni saralash va qayta ishlash asosida o'z asarida foydalanishga nisbatan qo'llaniladi. Bu uslubning plagiatdan farqi muallif bir masalaga oid o'zi ishonchli deb bilgan asarlardagi ma'lumotni saralab olishi, tahrir qilib berishi va o'z munosabatini bildirishidir. Kompilyatsiyani amalga oshiruvchi muarrixlar kompilyator, tarixiy asarlarning oldingi asarlar asosida yozilgan qismi esa kompilyativ qism (kompilyatsiya) deb ataladi. Ilk kompilyatorlardan biri Ahmad ibn Yahyo Balozuriy (vaf. 892) bo'lib, uning "Futuhul buldon" asarida avvalgi muarrixlarning Islom tarixiga oid ma'lumotlari qayta ishlangan.

Musulmon tarixnavisligida umumiy tarix janriga oid asarlar va ularning xususiyatlari nemis islomshunosi Bernd Radtkening (t.y. 1944) "O'rta asr Islom olamida dunyo tarixi va tavsifi" nomli maxsus tadqiqotida o'rganilgan. Quyida mazkur tadqiqot asosida umumiy tarixga oid arab tilida yozilgan ba'zi mashhur asarlarni keltirib o'tamiz. Bu asarlarning barchasi faksimile, tarjima yoki ilmiy-tanqidiy matn shaklida nashr etilgan:

Ali ibn Jahm (vaf. 863). "Muhabbara fit tarix".

Abdulloh ibn Muslim ibn Qutayba (vaf. 889). "Ma'orif".

Abu Hanifa Dinovariy (vaf. 895). "Axborut tivol".

Ya'qubiy (vaf. taxm. 904 yoki 917). "Tarix".

Ahmad ibn Umar ibn Rusta (X asr). "A'loqun nafisa".

Ibn Abdurabbih (vaf. 940). "Iqdul farid".

Mas'udiy (vaf. 956). "Murujuz zahab va maodinul javhar".

Ibn Tohir Maqdisiy (X asr). "Bad' vat tarix". Hamza Isfahoniy (vaf. 970). "Tarix siniy mulukil arz val anbiyo".

Miskavayh (vaf. 1030). "Tajoribul umam".

Abu Rayhon Beruniy (973-1048). "Osorul boqiya anil qurunil xoliya".

Abulfaraj ibn Javziy (vaf. 1200). "Kitobul muntazam".

Ibn Asir (vaf. 1233). "Komil fit tarix".

Sibt ibn Javziy (vaf. 1257). "Mir'otuz zamon fi tarixil a'yon".

Abulfido (vaf. 1331). "Muxtasar fi tarixil bashar".

Ibn Kasir (vaf. 1373). "Bidoya van nihoya".

Mahmud ibn Ahmad Ayniy (vaf. 1451). "Iqdul jumon fi ta'rix ahliz zamon" [7:9-108].

Umumiy tarixga oid bunday asarlar ro'yxatini yana uzoq davom ettirish mumkin va fanda ularning har biri munosib o'ringa ega. Ammo zamonaviy tarixshunoslikda musulmon tarixnavisligining otasi sifatida Abu Ja'far Tabariy e'tirof etilgan. Shu sabab mazkur asar haqida biroz kengroq to'xtalsak. Tabariyning 914-yilda yozilgan "Tarixur rusul val muluk" asari dunyoning yaratilishidan IX asrgacha bo'lgan voqealarni qamrab oldi. Qisqacha "Tarixi Tabariy" deb nomlangan ushbu asarning ilk matni juda katta hajmni qamrab olgani haqida qaydlar bor. Tabariydan keyingi musulmon muarrixlari qadimgi dunyo va ilk Islom davriga oid materiallarni qidirib, qaytadan yozishni to'xtatdi. Ular endi bu davr voqealarini Tabariy asaridan foydalanib yozishga yoki Tabariy asari kelib tugagan davrdan davom ettirishga odatlangan. Xuroson va Movarounnahr zaminida "Tarixi Tabariy"ning forsiy tarjimasi juda mashhur bo'lgan. Ushbu tarjimani Somoniylar hukmdori Mansur I (h.y. 961-976) topshirig'i bilan uning vaziri Abu Ali Bal'amiy (vaf. 974) amalga oshirgan. Tarjima "Tarjimai Tarixi Tabariy" yoki "Tarixnoma" nomi bilan mashhur bo'lgan. "Tarixi Tabariy"ga Abdulmalik Hamadoniy (vaf. 1127) tarafidan keyingi davr voqealari ham qo'shib qo'yilgan va u "Takmilai Tarixi Tabariy" nomi bilan mashhur bo'lgan.

"Tarixi Tabariy" hukmdorlar va ziyolilar orasida eng sevib o'qilgan qimmatli kitoblardan hisoblangan. Asarning Abu Rayhon

Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozmalaridan o'ttizga yaqin nusxaning XIX asrda ko'chirilgani uning yuz yil avval ham katta qiziqish bilan o'qilganidan darak beradi. Qo'lyozmalar orasida Buxoro hukmdori Amir Muzaffar (*h.y. 1860-1885*) kutubxonasi uchun, 1835 va 1839-yillarda Ibrohim Miroxur ismlik shaxs tarafidan unvon va tilla suvi yuritilib ko'chirilgan nusxasi ham bor [9:19]. Xiva xonlari saroyida esa XIX asr oxiri XX asr boshlarida "Komil fit tarix", "Murujuz zahab", "Ravzatul manozir", "Ravzatus safo" kabi umumiy tarixga oid ko'plab asarlar o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Forsiy tilida yozilgan umumiy tarixga oid asarlar biroz keyingi davrga mansub. Ular orasida Gardiziyning (*vaf. 1061*) "Zaynul axbor" asari G'aznaviyalar saroyida yozilgan. Forsiy tilda umumiy tarix janrida asarlar yozish Chingiziylarning Eronda hukmronlik qilgan Elxoniyalar sulolasi saroyida yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, Otamalik Juvayniyning "Tarixi jahongushoy" (*yozy. 1260*), Qozi Bayzoviyning "Nizomut tavorix" (*yozy. taxm. 1275*), Vassofning "Tarixi Vassof" (*yozy. 1300-1328*), Rashiddin Fazlulloh Hamadoniyning "Jome'ut tavorix" (*yozy. 1301-1311*), Banokatinyning "Tarixi Banokatiy" (*yozy. 1317*), Hamdulloh Qazviniyning "Tarixi guzida" (*yozy. 1329*) asarlari keyingi davr musulmon tarixnavisligida chuqur iz qoldirdi. Bu an'ana keyinroq, Temuriylar, Usmoniylar va Safaviylar hukmronligi davrida yanada rivojlantirildi.

Umumiy tarix uslubi XVI-XIX asrlarda O'rta Osiyo xonliklari hamda Boburiylar saroyi tarixnavislari tarafidan forsiy va turkiy tillarda o'z davri sulolalari tarixini qo'shish hisobiga davom ettirildi. Masalan, boburiy Avrangzeb saroyi tarixchisi Muhammad Baxtovarxonning "Mir'otul olam" (*yozy. 1667*) asarining 4-7-jildlari Amir Temur va Temuriylar, Hindistonning Boburgacha bo'lgan davri, Bobur va uning vorislari hamda Avrangzeb va uning zamondoshlariga bag'ishlangan. O'rta Osiyo xonliklari qalamravida esa bu uslubda Mahmud ibn Valining "Bahrul asror" (*yozy. 1634*), Muhammad Amin Buxoriyning "Muhitut tavorix" (*yozy. 1699*),

Mas'ud ibn Usmon Kuhistoniyning "Tarixi Abulxayrxoniy" (*yozy. dav. XV asrning 60-yy.*), Abdulloh Nasrullohiyning turkiy tildagi "Zubdatul osor" (*yozy. y. 1525-1532*) asarlari yozildi.

Umumiy tarixga oid asarlarning tarkibi va mazmuni

Umumiy tarix janrida yozilgan asarlar tarkibi va mazmuniga ko'ra ancha murakkab tuzilishga ega. Ulardan ko'pchiligining tarkibiy tuzilishi va mazmunida bir-biriga yaqinlik kuzatiladi. Faqatgina asarlar tarkibi mualliflarning o'zlari yashagan davr tarixini kiritib qo'yishi bilan ajralib turadi. Bu jihatni quyida "Tarixi Tabariy" va "Nizomut tavorix" asarlari mundariyasi qiyosiy tahlilida ko'rib chiqamiz [9:18,31]:

Tarixi Tabariy

Muqaddima.
1-jild. Insoniyatning yaratilishidan Sosoniylar shohi Yazdigard III (*h.y. 632-651*) hukmronligi boshlanishigacha.
2-jild. Muhammad (*alayhissalom*), chahoryorlar, Umaviylar va Abbosiylar (*xalifa Mo'tasim vafotigacha*) tarixi.
To'ldirishlar: "Takmilai tarixi Tabariy". Muallif: Abdulmalik Hamadoni (*vaf. 1127*).

Nizomut tavorix

Muqaddima
1-jild. Odam atodan Nuh (*alayhissalom*)gacha.
2-jild. Qadimgi Eron sulolalari: Peshdodiylar, Kayoniylar, Arshakiylar va Sosoniylar tarixi.
3-jild. Muhammad (*alayhissalom*), chahoryorlar, Umaviylar va Abbosiylar tarixi.
4-jild. Abbosiylarga zamon-dosh sulolalar: Safforiylar, Somoniylar, G'aznaviylar, G'uriylar, Daylamiylar, Saljuqiylar, Salg'uriylar, Ismoiliylar, Anush-teginiylar, Mo'g'ullar.

Lekin ba'zi asarlarni bir qarashda ajratib olish mushkul. Masalan, Beruniyning 1000-yilda bir muddat unga homiylik qilgan Ziyoriylar sulolasi amiri Shamsulmaoliy Qobus ibn Vashmgirga (*h.y. 977-981, 997-1012*) bag'ishlab yozgan "Osorul boqiya" asari umumiy tarix yo'nalishida yozilgan. Lekin bu janrdagi boshqa asarlar tuzilishidan tubdan farq qiladi. Abulfido (*1273-1331*) qalamiga mansub "Muxtasarul axbor" asari insoniyatning qisqacha tarixiga bag'ishlangan. Uning ayrim qismlari XVII asr boshidanoq yevropalik tarixchilar tarafidan tarjima qilinib foydalanilgan. Asar quyidagi besh qismdan iborat:

- 1) Patriarxlar, payg'ambarlar va qadimgi yahudiy podshohlari tarixi.
- 2) Qadimgi Eronning to'rt sulolasi tarixi.
- 3) Qadimgi Misr fir'avnlari, Yunoniston podshohlari, Rim imperatorlari tarixi.



4) Qadimgi Arabistonning Payg'ambar (*alayhissalom*)gacha bo'lgan davri tarixi.

5) Qadimgi xalqlar (*forslar, koptlar, shomliklar va boshq.*) hamda 532–1328-yillarda yuz bergan voqealar bayoni.

Safaviylar saroyining mohir muarrixii Qozi Ahmad Qazvinii (*1504 – taxm.1567*) qalami-ga mansub “Nusaxi jahonoro” (*ikkinchi nomi “Tarixi jahonoro”*) asari umumiy tarix janrida yozilgan asarlar orasida eng murakkab tuzilishga ega asar hisoblanadi. Asar 1564-yilda forsiy tilda yozilgan bo'lib, u “unvon” deb nomlangan muqaddima, “nusxa” deb nomlangan boblardan iborat. Lekin unvon ikki ichki qism – “harf”ga, nusxalar esa oyat, satr, safha, harf kabi navbatdagi murakkab ichki qismlarga ajratilgan. Asardagi birinchi “nusxa” payg'ambarlar va o'n ikki imom tarixiga, ikkinchi “nusxa” esa qadimdan muallif davrigacha sulolalar tarixiga bag'ishlangan. Natijada davr va hajm jihatdan uzoq o'tmishni o'z ichiga olgan ikkinchi “nusxa” juda katta, Safaviylarga bag'ishlangan uchinchi “nusxa” ancha qisqa yozilgan [6:5-8].

Umumiy tarixga oid asarlar orasida Ali ibn Hasan Mas'udiyning “Murujuz zahab va maodinul javhar” asari bu yo'nalishdagi eng keng qamrovli manbalaridan biri. Muallif o'z asarini “Kitobut tanbih val ishrof” nomi bilan qisqartirgan. Lekin fanda ko'proq uning birinchi varianti mashhur. Asar ko'plab tillarga tarjima qilingan. Xususan, 1903–1905-yillarda Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz topshirig'i bilan Domla Muhammad Sharif maxdum, Muhammad Rofi' Nurulloh maxdum Xivaqiy, Mulla Ubaydulloh maxdum, Domulla Xudoybergan maxdum va Domulla Ya'qub oxund tarafidan o'zbek tiliga ham tarjima qilingan [9:24-25]. Ushbu asarning mazmuni haqida batafsilroq tasavvur hosil bo'lishi uchun quyida uning boblari nomi to'liq keltirib o'tiladi [4:29-41;7:27]:

1-2-boblar. Asarning yozilish sabablari, tuzilishi va tarkibi.

3-bob. Kosmografiya. Odam atodan Ozargacha bo'lgan tarix.

4-bob. Ibrohim (*alayhissalom*) va uning avlodlari tarixi.

5-bob. Yahudiylar tarixi.

6-bob. Iso Masih va Muhammad (*alayhissalom*) oralig'idagi davr.

7-bob. Hindiston.

8-bob. Yer tavsifi, dengizlar, daryolar, tog'lar va yetti iqlim.

9-bob. Dengizlarning va ba'zi yirik daryolarning harakatlanishi.

10-bob. Habash dengizi.

11-bob. To'lqinlar va ularning yuzaga kelishi sabablari.

12-bob. Rum dengizi.

13-bob. Pontus va Mayutus dengizlari, Qustantiniya bo'g'ozi.

14-bob. Xazar dengizi.

15-bob. Xitoyliklar va turklar.

16-bob. Dengizlar. Andalus. Xidlarning paydo bo'lishi.

17-bob. Kavkazliklar va ularga qo'shni xalqlar (*yetmish ikki xalq*).

18-bob. Suriya podshohlari.

19-bob. Mosul va Naynavoning ossuriyalik podshohlari.

20-bob. Bobilning Nabatey va Xaldey podshohlari.

21-bob. Forslarning birinchi podshohlari sulolasi.

22-bob. Forslarning birinchi va ikkinchi podshohlari orasidagi sulola: Arshakiylar.

23-24-boblar. Forslarning nasablari. Sosoniylar.

25-bob. Yunonlar podshohlari. Yunonlarning nasablari.

26-bob. Aleksandrning Hindistondagi qilmishlari va merosi.

27-bob. Yunonlarning Aleksandr dan keyingi podshohlari.

28-bob. Rumliklar nasablari, davri va podshohlari.

29-bob. Konstantindan Herkulesgacha bo'lgan nasroniy qaysarlar (*qaysar – ya'ni sezar, Islom olamida Rum hukmdorlariga berilgan unvon.*).

30-bob. Vizantiyaning Islomdan keyingi podshohlari.

31-33-boblar. Misrliklar. Iskandariyaliklar. Qora tanli xalqlar.

34-36-boblar. Slavyanlar. Franklar va galitsiyaliklar (*Mas'udiy 947-yilda Fustot shahrida ekanida geronalik episkop Godmarning frank-*

lar tarixiga oid asaridan foydalangan. Mazkur kitob 940-yilda Kordova xalifasi Hakim ibn Abdurrahmonga hadya qilingan. Mas'udiy ushbu asardan foydalangan holda franklar-ning Merovinglar sulolasi qiroli Xlodvigdan (h.y. 482–511) to Karolinglar sulolasi imperatori Lyudvig ibn Qorluhgacha (h.y. 814–840) bo'lgan hukmdorlari ro'yxatini keltirgan.). Langobardlar (langobardlar – qadimgi nemis qabilalari, Italiyaning shimoliy qismida 568-774-yillarda hukm surgan Langobard qirolligiga asos solgan.).

37-bob. Od [qavmi] tarixi.

38-bob. Samud [qavmi] va Solih payg'ambar tarixi.

39-bob. Makka shahri va Ka'baning bunyod qilinishi tarixi.

40-bob. Yerning xususiyatlari. Ayrim o'lkalarning o'ziga xosligi: Suriya, Misr, Yaman, Hijoz, Iroq, Jibal, Xuroson.

41-bob. Yaman, Iroq, Shom va Hijoz nomlari haqida.

42-43-boblar. Yamanliklarning nasablari. Yaman tarixi.

44-45-boblar. Hiro podshohlari. G'assoniylar.

46-bob. Ko'chmanchi arablar va boshqa ko'chmanchi xalqlar (*berber, kurd, turk*).

47-bob. Qadimgi arablarning dinlari, Islomdan oldingi payg'ambarlar.

48-bob. Qadimgi arablarning ruh haqidagi qarashlari.

49-bob. Qadimgi arablarning arvoq va sehrgarlik haqidagi qarashlari.

50-bob. Arablarning jinlar haqidagi qarashlari.

51-52-boblar. Qiyofalar. Fol, tush va ruh haqida.

53-bob. Qadimgi arablarning hakimlari, Yaman tarixi.

54-bob. Xalqlarning xronologiyasi asoslari.

55-bob. Qibtiylar xronologiyasi.

56-bob. Suriyaliklar xronologiyasi.

57-58-boblar. Forslarda oy va hafta kunlari nomlari.

59-bob. Arablar xronologiyasi.

60-bob. Arablarda oy harakatlanishi fazalari belgilari.

61-bob. Quyosh va oyning yerdagi hodisalarga ta'siri.

62-bob. Shamol va yulduzlar ta'siri.

63-bob. Mashhur inshootlar va ibodatxonalar (*Makkadagi Ka'ba, Isfahondagi Morbin, Hinddagi Manduson, Balxdagi Navbahor, Sanodagi G'umdon, Farg'onadagi Kovuson va Chindagi ibodatxonalar tavsifi*).

64-bob. Yunonistondagi mashhur ibodatxonalar.

65-bob. Rumdagi mashhur ibodatxonalar.

66-bob. Slavyanlarning ibodatxonalari.

67-bob. Sobiylar dini va ibodatxonalari.

68-bob. Olovxonalar va majusiylarning boshqa ibodatxonalari.

69-bob. Dunyoning yoshi haqida.

70-132-boblar. Payg'ambar (*alayhissalom*) ning tavalludlari, Islomning zohir bo'lishi, chahoryorlar, xalifalar tarixi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalar umumlashtirilsa, avvalo, tarix boshqa shariat ilmlarini o'zlashtirish va qiyosiy xulosalar berishda zaruriy fanlardan ekani ma'lum bo'ladi. Ayni paytda Islom va insoniyat tarixida yuz bergan voqealar turli janr va uslublarda yozilgan musulmon tarixnavisligi nomi ostida umumlashtirilgan manbalarda yoritilgan. Ular orasida umumiy tarix janrida yozilgan asarlar insoniyatning, shu jumladan, musulmonlarning qadimdan yaqin kunlargacha bo'lgan o'tmishini o'rganishda muhim manba sanaladi. Bunday manbalar o'qib-o'rganilsa, tarix faqat siyosiy urushlar va janglardangina iborat emasligiga guvoh bo'linadi. Qator xorijiy mamlakatlarda musulmon tarixnavisligiga oid asarlarni o'rganish va nashr qilish ancha yillar oldin boshlangan va bugungi kunda ham katta qiziqish bilan davom ettirilmoqda. Shu sabab yurtimizda ham yosh tadqiqotchilarni bu kabi tarixiy asarlar ustida ilmiy izlanishlar olib borishga hamda ushbu asarlarning o'zbek tilidagi tarjimalarini amalga oshirishlarini rag'batlantirish bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abd al-Aziz Duri, Fred M. Donner, Lawrence I. Conrad. The Rise of historical writing among the Arabs. – Nyu-Jersi: Princeton University Press, 1983.
2. Ayman S. Ibrahim. Conversation to Islam. Competing Themes in Early Islamic Historiography. – Angliya: Oxford University Press, 2021.
3. Bahodirov R.M. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
4. El-Mas'udi's Historical Encyclopaedia entitled Meadows of Gold and Mines of Gems. Translated from Arabic by Aloys Sprenger. – London: Kessinger publisher, 1841.
5. Jaloliddin Suyutiy. Shamarix fi ilmit tarix. Nashrga tayyorlovchi Abdurahmon Hasan Mahmud. – Qohira: Jamiatu Aynush shams, 1411/1991.
6. Qozi Ahmad G'afforiy Qazviniy. Tarixi jahonoro. – Tehron: Kitabxonah, 1342/1964.
7. Radtke B. Weltgeschichte und Weltbeschreibung im mittelalterlichen Islam. – Beirut: Stuttgart, 1992.
8. Rosenthal F.A. History of Muslim Historiography. Second edition. – Leiden: Brill, 1968.
9. СВР. История / Сост. Д.Ю. Юсупова, Р.П. Джалилова. – Ташкент: Узбекистан, 1998.

Obid TANGIROV

*Oriental universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası v.b. dotsenti
e-mail.: tangirovobid8383@gmail.com*

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENT SHAHRIDAGI MASJIDLAR FAOLIYATI

THE ACTIVITY OF MOSQUES IN TASHKENT
CITY AT THE END OF 19TH CENTURY AND
AT THE BEGINNING OF 20TH CENTURY

Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin o'lkaga hukmronlikni joriy qilishda ko'plab muammolar imperiya ma'murlari uchun ko'ndalang bo'lib qoldi. Ayniqsa, aholining mustahkam e'tiqodi, shariat qoidalarining asosiy huquqiy manba ekani, jamiyatda aholining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va hatto siyosiy hayoti ham Islom dini bilan chambarchas bog'lanib ketgani imperiya hukumatini sergak torttirib, bu masalaga jiddyroq yondashishga majbur etdi. Rossiya imperiyasining musulmon xalqlarni mustamlaka holatida boshqarish tajribasi mavjud bo'lsa-da, Turkiston o'lkasida yashovchi xalqlar o'zlarining ko'p asrlik davlatchilik tarixi, mustahkam boshqaruv an'alariga egaligi, huquqiy jihatdan aniq tizimning shakllangani tufayli mustamlakachi hukumat o'lkada boshqa mustamlaka hududlaridan farqli ravishda siyosat olib borishga majbur bo'ldi. Aniqrog'i, mahalliy aholini boshqarishda o'lkaning an'anaviy boshqaruv usullaridan foydalansa-da, umumiy boshqaruvni imperiya ma'murlaridan bo'lgan harbiylarga topshirdi. Aholining diniy nazoratini an'anaviy boshqaruv usullaridan foydalanib amalga oshirdi. 1865-yil Toshkentni bosib olgan M.G. Chernyayevning birinchi qilgan ishi

mahalliy diniy namoyandalar bilan murosaga kelish bo'lgan [3:55]. Chunki ular aholi orasida hurmat e'tibori yuqori bo'lgani sababli o'zlarining ortlaridan barcha shahar ahlini ergashtira olishini Rossiya imperiyasi hukumati vakillari yaxshi bilishgan [3:56].

Imperiya bosqinchiligining dastlabki davrida boshqaruv jihatidan Turkiston musulmonlari diniy nazorati uchun alohida maxsus idora yo'q edi va soha bilan bog'liq masalalar imperiya harbiy vazirligi nazorati ostida Turkiston general-gubernatori orqali tartibga solingan [1:10]. 1905-yildan imperiya qonunchiligi asosida Turkiston musulmon diniy muassasalarini Orenburg diniy nazoratiga bo'ysunishi belgilandi [3:180]. Imperiya hukumati o'lkada sodir bo'lgan har qanday hukumatga qarshi chiqishlar, qo'zg'olonlarning ortida mahalliy aholining mustahkam e'tiqodi bo'lgan Islom dini turibdi deb hisoblagan. Shuning uchun aholining diniy e'tiqodini zaiflashtirish evazigagina o'lkada mustahkam boshqaruvni tashkil etish mumkin deb bilgan. Ammo imperiya hukumati o'lkada musulmon madaniyatiga oshkora ta'sir o'tkaza olmas edi. Bunday ish xalqning jiddiy qarshiligiga olib kelishini hisobga olib Islom dini bilan bog'liq ta'lim, madaniyat, ilm-fanni rivojlantirish omillariga e'tiborsiz yondashish siyosatini amalga oshirdi. Bor e'tiborini rus maktablarini ochish, boshqa din vakillarining shaharga ko'chib kela boshlaganini asos qilib, ularga xos ibodatxonalarni qurish masalalariga qaratdi. Shunday bo'lsa-da, Toshkent shahrida Islom dini va madaniyati o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Hatto ba'zi o'rinlarda masjidlar va madrasalar faoliyatida rivojlanish jihatlari ham ko'zga tashlanadi.

Toshkentning Eski shahar hududida diniy muassasalar sifatida masjidlar va madrasalarning faoliyati muhim o'rin tutadi. Masjidlar aholining namoz o'qiydigan joyi bo'lish bilan birga mahalla bolalari uchun boshlang'ich ta'lim dargohi bo'lmish maktab vazifasini ham o'tagan. Shuningdek, ba'zi yirik masjidlar aholi to'planadigan, jamoaviy masalalar hal etiladigan mar-



kaz sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Madrasalarning asosiy funksional faoliyati ta'lim-tarbiya, ilm-fan bilan shug'ullanish va kadrlar yetishtirish kabilardan iborat edi.

Toshkent hududiy jihatdan ham katta bo'lgani uchun uning masjidleri ham ko'p bo'lgan. Shahardagi umumiy masjidlar soni XIX asrning ikkinchi yarmida 400 tacha edi [8:252]. A.P. Xoroshxin Toshkent shahrida XIX asr 60–70-yillarida 300 tacha masjid faoliyat ko'rsatganini keltiradi [12:87]. Sayyoh Yu.Skaylarning ma'lumotiga ko'ra, XIX asrning 70-yillarida Toshkent shahrida 300 ta masjid bo'lib, har bir masjidga 30-50 tacha xonadon to'g'ri kelgan [9:13]. Arxiv hujjatlarida Toshkent shahridagi masjidlar soni 1869-yilda 255 ta [6:77], 1891-yilda 343 ta deb ko'rsatilgan [5:32-38]. O' Sultonovning "Toshkent masjidleri tarixi" asarida XX asr boshlarida Toshkent shahrida 300-400 atrofida masjidlar faoliyat yuritgan, deyiladi [11:122]. N. Mayev vaqf mulklaridan madrasa, masjid, qabristonlar bilan birga tahratxonalarning xarajatlarida ham foydalanilganini yozgan [2:286-287]. Juma namozi munosabati bilan ushbu kun bayram kuni sifatida nishonlangani uchun Payshanba kuni xuftonda va Juma kuni ertalab har bir masjid odam bilan gavjum bo'lgan.

Masjidda asosan imom, mutavalli, muazzin kabi vazifadorlar faoliyat olib borganlar. Imom masjidga qatnovchi aholiga besh mahal namozni imom sifatida o'qib berish bi-

lan birga, xalqning asosiy ma'naviy ko'makchisi, ma'rifat taratuvchi ziyosi sifatida ham ahamiyatga ega bo'lgan. Ular mahalla ahliga pand-nasihat qilish bilan birga, turli oilaviy, qo'shnilararo, qarindoshlararo va boshqa ijtimoiy masalalarda nizolarni bartaraf qiluvchi xalqning e'tiboridagi peshvo hisoblanganlar. Shuningdek, masjid yonidagi maktabda ustoz sifatida mahalla bolalarining savodini chiqarganlar. Bu ishlarda imomga muazzin (so'fi ham deyilgan) ham yordam bergan. Masjidlarning imomlari qozixona tomonidan xalqning talab va istaklarini hisobga olgan holda madrasani bitirgan ilmi kishilardan tayinlangan.

Masjidlarda imomlar turli yoshlarda faoliyat olib borgan. XIX asrning 90-yillariga oid arxiv hujjatlarida Sebzor dahasi Darvozakent mahallasidagi masjid imomi 85 yoshli mullo Shoikrom Shorahim o'g'li bo'lgan. Xadra ko'cha mahallasi masjid imomi Yormuhammad qori Mo'minboy o'g'li 81 yoshida bo'lsa-da shu vazifada faoliyat olib borgan. 1891-yilda Shayxontohur dahasida faoliyat olib borgan qariyb 20 foiz imom 60 yoshdan oshgan, 37 foiz imom 45-60 yoshlar oralig'ida bo'lgan. Imomlarning 7 foizigina 21-30 yoshlar atrofida bo'lgan [5:28-30]. Ko'kcha dahasidagi Kun ko'cha mahallasi masjidining imomi 20 yoshli Mullo Karimberdi Bekberdi ismli yigit bo'lgan. Umuman olganda, shaharda ko'proq 35-50 yoshlardagi kishilar imom sifatida faoliyat olib borganini kuzatish mumkin.

Annotatsiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent shahrida 400 taga yaqin masjid faoliyat olib borgan, ularning asosiy qismi jome' masjidlar bo'lib, mahalla va ko'cha masjidleri ham mavjud edi. Masjidlarda faoliyat ko'rsatgan imomlarning o'rtacha yoshlari 35-50 yoshlar oralig'ida bo'lib, qavmlarining soni 150-200 kishini tashkil etgan.

Abstract. At the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, there were about 400 mosques in Tashkent, most of them were congregational mosques. There were also neighborhood and street mosques. Most mosques also had ablution facilities, and some mosques had ponds or canals running through them. The average age of imams who worked in mosques was between 35-50 years old, and the number of people in some mosques was 150-200 people.

Kalit so'zlar: masjid, maktab, ta'lim, namoz, imom, muazzin, vaqf, mahalla, ko'cha, guvala.

Key words: masjid, school, education, namaz, imam, muezzin, vakf, mahalla, street, guvala.

Masjidlar asosan, xom g'ishtdan, guvaladan, ba'zi katta masjidlar pishgan g'ishtdan qurilgan. Masjidlarning bir tomoni, ba'zilarining esa qibla tomonidan boshqa uchta tomoni ochiq peshayvonli bo'lgan. Devorlari koshinlar bilan bezatilgan. Qibla tomonining ichki qismi va mehrobga go'zal ko'rinishda ranglar berilgan. Masjidlarning tokchalarida Qur'oni karim va boshqa qo'lyozma hamda toshbosma kitoblar saqlanib, namozxonlar namoz o'qimagan vaqtlarida kitob o'qish bilan mashg'ul bo'lganlar.

Masjidlar mahalla ahli tomonidan yoki shaharning mulkdorlari tomonidan bunyod etilgan. Bunday homiylik masjidni qurdirish bilan birga ularni har yili ta'mirlab turgan. Shaharda Saidazimboy, Qosimboy, Sharifboy, Xonxo'ja, Matkarimboy, Majidboy, Roziqboy, Shojalil, Alimuhammad kabi mulkdorlar sadaqai joriya sifatida bir nechta masjidlar qurilishiga homiylik qilgan [5:28-30]. Ko'kcha dahasida ko'p asrlik tarixga ega masjidlardan Mahkama mahallasida Xoja Ahror Valiy hazratlari qurdirgan masjid, aholi tomonidan qurilgan Shayx Zayniddin masjidi kabilari ham XIX asr oxirlarida faoliyat ko'rsatib [6:193-211], ularning vaqflari evaziga masjidlar ta'mirlanib, jihozlanib turilgan.

Masjidlarni doimiy qavmlarining soni ham turlicha bo'lib, ba'zilariga ko'proq, boshqalariga esa kamroq odam qatnagan. Masalan, Shayxontohur dahasidagi Qoryog'di, Oqqo'rg'on, Egarchi kabi mahallalarda yirik masjidlar joylashgan bo'lib, ularning qavmi 100, 200 kishi atrofida bo'lgan bo'lsa, ba'zi ko'cha masjidlari atrofida masjidlar tig'izroq joylashgani evaziga 25-30 tacha qavmga ega bo'lgan [5:28-30]. Sebzor dahasidagi Teshikqopqa, Yov, Rabot kabi mahallalardagi masjidlar 100-150 qavmga ega bo'lgan bo'lsa, Registon mahallasidagi masjidga 200 tacha odam qatnagan [5:30-33]. Beshyog'och dahasida Do'stchiboy, Xonaqoh, Yangi, Qug'urmoch mahalalarida 100-130 atrofida qavmga ega bo'lgan. XIX asr oxirlarida Ko'kcha dahasidagi Kallaxona, Ayrilish, Langar, Saqchimon, Qilbelboq, Pichoqchi, Eshikobod, Guzarboshi kabi mahallalarda

gi masjidlar 100-150 atrofida qavmga ega bo'lgan bo'lsa, Sag'bon mahallasidagi 3 ta masjidlarning biriga 100 ta, ikkinchisiga 125 ta, uchinchisiga 350 ta odam qatnagan [5:30-33]. Masjidlarga qatnovchilarning turli-tumanligi avvalo, o'sha masjidga yaqin yashovchi aholi soni bilan bog'liq sanalgan. Ammo Toshkent shahrini Rossiya imperiyasi bosib olgach, musulmon aholining amaliy e'tiqodini va masjidga chiqishini nazorat qilib turadigan rais lavozimi bekor qilingach, odamlar orasida e'tiqodda sustkashliklar kuzatilgani manbalarda keltirilgan [10:124].

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida shahardan musulmonlar Makka shahriga haj ibodatini amalga oshirishi ham mumkin bo'lib, faqat hajga boruvchining o'zi moddiy va jismoniy jihatdan imkoniyati yetsa, o'ziga ishonsa ikki yo'l orqali Makka shahriga yetib borgan. Birinchisi temir yo'l orqali Toshkentdan Odessa shahriga yoki Batumi shahriga bori- lib, undan Qora dengizda kema bilan Turkiya davlati orqali Jidda shahriga borishgan. O'rta Osiyodan hojilar asosan, shu yo'l orqali hajga borganlar. Ikkinchisi, Afg'oniston orqali Hindistonga o'tib Mumbay (*Bombey*) shahridan kema orqali Jidda shahriga borgan [4:38-41]. Bu davrda musulmonlar haj ziyoratiga borishlari uchun xorij pasportlarini olishi kerak bo'lgan, buning uchun esa chet elga chiqish uchun hech qanday to'siq yo'qligi haqida politsiya mahkamasidan hujjat olingan [7:3].

Masjidlarda ham xuddi madrasa va maqbaralar kabi moliyaviy masalalarga mutavalli mas'ul bo'lgan. Uning vazifasi muassasaning moliyaviy xo'jalik faoliyati, kirim-chiqim, xodimlarning maoshlari, daromadlarning hisob-kitobi va boshqalarni yo'lga qo'yish bo'lgan. Xodimlarning maoshlari vaqfnomalarda mulkdor tomonidan belgilab qo'yilgan. Mutavallilarga aksariyat vaqfnomalarda daromadning o'nda bir qismini olishi ko'rsatilgan. Masjidlarning vaqfi unda faoliyat olib boradigan vazifadorlar ish haqi, masjid xarajatlari uchun yetarli bo'lib, hatto ikki, uchtdan oshiq darsxonalarda mahalla



bolalarini savodini chiqarishga ham imkoniyati yetgan. Chunki yuqorida aytilganidek, ular maktab vazifasini ham o'tagan.

Masjidga vaqfdan tushadigan foyda asosan, imom va muazzinga berilgan. Chunki ular kun bo'yi besh mahal namozga qatnab, boshqa tirikchilik qilish imkoni bo'lmagan. Vaqflik masjidlar yerlarining va savdo do'konlarining imperiya hukumati tomonidan o'zlashtirilishi tufayli kamayib ketgan. Natijada, masjidlarning iqtisodiy ta'minotida muammolar paydo bo'lgan. Shuning uchun masjidlarning asosiy ta'minotchisi o'sha masjidga qatnovchi kishilar va mahalla ahli bo'lib qoladi. O'rta Osiyoda sovet hukumati mustamlakachiligi o'rnatilgach, masjidlar faoliyatini cheklash siyosatini yuritdi

va 1927–1930-yillar davomida mahalliy aholining xohish-istaklarini inobatga olmay diniy muassasalarni yopib qo'ydi. Milliy o'zlik, e'tiqod erkinligi g'oyalari ko'targan ziyolilar mustabid sovet tuzumining qatag'oniga giriftor etildi. 1943-yil Ikkinchi jahon urushi davom etayotgan bir paytda sovet hukumati sobiq Ittifoq xalqlari birdamlikda fashizmga qarshi kurashishi uchun boshqa respublikalar qatori O'zbekiston aholisining e'tiqodiy erkinligini ma'lum darajada ta'minlashga majbur bo'ldi. Buning natijasida Markaziy Osiyodagi beshta respublika musulmonlari uchun Toshkent shahrida O'rta Osiyo va Qozog'iston diniy nazorati tashkil etilib, ko'plab masjidlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Арапов Д.Й. Ислам в Российской империи. – Москва, 2001.
2. Маев Н.А. Азияцкий Ташкент. // Ежегодник. Материалы для статистики Туркестанского края. – Санкт-Петербург, 1876.
3. Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868-1910. – New York, 2008.
4. O'zMA, I-36-jamg'arma, 1-ro'uxat, 3238-ish. – B. 38-41.
5. O'zMA, I-36-jamg'arma, 1-ro'uxat, 449-ish. – B. 28-30-32-33-38.
6. Паломничестве (хадже) в Мекку // Туркестанские ведомости. 1908. № 184 // Туркестанский сборник. Т. 477. – Ташкент: – 1908.
7. Паломничество // Туркестанский курьер. 1913. № 116.
8. Robert D. Crews – For Prophet and Tsar. – London: 2006.
9. Skayler Y. Turkiston: Rus Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va G'o'ljaga sayohat qaydlari. Tarjima va izohlar muallifi Z. Saidboboev // O'zbekiston tarixi. – Toshkent: 2014. – № 1.
10. Skayler Y. Turkiston: Rus Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va G'o'ljaga sayohat qaydlari. Tarjima va izohlar muallifi Z. Saidboboev. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
11. Sul'tonov O'. Toshkent masjidlari tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, – 2010.
12. Хорошхин А. Очерки Ташкента. – Ташкент: Туркестанский сборник, –1876.

Nasriddin MIRZAYEV

*O'zbekiston Milliy arxivi katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
e-mail.: nosir86@mail.ru.*

OILAVIY MASALALARGA OID TARIXIY HUJJATLAR TAHLILI



ANALYSIS OF SOME DOCUMENTS ON FAMILY ISSUES



Asrlar davomida diniy-axloqiy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy munosabatlar ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbai sanaladi. Oila – jamiyatimiz tayanchi, nikoh esa uning poydevori bo'lgan. Shu bois xalqimizda oilaga qadimdan muqaddas dargoh sifatida qaraladi va e'zozlanadi. Farzandlarni oilaparvar qilib tarbiyalash, ota-ona bo'lish mas'uliyatini shakllantirish, farzandlarga g'amxo'rlik qilish xalqimizning milliy qadriyatlaridan hisoblanadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Hifzi sihhati oila" ("*Oila salomatligini saqlash*"), Abdusalom Azimiyning "Ta'lim va tarbiya", Is'hoqxon Ibratning "Millatni kim isloh etar?" va Mirmuhsinning "Ahvoli zorimiz" kabi "Oyina" jurnalida chop etilgan maqolalari, Abdurauf Fitratning "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asarida oila tarbiyasiga oid muhim muammolar ko'tarilganini ta'kidlash zarur. Ma'rifatparvarlarning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmay turib, yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas.

Islom huquqida nikoh-oila munosabatlari masalasi hamma davrlarda muhim va unda tez-tez turli muammoli holatlar yuzaga chiquvchi masalalardan biri sanaladi. Shu

nuqtai nazardan o'lkamiz tarixining XIX–XX asrga oid qozilik hujjatlari asosida aholining turmush tarzi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, xususan, nikohlanish, oilaviy kelishmovchiliklar natijasida yuzaga kelgan ajrimlar, voyaga yetmagan farzandlarning qozilar tomonidan ota yoki onaga berilishi kabi masalalarni o'rganish yo'lida olib borgan ishlarini kengroq yoritish dolzarb sanaladi.

Hijriy 1260-yilning muharram oyi (1844-yil fevral)da Buxoro amiri Sayyid Amir Nasrulloh ibn Amir Haydar Buxoro hududining Panjikent viloyatida Qozi lavozimiga Mulla Muhammadzamonni tayinlash to'g'risidagi yorlig'i (*farmon*)ni e'lon qilgan. Tayinlovdan so'ng mazkur viloyat aholisi qozini tan olishi, ayni uning mahkamasiga murojaat qilishi va itoat etishlari lozimligi ta'kidlangan. Uning vakolatlariga: jinoyatlarga jazo, xusumat va janjallarga nisbatan hukm chiqarish, kotibiyat, ish yuritish, nikoh ishlari, yetimlar va merosxo'rlar mulkining taqsimlanishi yuklatilgan. Yozuv-chizuv haqqi sifatida har ming tangadan besh tanga olishi belgilanib, bundan ko'p talab qilishi taqiqlangan. Shu jumladan, ushbu yorliqda hududdagi aholi orasida yangi oila qurmoqchi va nikohlanuvchi bokira qizlarning nikohini o'qishda bevosita qozining o'zi ishtirok etishi, boshqa nikohlarni o'qish uchun nikoh masalalaridan yaxshi xabardor mas'ullarga topshirishga alohida urg'u berilgan. Har nikoh o'qilganda mashhur ikki shart (*er o'z xotinini olti oydan ko'p muddatga nafaqasiz qoldirmasligi va unga zulm qilmaslik*) kabi shartlardan ziyoda shart qo'yimaslik belgilangan. Nikohona haqi bokiradan bir tillo miqdorida belgilangan, agar to'lashga qodir bo'lmasa olmaslik tayinlangan. Zero, yo'qsil va nochorlar holiga rahm-shafqat qilish zarurligi ta'kidlangan [10:2].

Nikohni rasmiylashtirish va uni qonuniy bo'lishi uchun nikohga kirishuvchi tomonlarga teng amalda bo'lgan bir nechta talablar qo'yilgan. Ular Islomning asosiy manbalaridan Qur'oni karim, hadisi sharif hamda ulardan kelib chiqqan holda, fiqhiiy manba-



lar va ko'plab faqihlarning asarlarida keltirib o'tilgan quyidagi masalalardan iborat edi: 1) nikohlanuvchi ikki tomonning o'zaro roziligi; 2) nikoh yoshiga yetgan bo'lishi; 3) nikohlanuvchi tomonlarning o'zaro yaqin qarindosh (*shar'iy mahram*) bo'lmasliklari; 4) kelin uchun kuyov tomonidan mahr berilishining shartligi; 5) nikoh tuzish paytida ikki erkak yoxud bir erkak va ayollardan iborat guvohlarning ishtiroki; 6) nikohdan o'tuvchilarning diniy e'tiqod birligi va ruhiy sog'lomligi; 7) ikki tomonning tengligi (kufu) [1:646-758].

O'sha davrda Toshkent qozilari tomonidan ko'rib chiqilgan nikoh masalalaridan biri – voyaga yetgan qizning o'z ixtiyori bilan turmush qurishi bo'yicha ma'lumotlar uchraydi. Unda keltirilishicha, agar Hamrohoy ismli ozod, aqlli va balog'at yoshiga yetgan (*mu-kallafa*), boshqa birovning nikohi va iddasida bo'lmagan qiz, ma'lum bir qozining huzurida o'z tengi bo'lgan Xolid ismli erkakka o'z ixtiyori bilan o'zini bag'ishlasa va Xolid ham uni xotinlikka olishga rozi bo'lsa, lekin qizning ota-onasi biron-bir sababga ko'ra, nikohga qarshilik qilsalar-da, shariatga muvofiq bunday holatda yoshlarning nikohi to'g'ri bo'lib, ota-onaning o'z qiziga qarshi da'volari e'tiborga olinmaydi, deb hukm chiqarilgan [4:3].

Nikohni rasmiylashtirish masalasiga doir arxiv hujjatlari tahlil etilganda, Markaziy Osiyo xonliklarida ayrim holatlar-da, nikohdan o'tuvchilarning qozidan maxsus ruxsatnoma olgani aniqlandi. Bunda qozilar dastlab nikohga kirishuvchi ayolni ilgari nikohda bo'lgan yoki bo'lmaganini aniqlagan, so'ng uning nikohlanishiga ruxsat bergan. Jumladan, ruxsatnomada quyidagi ma'lumotlar berilgan: "Avaz Niyoz ibn Rahmatullohning bokira qizi nikohiga javob berduk hech kim arz qilmasun deb. Mohi safarning to'rtida xat bitildi 1275-hijriy yil (*1858-yilning 12-sentabriga to'g'ri kelgan*). Qozi Sayyid Islomxo'ja ibn domla Ibrohimxo'ja Marhumiy muhri" [6:1]. Hujjatda keltirilgan "bokira" so'zi ayolning oldin nikohda bo'lmaganini, ya'ni bu uning ilk nikohi ekanini anglatgan. Shu hujjat asosida nikoh o'qilgan.

1886-yilda qabul qilingan Rossiya imperiyasining "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, Toshkent shahri imomlariga mintaqada amalga oshirilgan fuqarolik holatlari (*nikoh, ajrim, tug'ilish va o'lim*)ni qayd etish uchun maxsus daftarlar yuritish vazifasi yuklatilgan. Nikoh daftarlarida nikohlanuvchilarning ismi, yoshi va millatiga doir ma'lumotlar qayd qilingan.

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo tarixida oilaviy masalalarning yuzaga kelish sabablari, ularning muammolarini yechishdagi yondashuvlar asosida fikr yuritilgan. Xususan, mavzuni yoritishda bizgacha saqlangan qadimiy yozma manbalar, qo'lyozma, toshbosma, qozilik hujjatlari va turli rasmiy hisobotlarga tayanilgan. Oilaviy masalalarni yechishda islomiy ilmlarning ahamiyati, oilaning muqaddasligiga doir ta'limotning o'rni katta ekanligi va ularni naql qilish, talqin etish va boshqalarga o'rgatish masalasi jiddiy ekaniga alohida urg'u berilgan.

Abstract. The article discusses the causes of family problems in the history of Central Asia, and approaches to solving their problems. In particular, ancient written sources, manuscripts, petroglyphs, judicial documents and various official reports, which have been preserved until now, were used to explain the topic. Special emphasis was placed on the importance of Islamic sciences in solving family issues, the importance of the doctrine of the sanctity of the family, and the importance of transmitting, interpreting and teaching them to others.

Kalit so'zlar: XIX asr, Markaziy Osiyo, oilaviy masalalar, qadimiy yozma manbalar, qozilik hujjatlari, nikoh, taloq, meros.

Key words: 19th century, Central Asia, family matters, ancient written sources, qazi documents, marriage (*nikah*), divorce (*talaq*) and inheritance issues.

Toshkentning yangi shahar qismida faoliyat yuritgan tatar imomi tomonidan 1886–1890-yillarda yuritilgan daftarda – jami 88 nafar nikohlanuvchilar to'g'risida ma'lumotlar berilib, unga ko'ra, ayollarining yoshi 17 dan 46 yoshgacha, erkaklarning yoshi esa 19 dan 52 gacha bo'lgan. Shuningdek, tatar va o'zbek millati o'rtasida tuzilgan nikohlar soni 7 ta bo'lib, ulardan 4 ta holatda tatar millatidagi 28 va 30 yoshli erkaklar 25, 29, 35, 42 yoshli o'zbek ayollari bilan va 3 ta holatda 19, 30 yoshli tatar ayollari 35, 50 yoshli o'zbek erkaklari bilan nikohlangani qayd etilgan [11:90-92].

Nikoh bitimini er hamda xotin tomonidan – uning ishonchli vakili bo'lgan qarindoshlaridan biri tuzgan. Odatda, nikohda kamdan-kam ayollarni o'zi ishtirok etishgan.

Shariatning nikoh tuzishdagi asosiy talblaridan biri – kelin uchun mahr berish. Nikoh tuzish vaqtida er yoki uning otasi to'liq yoki qisman “mahr” puli to'lashi lozim. Mahr – bu nikoh evaziga to'lov bo'lib, u xotinning o'zigagina tegishlidir. Shu bilan birga, mahr xotinning moddiy manfaatlarini himoya qilishga (*ayniqsa, nikoh to'xtatilgan-da*) qaratilgan haq-huquqidir [12:96-99].

Mahr faqat pul yoki qimmatbaho buyumlar tariqasida berilgan. Nikoh mahri bilan Markaziy Osiyoda xalqlarning odatiga kiruvchi “qalin” tushunchasini bir-biridan farqlash lozim. Qalin mahr kabi pul yoki qimmatbaho buyumlar shaklida qizning ota-onasiga berilgan. Biroq shariatda shart qilingan mahr boshqadir. Zero, Qur'oni karimda mahr haqida shunday deyiladi: **“Xotinlarga mahrlarini mamnunlik bilan (ya'ni chin ko'ngildan) beringiz!”** (*“Niso” surasi, 4-oyat*) [9:77]. Mahruga uy-joy, pul, kiyim-kechak, zeb-ziynat buyumlari, chorva mollari va boshqalarni berish joiz. Mahrning eng ko'p miqdori va uning qanday narsa yoki buyumlar bilan berishning ahamiyati unchalik darajada muhim sanalmaydi. Ayrim hollarda mahr to'liq, ba'zida esa bo'lib-bo'lib beriladi. Shariatda belgilangan mahrning eng kam miqdori yoki undan ko'pi berilmasa, nikoh haqiqiy emas deb hisoblangan.

Mahrning eng kami o'n dirhamdir. Ushbu miqdor barcha hanafiy fiqh kitoblarida bir xil keltiriladi. O'n dirham – bir dinorga teng bo'lib, bu – zakot berish uchun nisobga yetgan molning yigirmadan biriga tengdir. Mazkur andozaga amal qilib, har bir davrdagi mahrning eng kam miqdorini aniqlash oson bo'ladi. Buning uchun o'sha davrning zakot nisobi, mazkur miqdorning yigirmadan biri aniqlansa, eng kam mahr miqdori chiqadi [12:97].

XIX asrga oid Toshkentda tuzilgan nikoh-nomaning bosh satrida er bo'lajak xotiniga uch ming tanga mahr berishi kerakligi yozilgan. Bu mahr haqqini bo'lib-bo'lib berish joizligi ko'rsatib o'tilgan. Hujjat Qo'qon qog'oziga qora siyoh bilan nasta'liq xatida yozilgan [8:173]. Islom huquqiga ko'ra, nikoh tuzilishi uchun ishtirok etayotgan guvohlarning voyaga yetgan va aqlan sog'lom bo'lishi talab etilgan.

Nikoh tuzishda tomonlarning tengligi ham inobatga olingan. Shariatda nikohga kiruvchi shaxslarga urug'i, nasl-nasabda tenglik, ozod bo'lishi, diniy birlik, mol-mulkda tenglik, kasb-hunarda tenglik kabi bir qator talablar qo'yilgan.

Jumladan, Toshkentdagi nikoh to'ylari xususida Muhammad Solihxo'janing “Tarixi jadidai Toshkand” asarida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi [5:596-597]. Unda 1880-yil kuz faslida Xudoyorxonning farzandi Sayyid Nasriddinxonning to'yiga bevosita sababchi bo'lgan muallif xonzoda Nasriddinxonning iltimosiga ko'ra, kelinni o'zi tavsiya qilgan va to'y kuni kelin tarafidan padarvakil (*ota nomidan vakil*) bo'lganini alohida ta'kidlab o'tadi. Xonzodaning mavqeiga munosib kelin sifatida bir nechta xon va amirlarga tabib bo'lgan Asadullohbek ibn Abdullohbek Kafkaziyning qizini tanlaganini aytib, ikki tarafni quda bo'lishga ko'ndirgan. Nikoh xutbasini o'qish o'z zamonasining parhezkori va falakiyot olimi (*munajjim sifatida zikr qilingan*) – Eshon Abduzzohirxo'ja eshon Qiyotiy ibn Abdulazizxo'ja eshon Qiyotiyga topshirilgan.

Shuningdek, qozilik hujjatlari bilan tanishib chiqilganda ma'lum davrda taloq



masalasi necha marotaba bo'lgani va uning sabablarini ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Jumladan, 1288-hijriy sana (1871-yil)da bo'lib o'tgan voqealar ro'yxatida quyidagilar kuzatiladi:

“Abdurrasulxo'ja ibn Ya'qubxo'ja qozining “Qarorlar kitobi” ijtimoiy masalalarga oid turli masalalarni o'z ichiga olgan. Jami 618 ta masala oyma-oy va mavzulari aniqlik bilan ko'rsatilgan bo'lib, ularda meros, nikoh, oldi-sotdi, qarz va taloq muammosi ko'rilgan. Qozi 1871-yil davomida 55 ta taloq masalalarini hal qilgan. Masalan, ushbu hujjatlardan birida hijriy 1288-yil 28-muharram oyi (mil. 1871-yil 18-aprel) da Boboshayx qizi Oishabibi Janggoh mahallasida yashovchi o'z eri Mirobid G'oibboy o'g'lidani nafaqasiz qolgani sababidan shariat bo'yicha talog'ini olib, o'zini bir boin taloq qildi. Shu to'g'risida tilxat yozildi, qozi: Abdurrasulxo'ja Ya'qubxo'ja qozi o'g'li [3:9]. Demak, bu o'rinda ham ayni erlarning o'z ayollarini qarovsiz holda tashlab ketishi sabab qilib ko'rsatilgan.

Qozi tomonidan ko'rilgan yana bir ishda hijriy 1288-yil 7-muharram oyi (mil. 1871-yil 28-mart)da Oyxoxo'ja Shohxo'ja o'g'li o'z xotini Boltaoyim Mahdiyxo'ja qizini mahr, nafaqa puli va bir tillo evaziga taloqi boin qilgan. Barcha da'volaridan voz kechgani xususida tilxat (vasiqanoma) yozib berilgan [3:1]. Ushbu holatda keltirilgan bir taloqi boin masalasiga alohida urg'u beradigan bo'lsak, o'sha davrlarda ajrim bo'lgan er-xotinlar orasida uch taloq emas, balki hozirgi kundagi erlardan farqli ravishda, aksari bir taloq qilinganini ta'kidlash mumkin. Zero, qozilik hujjatlarida uchragan aksar holatlar bir taloqqa oid bo'lib, juda kam hollarda uch taloq masalasi ko'tarilgan.

1900-yilda Toshkentning Sebzor dahasi qozisi Eshonbobo Azizlarxon o'g'li, Beshyog'och dahasi qozisi Abdulg'anixon Eshonxo'ja o'g'li, Ko'kcha dahasi qozisi Mullo Odil Is'hoqboy o'g'li va Shayxontohur dahasi qozisi Nizomiddin Kattaxo'ja o'g'lining ish daftarlarida qayd qilingan ma'lumotlarning miqdoriy tahlili o'tkazilgan [3:47-48].

Mazkur ro'yxatdan quyidagi tahliliy ma'lumotlar olinib, Toshkent aholisining mazkur davrdagi muayyan bir holatini tasvirlash mumkin. Jumladan, Shayxontohur dahasida ko'rilgan 136 ta turli masalalar ichida 12 tasi taloq ishi, Sebzordagi qozixonada 151 ta masaladan 7 tasi taloq ishi, Beshyog'ochdagi qozixonaning 139 ta ishidan 6 ta masala taloq va Ko'kcha dahasi qozisining 112 ta ishidan 2 tasi oilaviy ajrim muammosi bo'lgan [2:45-52].

Toshkentda 1919–1923-yillar davomida chiqarilgan hukmlarni qayd qilish arxiv daftarida taloqqa oid jami 150 dan ziyod ish bor [7:1]. Ushbu taloq masalalarining barchasini ayollar tomonidan arz qilib, hukm olganlarini alohida qayd qilish joiz.

O'rganishlar natijasida ajrimlarga sabab bo'lgan ko'plab taloq ishlari erlarning o'z xotinlarini sababsiz va ogohlantirishsiz ancha muddatga tark etib, uzoqqa ketishlari bo'lgan. O'z ayolini nafaqasiz qoldirib ketgan fuqaroning ishini ko'rgan Sebzor qozisi G'ulom Rasulxo'ja Muhammad Rasulxo'ja o'g'lining qayd daftarida 1923-yilning 22-dekabrida qozixonaga o'z talog'ini so'rab arz qilgan Zulfiyaniso, eri sakkiz yildan beri nafaqasiz tashlab ketgani sababidan, nikoh vaqtida olgan vakolatidan foydalanmoqchiligini bildirgan. Mazkur ayol o'z nafsini eri Muhammadaliboyga bir taloqi boin (og'irroq ajrim turi bo'lib, qaytib yashash uchun mahr berish va nikohlanish zarurdir) qilishini aytgan. Qozi surishtiruv va guvohlarning qasamlaridan so'ng ayolning shikoyatini ijobiy hal qilib, unga ajrim bergan [7:446-448].

Xulosa qilib aytganda, XIX asrdagi ayrim oilaviy masalalarga oid hujjatlar tahlili natijasida oilaviy munosabatlarga mahalliy mas'ul xodimlar doim yechimlar topishga intilgani kuzatiladi. Oilaviy masala va muammolar avj olishining oldini olishga doim e'tibor qaratilgan. Muammolar ildizi aniqlangan va bartaraf qilishga urinilgan. Oilaviy masalalarni ko'rib chiqishdagi an'anaviy yondashuv va ularning asrlar davomida bergan samarali yo'llarini bizgacha saqlangan qadimiy yozma manbalarimiz asosida qayta o'rganish zarur ekanini ta'kidlash joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya. J.I. – Toshkent: Adolat, 2001.
2. Давлетшин А. Отчето командировкев Туркестанский крайи Степние области для ознакомления сдеятелност юнародных казиев. – Санкт-Петербург: 1901.
3. O'zMA, I-36-fond, 1-ro'yxat, 779-yig'ma jild.
4. Jungi fatovo va mahzarot. O'zR FA SHI // Toshbosma № 6354.
5. Muhammad Solihxo'ja Eshon Toshkandiy. Tarixi jadidai Toshkand / Musahhih: Hasan Shujoiy Mehr. – Tehron: Nigoristoni andesha, 1397.
6. O'zMA, I-125-fond, 2-ro'yxat, 597-yig'ma jild.
7. O'zMA, I-502-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild.
8. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondining katalogi. Alimov O. Muzey qo'lyozmalari katalogi. II tom. – Toshkent: "MERIYUS", 2016.
9. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2021.
10. Samarqand viloyati davlat muzeyi fondi. Daftar inventar raqam: KD 1072 KP. – 1618.
11. Ташкентские татары: их браки разводи, рождения и смертность. Статистико-битовой очерк. Сборник материалов для статистики Сирдарынской области. – Ташкент: Типолитография С. Лахтина, 1891.
12. Ubaydulloh ibn Mas'ud. Muxtasar al-viqo'ya (Shariat qonunlariga qisqacha sharh)/ nashrga tayyorlovchilar: R. Zohid, A. Dehqon. – Toshkent: Cho'lpon, 1994.



Umid RAHMATULLAYEV
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti mustaqil tadqiqotchisi

**ISLOMDA DIPLOMATIYA
TUSHUNCHASI VUJUDGA
KELISHINING TARIXIY ILDIZLARI**

HISTORICAL ROOTS OF THE
EMERGENCE OF THE CONCEPT
OF DIPLOMACY IN ISLAM

Davlatlararo aloqalarda hukumatlar-ning siyosatini amaliyotga tatbiq qilish va o'z mamlakatini xorijiy davlatlar nazdida namoyon qiluvchi elchilar Islom kelishidan avval ham, keyin ham arab madaniyatida uzoq tarixga ega ekanligi ma'lum [4:22]. Islom kelganidan keyin musulmonlar elchilarga buyuk ehtirom ko'rsatganlarki, buni Rasululloh (alayhissalom) siyratlaridan ham bilish mumkin.

Aslida, "Rasululloh" kalimasi "Allohning elchisi" degan ma'noni bildiradi.

Islom diplomatiyasida elchilar maqomi haqida so'z yuritganda, ularning o'rni beqiyosligini ta'kidlab o'tish joiz. Qur'oni karimdagil elchilarga doir oyt'larga sof aqidaviy jihattan yondashilsa, elchi Allohning kalomini yetkazish uchun tayinlangan shaxs yoki farishta ekanligi ayon bo'ladi.

Islomda elchi iborasi uch turdagi zotlarga nisbatan qo'llaniladi:

1. Farishtalar.
2. Payg'ambarlar.
3. Aqidaviy ahamiyatga ega bo'lmagan maxsus vazifa yuklatilgan shaxs yoki choparga.

Yuqoridagi uch ko'rsatgichga muvofiq Qur'oni karimda elchi so'zi 27 ta oyatda keltirilgan [3:13-14].

Elchilarning daxlsizligini ta'minlash bo-rasidagi eng yaqqol misolini isyonkor qa-

bila vakillarining poytaxt Madina shahriga kelganlarida ularga bo'lgan munosabatidan ko'rish mumkin. Bu isyonkor qabilalar davlatga soliq to'lamasliklarini, bunga muqobil boshqa diniy ibodatlarini ado qilishlarini, bu istaklarining qabul etilishi borasida davlat bilan oralarida so'rovlar bo'lmasligini aytib, vakillarini Madinaga jo'nata dilar [2:32]. Kelgan elchilar ba'zi sahobalarning uylari va davlatga oid musofirxonalarda joylashtirilishlari va ertasi kun xalifaning huzuriga kirish kabi talablarni bildirdilar. Abu Bakr (r.a.) ularni g'oyat sovuqqonlik bilan tinglar, so'zlarini tamomlaganlaridan so'ng, bu so'zlari qabul qilinmasligi, isyonchilarning hokimiyat bilan savdolashishlariga izn berilmasligi, hokimiyatga itoatdan tashqari ular bilan hech bir sulh haqida so'z ham bo'lmasligi va hokimiyat bilan qarama-qarshi chiqish mavzusida erkin ekanliklarini aytadi. Ularga bir kun ichida darhol Madinani tark etishlari kerakligini, aks holda elchilik sifatlarini yo'qotishlarini va hukumatning ularga daxlsizlik kafolatini ta'minlamlasligini aytganida, elchilar darhol shaharni tark etganlar.

E'tibor qilinsa, kelgan delegatsiya hokimiyatga isyon qilgan qabilalarning vakillari edi. Faqat ularda elchi sifati bo'lgani uchun Madinada rasmiy mehmon sifatida musofir edilard. Bu nuqtada hokimiyat bilan shartlashishga kirishgan bu elchilarning daxlsizliklari ta'minlangani kabi, qavliy yoki fe'liy bosqinga ham uchramadilar.

Elchilarga nisbatan bu yondashuvdan nafaqat davlat rahbari, balki boshqa davlat lavozimlaridagi shaxslarning ham ayni shaklda ish tutganlarini aytish mumkin. Chunonchi, Kinda qabilasi qo'zg'olonchilari-ning boshliqlaridan bo'lgan Ash'as ibn Qays (vaf. 40/661) va tarafdorlarini Ikrima ibn Abu Jahl (vaf. 13/634) qal'ada qamal qilgan, qutula olmasligini bilganidan so'ng Ash'as o'zi va yaqinlari nomidan omonlik tilashga majbur bo'lgan. Uning istagi qabul qilinib, u bilan muzokara olib borilgan. Ash'as qo'zg'olonchilarning rahbari bo'lishiga qaramay elchi sifatida muzokaraga kelgani uchun unga hech qanday zarar ko'rsatilmasdan yaxshi muomala qilingan [7:114].

Bularga qo'shimcha qilib, xalifa qo'mondonlarga xorijiy elchilarga yaxshi munosabatda bo'lishlarini, dushman elchilari huzurlariga kelganlarida ularga izzat-ikrom ko'rsatishlarini, ularning hol-ahvolarini so'rashlarini qat'iy talab qilar [6:4], shuningdek, xorijiy elchilar davlat chegaralari va qo'shinning zaif nuqtalarini o'rganishlarini oldini olish uchun qarorgohda uzoq bo'lmasliklarini va askarlar bilan suhbatlashishlariga yo'l qo'yilishiga e'tiborsiz qolmasliklari kerakligini ta'kidlar edi.

Elchining aybsizligi va ularning himoyasi bilan bog'liq Islom tarixidagi bu yondashuvlar keyingi davrlarda ham davlat boshqaruvidagi voz kechilmas an'analarga aylandi, bu borada ko'plab huquqiy tamoyillar Islom huquqshunoslari tomonidan o'rganilib o'rtaga tashlandi [5:211-215].

Ilk islom davrida elchilik munosabatlari avvalo janglar oldidan xabar almashish ko'rinishida ham yuzaga chiqadi. Masalan, Bani Nazir jangida ham elchi yuborilgan.

Bani Nazir qabilasi Adal va Qorra qabilalari hamda Ma'una qudug'idagi qochib ketganlar bilan o'ta razil bitim tuzdilar. Ular yig'ilishib Rasululloh (alayhissalom)dan Qur'on va Islomni eshitishni so'rashdi. Bu borada fikrlashib, agar qanoatlantirsa imon keltirishlarini aytishadi. Ular kelishib olib har bir kishi kiyimi ostida xanjar olib kelish-

ga qaror qilishgandi. Rasululloh (alayhissalom)ga birdaniga suiqasd uyushtirishmoqchi edilar. Lekin Rasululloh (alayhissalom) bundan xabar topib, hojat talabida tashqariga chiqdilar va Madinaga qarab yo'l oldilar.

Amr ibn Umayya (r.a.) qaytganida Rasululloh (alayhissalom)ga Bani Kilob qabilasidan ikki kishini o'ldirganligi haqida xabar berildi. Rasululloh (alayhissalom) bir necha sahobiylar bilan Bani Nazirga shartnomaga muvofiq tovon to'lashga yordam berishlari uchun bordilar. Shunda ular: "Ey Abul Qosim, muammoni hal etish uchun o'tir bu yerga", dedilar. Shunda Rasululloh (alayhissalom) devor yoniga o'tirdilar. Bir-birlari bilan yolg'iz qolganlarida shayton aralashib dedi: "Sizlardan qay biringiz shu tegirmon toshini ko'tarib, uning boshiga ota oladi?" Qarindoshi Amr toshni otadigan bo'ldi. Keyin Jabroil alayhissalom tushib, ularning maqsadlarini yetkazdi. Rasululloh (alayhissalom) Madinaga yo'lga tushishga shoshdilar. So'ngra orqalaridan sahobiylari yetib kelishdi. Ularga Bani Nazirning fitnalari va keyin shunday yo'l tutganliklari haqida aytdilar. So'ngra Nabiy (alayhissalom) ularga Muhammad ibn Maslamani yubordilar, u borib: "Arab diyorini tark etishingiz uchun sizlarning o'n kun vaqtingiz bor. Agar o'n kundan keyin biror kishi qolsa, bo'yniga qilich tortiladi", dedi. Ketish uchun taraddud

Annotatsiya. Ushbu maqolada Islomda diplomatiyaning vujudga kelishining dastlabki asoslari, davlatchilik tarixida elchilar faoliyatining ahamiyati, elchilar maqomi va ularga bo'lgan munosabat, turli siyosiy vaziyatlarda elchilar bilan olib borilgan munozaralar, davlat rahbarining elchilarga qanday munosabat qilinishi haqidagi ko'rsatmalari, ilk islom davrida musulmonlar tomonidan raqib tomonga turli shart va xabrlar bilan elchilar yuborilishiga oid ma'lumotlar bayon qilingan.

Abstract. In this article, the initial foundations of the emergence of diplomacy in Islam, the importance of the activities of ambassadors in the history of statehood, the status of ambassadors and their attitude towards them, discussions with ambassadors in various political situations, the instructions of the head of state on how to treat ambassadors, rivals from Muslims in the early Islamic period information on sending ambassadors with various conditions and messages to the party is described.

Kalit so'zlar: elchi, davlatchilik, siyosiy vaziyat, Allohning elchisi, Bani Nazir, Kinda qabilasi, Quraysh, Hudaybiya.

Key words: ambassador, statehood, political situation, Allah's messenger, Bani Nazir, Kinda tribe, Quraysh, Hudaybiya.



ko'rishni boshladilar. So'ngra ularga munofiqlarning boshchisi Abdulloh ibn Ubay elchi jo'natib: "Sizlar mahkam bo'linglar va hech qayerga ketmanglar. Albatta, mening ikki ming kishilik qo'shinim bor, sizlarning qal'alaringizga kirib siz uchun jon beradilar", deb, xabar yetkazdi.

"...Qasamki, agar sizlar (Madinadan) quvib chiqarilsangiz, albatta, bizlar ham sizlar bilan birga chiqib keturmiz va sizlar(ga qarshi harakat)da hech qachon hech kimga itoat etmasmiz. Agar sizlarga qarshi jang qilinsa, albatta, bizlar sizlarga yordam berurmiz" (Hashr surasi, 11-oyatlar) [1:547].

Sizlarga Qurayza va G'atafon qabilalari yordam beradilar deganida ular quvvatni his qildilar Rasululloh (alayhissalom)ga: "Biz bu yerdan chiqib ketmaymiz, qo'lingdan kelganini qilaver", deyishdi. Baland bayroqni olib Bani Nazirni qamal qilish uchun yurdilar. Olti kechadan so'ng taslim bo'ldilar. Bani Nazirni Qurayza qabilasi yordamsiz qoldirdi. Munofiqlar sardori va ularning o'rinbosarlari ularga xiyonat qildi:

"(Ular) xuddi shaytonning o'xshashidirlar. Qaysiki, u insonga: "Kofir bo'li" deydi. Bas, qachonki, (inson) kofir bo'lgach, (shayton unga): "Men sendan bezorman", deydi" (Hashr surasi, 16-oyat) [1:547].

Rasululloh (alayhissalom) ularga o'zlari bilan quroldan tashqari xohlagan narsalari, yuklari va mollarini olib ketishga ruxsat berdilar. Kuchlari yetgan narsani oldilar va hatto uylarining eshiklari, derazalari, taxtalari va tomlarining xodalarini yuklab olib ketishdi.

"Ular uylarini o'z qo'llari va mo'minlarning qo'llari bilan buzar edilar. Bas, ey, ko'z egalari! (Ulardan) ibrat olingiz!" (Hashr surasi, 2-oyat) [1:545].

Bundan tashqari, Bani Qurayza, Bani Qaynuqo g'azotlarida ham elchilar yuborilib, tomonlar xabar almashgan.

Hudaybiya sulhi voqealari atrofida Madina bilan Makka, aniqrog'i, Quraysh o'rtasida ham elchi almashinib, Usmon ibn Affon (r.a.) Qurayshga elchi qilib yuborilgan.

Rasululloh (alayhissalom) bilan qurayshliklar o'rtasidagi hodisa haqida so'z yuritiladigan bo'lsa, Budayl ibn Varqo Rasululloh (alayhissalom)ga Quraysh jangga tayyorgarlik ko'rayotganini va Baytul Haramga kirgazmaslik harakatini qilayotgani xabarini berdi. Rasululloh (alayhissalom) unga urush uchun emas, faqatgina Umra ziyorati uchun kelganliklarini aytdilar. Shuningdek, yarashev va tinchlikka tayyor ekanliklari, agar bundan Quraysh bosh tortsa, ular jangda boshlari kesilgunicha yoki Alloh O'z ishini amalga oshirguncha kurashishlarini aytdilar.

Budayl qaytganida Qurayshga bor gapni aytdi. Ular Mikraz ibn Hafsn elchi qilib yubordilar. Rasululloh (alayhissalom) Budaylga nima degan bo'lsalar, unga ham shuni aytadilar. So'ngra qurayshliklar habashlar raisi Hulays ibn Ikrimani yubordilar. U musulmonlarga yaqin kelganida Rasululloh (alayhissalom) ularga: **"Bu kishi diniy odatlarni hurmat qiladigan kishidir. Qurbonlikka atalgan hayvonlarni haydab uni qarshi olinglar"**, dedilar. Uni "Labbayka"ni aytib kutib oldilar. Hulays bu holatni ko'rganida: "Subhanalloh, bunday odamlarni Baytululloh ziyoratidan to'smaslik kerak. Lahm, Jizom, Himyar qabilalari ziyorat qilishadi-yu lekin nega Abdul Muttalib o'g'lini ziyoratdan to'sadilar. Ka'ba Robbiga qasam, Quraysh halokatga uchrabdi. Albatta, bu qavm Umra qilish maqsadida kelibdi", dedi. So'ng Quraysh oldiga qaytib bu gaplarni aytganida ular: "Mana bu yerga o'tir. Sen sahroyisan va senda hiyla nayrang yo'qdir", deyishdi.

So'ng Quraysh ahli ular oldiga Urva ibn Mas'ud Saqafiyni yubordi. Rasululloh (alayhissalom) unga ham Budaylga aytgan gaplarini aytdilar. Urva: "Ey Muhammad, har turli yig'inda kishilar sening atrofingda to'plani-shadi. Sen ularga ishonib o'z qavmingni qirib tashlaysanmi? Men aniq bilamanki, bu kim-salar urush boshlansa seni dushman qo'liga tashlab qochadilar", dedi. Abu Bakr (r.a.) unga g'azab qilib: "Ey Urva, bu gapingga sen Lot nomli butingni tishlabsan. Biz u zotni tashlab qochamizmi?!" deb javob berdilar.

Urva gaplashyotganida Rasululloh (alayhissalom)ning soqollarini ushlab turar edi. Lekin Mug'iyra ibn Shu'ba uning qo'lga qilich dastasi bilan urib: "Rasululloh (alayhissalom)ning soqollaridan qo'lingni tort!" dedi.

Urva sahobiyarlarni Rasululloh (alayhissalom)ga ko'rsatgan hurmat-ehtiromini ko'rdi. U Quraysh ahlini oldiga qaytganida ularga: "Ey Quraysh qavmi, Kisro, Qaysar va Najoshiy podshohlarini oldiga borganman, lekin Muhammadga sahobiyarlari ko'rsatgan izzatni boshqasida ko'rmaganman. Allohga qasamki, agar tupursa uning hurmatidan tupugini ham yerga tushirmasdan yuz-qo'llariga surishadi. Agar biror ishga buyursa, o'sha ishga shoshilishadi. Agar tahorat qilsa, suv quyib berish uchun bir-birlari bilan tortishadilar. Uning huzurida past ohangda gapirishadi va uning yuziga tik qaramaydilar. U sizga to'g'ri taklifni qildi, uni qabul qiling", dedi. Bu muzokaralar olib borilayotgan bir vaqtda bir guruh bemulohaza ish yuritadigan yoshlar tunda sezdirmay borishdi. Ular yetmish yoki saksonta bo'lib Taniym tog'i oldiga musulmonlar to'xtagan joyda to'xtab, musulmonlar bilan sulhni buzishga harakat qilmoqchi edilar. Lekin musulmonlar ularni qo'lga olib Rasululloh (alayhissalom) huzurlariga olib bordilar. Rasululloh (alayhissalom) ularni afv etdilar. Bu holatda Quraysh qalbiga qo'rquv solib qo'yish ham mumkin edi. Shu onda Alloh taolo ushbu oyatni nozil qildi:

"U (Alloh) Makkaning ichkarisida (kechgan jangda) ularning (Makka mushrikklarining) ustidan sizlarni g'alaba qil-

dirganidan keyin ularning qo'llarini sizlardan, sizlarning qo'llaringizni ulardan to'sgan (jangni to'xtatgan) Zotdir. Alloh qilayotgan amallaringizni ko'rib turuvchidir" (Fath surasi, 24-oyat) [1:514].

Bu vaqtda Rasululloh (alayhissalom) faqatgina umra maqsadida kelganlarini bildirish uchun Qurayshga Usmon ibn Affon roziyallohu anhuri elchi qilib yuborib, Makkadagi mo'min va mo'minalar oldiga borib fath yaqin ekanligi va Alloh Islom dini-dagilarni qo'llab, Makkada iymonli kishi yashirinmasligini aytib ularni xursand qilishni buyurdilar.

Usmon roziyallohu anhu Abon ibn Sa'dning himoyasi ostida Makkaga kirib, xabarni Qurayshga yetkazganida, unga Baytullohni ziyorat qilishni taklif etishdi. U esa Rasululloh (alayhissalom) man qilingan bo'la turib tavof qilishdan bosh tortdi.

Qurayshliklar Usmon roziyallohu anhuri hibsga oldilar. So'ngra rad javobini yuborishganida musulmonlar orasida Usmon roziyallohu anhuri qatl qilingani haqida gap tarqaldi. Elchining o'ldirilishi bu – urush degani. Rasululloh (alayhissalom) bundan xabar topganlarida: "Bu gap rost bo'lsa, Quraysh bilan jang qilmasdan ketmaymiz", dedilar.

Ilk islom davrida, xususan, Rasululloh (alayhissalom) davrlarida o'zgaralar bilan olib borilgan aloqalar faqat tinchlik maqsadida bo'lgani, e'tiqodi, kelib-chiqishidan qat'i nazar, diplomatik aloqa olib borilgan har bir taraf hurmat qilingani, bu esa, keyingi davrdagi davlat rahbarlari uchun ham asos bo'lib xizmat qilgani bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2021.
2. Abu Ubayd. Kitob al-amvol. – Qohira: Dorul kitabil arabiy, 1975.
3. Ibragimova N. Ilk islom davrida elchilik munosabatlari. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2017.
4. Muhammad Nodir Attor. Adabul liqoya fi hayatid diblumasiiy va hululiha fit turosil islomiy. – ar-Riyod: Dor al-Mayman.
5. Ahmet Yaman, Islâm Hukukunda Uluslararası İlişkiler, Ankara, 1998.
6. Voqidiy. Futuhush Shom. J.1. – Qohira: Dorul kitobil arabiy, 1978.
7. Voqidiy. Kitob ur-rida. (Hamidulloh tahqiqi). – Parij: 1989.



Rashid ZOHID

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti filologiya
fanlari doktori, professor
e-mail.: zokhidov@navoiy-uni.uz*

NAVOIY KONSEPTUAL TIZIMIDA MA'RIFAT TUSHUNCHASI

THE CONCEPT OF ENLIGHTENMENT IN THE NAVOI CONCEPTUAL SYSTEM

Alisher Navoiy adabiy merosining o'rganilish tarixiga nazar solinsa, asosan matn tashqarisidagi, ya'ni muallifning hayoti va ijodi bilan bog'liq turli sanalarni aniqlash, tarixiy-ijtimoiy ma'lumotlar tahlili izchil va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilgani, ayni maqsad yo'lida ko'p natijalarga erishilganiga guvoh bo'lamiz. Lekin shoir yashagan davr, u bilan munosabatga kirishgan tarixiy shaxslar, ijtimoiy muhitni qanchalik tafsilotlari bilan o'rganmaylik, toki har bir bayt, misra, so'z orqali matn ichiga kirib, juz' va butun yaxlitligini anglamagunimizcha, Navoiy fenomenining asl haqiqati ochilmay qolaveradi. Ijodkor haqida uning so'zi eng so'nggi xulosadir. Hech bir inson Navoiy shaxsini Navoiyning o'zidek yaxshi bilmaydi. Navoiyning o'zi esa u yozib qoldirgan baytlarda, satrlarda yashayapti. Matnni qanchalik o'zlashtirsak, Navoiyning tilini shunchalik yaxshi bilamiz, shunchalik Navoiyni taniymiz. Porso Shamsiyev, Izzat Sulton, Hamid Sulaymon, Alibek Rustamiy, Aziz Qayumov, Botirxon Valixo'jayev, Abduqodir Hayitmetov, Muslihiddin Muhiddinov, Najmiddin Komilov, Yoqubjon Is'hoqov, Anvar Hojiahmedov, Matnazar Abdulhakim, Vahob Rahmonov, Ibrohim Haqqul, Shuhrat Sirojiddinov, Nusratulla Jumaxo'ja kabi olimlarimiz ayni maqsad yo'lida qadam tashlab, muayyan natijaga erishgan, XX-XXI asr navoiyshunosligida o'z o'rnini va ovozigacha ega mutaxassislardan

sanaladi. To'g'ri, mazkur olimlarning matn aniqligi va talqini borasida matnga munosabat va yondashuv shakllarida o'zaro farqli jihatlar kuzatiladi. Lekin ularning barchasi matn ichiga kirish, matnni o'zlashtirish ishtiyorida barobar. Aslida, shu ishtiyok bo'lgani uchun ham biror bayt yo g'azalni sharhlashga ehtiyoj tug'iladi, sharhlash jarayonida oxirigacha shu ishtiyokning davom etishi tadqiqotning natijasini belgilaydi.

Navoiy konsepsiyasida ilmiylik omili. Modomiki, matnni to'laqonli anglashda muallif konsepsiyasidan xabardor bo'lish haqida so'z yuritar ekanmiz, tajribalarda hosil bo'lgan matn ichiga kirish malakasiga murojaat qilamiz. Matnni anglashda matn tashqarisidagi ob'yektiv borliq va real voqelikning bevosita ta'sirini e'tirof etgan holda aytamiz: muayyan mumtoz matnni to'laligicha uqish va o'zlashtirishda matn ichidagi badiiy voqelik birlamchi e'tibordagi masala hisoblanadi. Matniy voqelikni muallifning shaxsiy qarashlaridan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda Sharq ma'naviyati tarixida markaziy o'rin egallagan, xususan, o'zbek adabiyotining mumtoz maqomga ko'tarilishini belgilagan Alisher Navoiyning shaxs va adib sifatidagi konsepsiyasini belgilovchi omillaridan biri ilmiylikdir. Ilm tabiatan aniqlikni taqozo etadi. "Ilmiy haqiqat" deb taqdim etilayotgan xulosalar taxmindan qanchalik xoli bo'lsa, ilmiylik sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Shu prinsipga ko'ra, Navoiy qarashlarini o'rganish metodologiyasi uning e'tiqodidan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki Navoiy Sharqning bir musulmon kishisi sifatida e'tiqodiy sog'lom muhitda dunyoga keldi, shu muhitda voyaga yetdi, shu muhitda kamol topdi. Uning narsa-hodisalarga munosabati ilmiy fundamental asosda, ya'ni ilohiy kalam – Qur'oni karimdan oziqlanib shakllandi. Bu muqaddas Kitobning qanday nozil bo'lgan bo'lsa, shundayligicha bitta harfi ham o'zgarmasdan saqlanib kelayotgani Payg'ambar zamonidan to bugungacha uzluksiz silsila bilan bog'langan tarixiy hujjatlarda to'la aks etgan. Tarixiy hujjatlarning

ishonchliligi rad qilib bo'lmis ilmiy dalillar bilan isbotlangan. Har bir oyatning nozil bo'lish o'rne, vaqti, sababi insoniyat tarixida hayotining barcha jihatlari eng kichik nuqtalarigacha to'la qayd etib borilgan yagona shaxs Muhammad (*alayhissalom*)ning hadislarini orqali o'ta aniqlik va butun tafsilotlari bilan o'rganilgan. Buyuk vatandoshimiz, muhaddislar imomi Muhammad ibn Ismoil Buxoriy 600 ming hadis to'plagan. Hadislarni jamlashda 90 ming kishi huzurida bo'lgan. Ushbu hadislar ichidan saralangan 7 mingdan ortiq sahih hadisni o'n olti yilda yozib tugatgan mashhur الجامع الصحيح (*"Sahih hadislar to'plami"*) kitobiga kiritgan. Savol tug'iladi: nima uchun shuncha yillik mehnat bilan to'plangan 600 ming hadis ichidan faqat 7 ming hadisgina kitobga kirdi? Sababi, qonuniy ravishda Qur'onning sharhi maqomida e'tirof etilgan manba – hadislar har qanday shubhadan, taxminlardan batamom xoli bo'lsin. Zero, har bir fan sohasida qo'yilgan bosh masalaning yechimlari Qur'onida va

hadislarda bevosita yoki bilvosita mavjud ekan, tafsir, hadis, aqida, fiqh, usuli fiqh, siy-rat ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar o'rganilayotgan mavzularga nihoyatda mas'uliyat bilan yondashishga majburdir. Demak, barcha fanlar sohasidagi izlanishlar har qanday taxminu gipotezalardan mutloq xoli ekani ilm ahli tomonidan to'la tan olingan mustahkam ilmiy asosga qurilsagina, tom ma'noda haq qaror topadi. Ilohiy Kalom shunday ishonchli manba bo'lgani uchun ham uning haqiqatidan ilhomlangan Navoiy kabi adiblar adabiy olamda mislsiz ijodiy yutuqlarga erishdilar. Olamga, odamga munosabatda paydo bo'lgan sog'lom ilmiy mezon tufayli to bugungacha ulkan kashfiyotlar davri davom etmoqda. Navoiy tafakkurining tiniqligi, tasvirlarining nihoyatda aniqligi, ma'nolarining mantiqiy ravonligi ham muallif qarashlari tizimining muntazam tartibga bo'yinsungan ilmiy mezon doirasida shakllanganining natijasidir.

Annotatsiya. Maqolada matnni tushunish va tushuntirishning sifatini belgilovchi asosiy omillar, muallifning narsa-voqealarga ob'yektiv va sub'yektiv qarashlarini o'rganishning ahamiyati, xususan, mumtoz adabiyotda ma'rifat tushunchasining o'rne yoritilgan. Alisher Navoiyning shaxs va adib sifatidagi konsepsiyasini belgilovchi ilmiylik mezoni muallif qarashlarining poydevorini tashkil qiluvchi muhim sabablardan biri ekani tahlilga tortilgan. Navoiy konseptual tizimida ma'rifat tushunchasining o'rne masalasi "Mahbubul qulub" va "G'aroyibus sig'ar" devonidagi 201-g'azal sharhi orqali ochib berilgan. Mumtoz matn tahlilini bosqichma-bosqich izchillik bilan matn ichkarisiga yo'naltirish usullari ko'rsatilgan. Poetik matn muammolari matn voqeligidan tashqaridagi hodisaga aylanib qolmasligi uchun zarur bo'lgan yondashuvlar silsilasi aniqlangan.

Abstract. The main factors that determine the quality of understanding and explanation of the text, the importance of studying the author's objective and subjective views on events, and in particular, the role of the concept of enlightenment in classical literature are highlighted in the article. It is analyzed that the criterion of scientificity, which defines the concept of Alisher Navoi as a person and a writer, is one of the important reasons that form the foundation of the author's views. The issue of the role of the concept of enlightenment in Navoi's conceptual system is revealed through the commentary on ghazal 201 in the book "Mahbubul Qulub" and "Garoyibus Sigor". A step-by-step approach to textual analysis is presented. A series of approaches necessary to prevent poetic text problems from becoming a phenomenon outside the reality of the text has been identified.

Kalit so'zlar: konsepsiya, ilmiylik mezoni, ma'rifat tushunchasi, nazariy asos, tizimli yondashuv, matn ichkarisi, ilmiy haqiqat, matn voqeligi.

Key words: concept, criterion of scientificity, concept of enlightenment, theoretical basis, systematic approach, inside text, scientific truth, material reality.



Navoiy konseptual tizimida ma'rifat tushunchasining o'рни. Sharq mumtoz adabiyotini, xususan, Alisher Navoiy adabiy merosini "ma'rifat" tushunchasidan xoli tasavvur qilib bo'lmaydi. Sababi, mumtoz adiblarning ijodiy kredosi – maslagini belgilagan, millatimiz ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lgan ming yillik adabiy merosimizning asrlar osha qiymatini oshirib kelayotgan bosh omil ma'rifatdir. Arabcha "ma'rifat" so'zining lug'aviy ma'nosi – *tanimoq, bilmoq*. Ammo *ilm* so'zi anglatgan *bilish* bilan *ma'rifat* so'zi anglatgan *bilish* o'rtasida farq bor. *Ma'rifat* deganda – narsaning belgilarini (*sifatlarni*) idrok qilish tushunilsa, *ilm* orqali *bilish*da narsaning o'zini (*zotni*) idrok qilish tushuniladi. Boshqacharoq aytilsa, ilgari xabardor bo'lmagan narsani keyin bilish ma'rifatdir. Shuning uchun *ma'rifat* so'ziga o'zakdosh *orif* sifatini Allohga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Chunki bexabarlikdan so'ng bilim hosil bo'lishi Yaratuvchiga emas, yaratilganlarga xos sifatdir. Navoiy "Hayratul abrор"ning avvalgi munajatida bu haqda deydi: "Ma'rifating kim qila olmay sifat / Qilding ani orifi ul ma'rifat" [2:8]. Ya'ni, ma'rifatingni sifatlab tushuntira olmayman, lekin Sen insonni o'sha ma'rifatni hosil qiluvchi orif etib yaratding.

Qadim manbalarda, xususan mumtoz adabiyotimizda *ma'rifat* lafzi orqali *Yaratuvchini tanish* tushunchasi ifodalangan. Keyinchalik tilimizda *ma'rifat* so'zining ma'no doirasi yanada kengaydi. Asl taqozo qiladigan sifatlar aslning o'rnida iste'mol qilina boshladi. Masalan, "ma'rifatli kishi" degan so'zdan endi bevosita *Allohni ongli ravishda anglash* sifati tushunilmaydi. Balki, zamonamiz kishisining ma'rifati – ko'p ma'lumotlardan xabardor, rasmiy odob etiketlarini o'zlashtirgan, ya'ni bilimli, madaniyatli, ziyoli bo'lishdan iborat, degan qarash bugun me'yorga aylangan.

Ma'rifat – taraqqiyotning nazariy asosi. Insoniyat tamadduni tarixiga nazar tashlansa, Odam farzandining foniylik va abadiylik aro o'z-o'ziga bergan: "men kimman...", "qayerdan keldim...", "qayerga keta-

man..." kabi mangu savollarga yechim topish yo'lidagi tinimsiz izlanishlari, turli davrlardagi turlicha adashish, xatolarga qaramay, har kim har xil yo'ldan yagona natijaga kelishi barcha rivojlanishlarning asosi ekanini kuzatish mumkin. Haqni tanitadigan ma'rifat ilmi o'sha natijaning nazariy asosidir. Alisher Navoiy "Mahbubul qulub" asarining 16-faslida shoirlarni tabaqaga ajratar ekan, ularning eng yuqori darajadagilarini ayni nazariy asos bilan o'lchaydi: "Avvalg'i jamoat nuqudi kunuzi ma'rifati ilohiydin g'aniylar va xalq ta'rifidin mustag'niylardur. Ishlari maoniy xazoinidin ma'rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm termak. Nazm adosi bag'oyat arjumand va benihoyat sharif va dilpisand o'ldug'i uchun oyoti kalomda nozil bor" [4:24]. Ya'ni, shoirlarning eng baland darajadagilari shunday zotlarki, ular ilohiy ma'rifat (*Haqni tanish*) xazinasini qo'lga kiritgan, xalqqa o'zini tanitishdan behojat kishilardir. Ularning ishlari ma'rifat xazinasidan ma'nolar gavharlarini termok va elga fayz yetkazish uchun bu gavharlarni vazn ipiga nazm qilib tizmoqdir.

Navoiy qarashlarining amaliy taqdimi. Majoz adabiy matnning yetakchi unsurlaridan biri, balki badiiy tafakkurning asl ko'rinishidir. Chunki inson aqli tabiatan avvali va oxiri yo'q borlikni, abadiyatni qamrashga qodir emas. Lekin u aqliy mantiq bilan bo'lmasada, loaqal, hissiyot bilan chegarasizlikni tasavvurida jonlantirishni xohlaydi, buning birdan-bir yo'li esa *majoz* ekaniga shubha yo'q. Arabcha "majoz" so'zining lug'aviy ma'nosi – "o'tish", "ko'chish" bo'lib, istilohda asliy ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llangan lafz *majoz* deyiladi [1:284]. Bunda asliy ma'no bilan ko'chma ma'no o'rtasida aloqa va ko'chma ma'noda ishlatilayotgan so'zning asliy ma'nosi tushunilib qolishidan to'sadigan sabab bo'lishi lozim [7:285]. Ta'rif yanada tushunarli bo'lishi uchun qoida va uni taqozo qiluvchi shartlarni g'azalning matla' bayti misolida ko'rib chiqamiz:

*Tirguzur har xastani bir noz ila ul dilnavoz,
Chun yetar men xastag'a navbat, qilur yuz
nav' noz* [3:173].

Bayt “tirguzur”, ya’ni tiriltirur, degan fe’l bilan boshlanmoqda. Tiriltirish ham, o’ldirish ham yolg’iz Yaratuvchi Zotga xos fe’l. Lekin bu fe’lning egasi Qur’on va hadislarda kelgan Allohning ism va sifatleri bilan emas, balki “ko’ngilni ovlovchi, yoqimli, suyukli” ma’nosidagi “dilnavoz” so’zi bilan ifodalanmoqda. Hadislarda Alloh taoloning 99 ta go’zal ismlari zikr qilingan. Umuman olganda, bu ismlarning barchasida Yaratuvchi Zotning O’z bandalariga nisbatan mehribonlik ma’nosi mujassam. Ayniqsa, ar-Rahmon, ar-Rahim, al-G’afur, ar-Rauf, al-Afuv ismlarida Haq taoloning bandalariga nisbatan cheksiz rahm-shafqati aks etsa, xossatan, al-Vadud ismi orqali solih bandalarini yaxshi ko’ruvchi va bandalari tomonidan seviluvchi ma’nosi tushuniladi. Demak, al-Vadud ismi anglatgan ma’no bilan “dilnavoz” so’zining ma’nosida o’zaro aloqadorlik bor. Endi “dilnavoz” so’zining asliy ma’nosiga kelsak, bu ma’no Yaratuvchiga emas, yaratilmishlarga, ya’ni insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ammo baytda kelgan “dilnavoz” so’zini o’zining asliy ma’nosida tushunishimizga matndagi “tirguzur” fe’li mone’lik qilmoqda. Modomiki, inson tiriltirishga qodir emas ekan, demak, “tirguzur” fe’lining egasi vazifasida kelgan “dilnavoz” lafzi matnda al-Vadud sifati o’rnida majozan ishlatilayotgan bo’ladi. Balog’at ilmida bu aqliy majoz (المجاز العقلي) deyiladi [8:90]. Qachonki, gap tarkibida kelgan fe’l – ish-harakatning haqiqiy bajaruvchisi chetda qolib, mazkur ish-harakatning nisbati boshqa bajaruvchiga berilsa, aqliy majoz yuzaga chiqadi. Agar misra mazmunini: “al-Vadud sifatiga ega Zot tiriltirur” desak, bu haqiqiy majoz (المجاز الحقيقية) [8:90] bo’ladi. Ya’ni, bu ifodada tiriltirish fe’li haqiqatda shu fe’lni bajaruvchi Zotga bog’landi.

“Tirguzur har xastani bir noz ila ul dilnavoz” misrasidagi ega va kesim aniqlandi. Ikkinchi darajali gap bo’laklarini haqiqiy majozga muvofiq ta’vili quyidagicha: xastalik – jismoniy sog’lomlik yo’qligining belgisi, balki natijasi, gunohkorlik – ma’naviy sog’lomlik yo’qligining oqibatidir. Har ikki holatni birlashtiruvchi nuqta – halokatga

olib boruvchi o’zlik, zaiflik. Demak, matnda aytilgan “xasta”ni gunohkor banda desak bo’ladi. Gunoh insonni halokatga yaqinlashtiradi, gunohdan tavba qilish esa uni Allohning rahmatiga sazovor etadi. Aslida tavba ham Haq taoloning in’omi, bandasiga marhamatidir. Allohning marhamati chekchegarasiz darajada ulkan bo’lishi bilan birga unda shunday bir nafislik borki, har qanday dag’al, gunohdan qotib ketgan toshmehr qalbga ham yo’l topadi. So’nib borayotgan ko’zlarga mehr va erkaligini yog’dirib chaqnatadi, tiriltiradi. Demak, misra davomida kelgan forscha “noz” so’zining o’zbek tiliga o’zlashgan “injiqlik, erkalik” ma’nolaridan tashqari “huzur-halovat, nozik, nafis, muloyim” ma’nolari ham borligini hisobga olsak [11:600], matnda kelgan “noz” so’zini majozan “Allohning rahmati” deb tushunsak bo’ladi. Endi misra ma’nosi taxminan shunday ko’rinish oldi: “Bandalarini yaxshi ko’ruvchi va bandalari tomonidan seviluvchi al-Vadud sifatiga ega Zot gunohlar dardidan deyarli o’lib bo’lgan xasta bandasini rahmat nazari bilan bir erkalagan edi, u shu zahoti darddan forig’ bo’lib, oyoqqa qalqdi, Alloh uni tiriltirdi”. Ammo misradagi “tirguzur” so’zini mubolag’a san’atiga daxldor, desak, ahvol butunlay o’zgaradi. U holda “jonlantirar, shifo berar” ma’nosida mubolag’a bilan ishlatilayotgan bu fe’lning foili (*bajaruvchisi*) Xoliqdan maxluqqa, ya’ni Yaratuvchidan yaratilmishga ko’chib, bundan yo payg’ambarimiz Muhammad (*alayhissalom*) yo pir (*ustoz*) yoki ma’shuqa iroda qilingan bo’ladi. Dilni o’ziga rom qiluvchi “dilnavoz” so’zidan murod payg’ambarimiz Muhammad (*alayhissalom*) yo pir (*ustoz*) yoki ma’shuqa bo’lgan taqdirda ham bayt ma’nosi buzilmaydi, aksincha chuqurlashib, go’zallashadi. Chunki mubolag’a – badi’ ilmining ma’noni chiroyli qilish (المحسنات المعنوية) qismiga kiruvchi badiiy san’atlardan biridir [8:207]. Mubolag’a san’atining aqlga va odatga to’g’ri keladigani – tablig’, aqlga to’g’ri kelishi mumkin, ammo odatga to’g’ri kelmaydigani – ig’roq, na aqlga, na odatga to’g’ri keladigani – g’uluv deyiladi. Demak, bu o’rinda mubo-



lag'a san'atining eng kuchli turi ishlatilgan. Ya'ni, bir insonning boshqa insonni tiriltirishi na aqlga, na odatga to'g'ri keladi. Lekin butun insoniyatga najot elchisi qilib jo'natilgan Allohning oxirgi payg'ambari Muhammad (*alayhissalom*)ning e'tiqodi va xulq atvorida shunday go'zal namunalar – "(Ey mo'minlar), **albatta sizlar uchun – Alloh va Oxirat Kunidan umidvor bo'lgan hamda Allohni ko'p yod qilgan kishilar uchun – Allohning Payg'ambarida** (u zotning iymon-e'tiqodi va xulq-atvori) **da go'zal namuna bordir**" ("Ahzob" surasi, 21-oyat.) [10:608] ki, ulardan ozgina boxabar inson Rasululloh (*alayhissalom*)ni suymasligi, bu siyratdan dardiga darmon topmasligi mumkin emas. Tasavvur qiling, Payg'ambar (*alayhissalom*) qilgan bir amalni xolis bajardingiz, u zot bu ishingizni ma'qullagan ko'yi go'yo sizga bir nazar solgandek bo'ldilar. Bu nazar har qanday og'ir xastani oyoqqa qalqtirmaydimi, bu xayoldan misoli o'likka jon kirgandek bo'lmaydimi?! Shuningdek, pir – ustozning yoki ko'ngil bergan kishingizning sizga nazari ham albatta dardingizga darmon bo'ladi, kayfiyatingizni ko'taradi. Navoiy bir qit'asida: "*Zohido, bu ishqdin man' aylama oshiqnikim / Gar sen idrok aylasang, ayni haqiqatdur majoz*" – degan [5:513]. Ya'ni ey zuhdu toat bilan nomi xalq ichida mashhur bo'lgan zohid! Bilgilki, bu vositalar oshiq uchun Haqqa yetish yo'lidagi ko'prikdir, sen zohirga qarab hukm qilma, u haqiqatdan qilcha ham chetga chiqqani yo'q, balki ayni maqsad yo'lidadir.

Zohido, har dam demakim mazhabingda bor qusur,

Qaysi masjidida qilib erdim sening birla namoz?! [3:173].

Alisher Navoiyning Islom e'tiqodidagi bir musulmon ekanini ta'kidlagan holda mazkur baytning ikkinchi misrasini tafviq tushunchasi bilan izohlashga harakat qilamiz. "Tafviq – Alloh taoloning O'zi yaxshi ko'rgan va rozi bo'lgan narsasiga bandasining fe'li, amalini muvofiq qilishidir" [6:133]. G'azal voqeligida kechayotgan "muolaja navbati men xastaga yetdi-yu, tabibning e'tiboridan

chetda qolyapman" degan mazmundagi zorlanish, aslida, iqrordir. Ya'ni, u o'zining amali bilan Yaratuvchining muhabbati, roziligi o'rtasidagi muvofiqlik to'la yetilmaganini tan olmoqda. Hatto bandaligini namoyon etib shoshilmoqda, lekin to'xtamayapti, tinimsiz o'zini Yaratuvchisidan yetadigan tafviqqa shaylamoqda. Buni ushbu hadis ham tasdiqlaydi: "Albatta, banda Allohga (*zorlanib*) duo qiladi, ulug' va qudratli Zot uning bu amalini yaxshi ko'radi va deydi: "Ey Jabroil, bandamning bu hojatini ravo qil, (*lekin*) uni (*biroz*) kechiktir. Chunki Men uning ovozi davomli eshitishni xush ko'raman". Alloh taolo bandasini turli holatlar bilan sinaydi. Banda esa sinovlardan omon chiqishi uchun Parvardigoriga yolvoradi, munojotlar qiladi. Demak, biz musibat deb sanayotgan narsa, aslida, Alloh taolo bilan bog'lanish uchun bir imkoniyat, muammolarimizning yagona yechimidir. Bu xususda tobeinlardan Sufyon ibn Uayyna (*rahimahulloh*): "Bandaning yomon ko'rgan narsasi yaxshi ko'rgan narsasidan xayriroqdir. Chunki yomon ko'rgan narsa uni duo qilishga undaydi, yaxshi ko'rgan narsasi esa uni duodan chalg'itadi", degan. Bitta bayt misolida kechgan bu ichki jarayon, ruhiy olam tasviri Navoiy badiiy tafakkurini belgilaydigan bosh mezon, balki odatiy qonuniyatdir. Juda ko'p o'rinlarda shoir faqat o'zi va Yaratgangagina ayon ruhiy holatlarini tasvirlar ekan, ishi faqat zohir bilan mashg'ul bo'lishdan iborat "zohid" obrazi doimo qarshisida namoyon bo'ladi. Shunda shoir tashqarida abgor ko'ringan holatining ichkarida tamoman o'zgacha ekanini o'sha "zohid"ga munosabati orqali bildiradi va: "Ey zohid, har dam mening bu holimdan hayratga tushib, sening tutayotgan yo'lingda bir nuqson bor, demagil. Qaysi masjidida sen bilan namoz o'qigan edimki, mening nuqsonimni ko'rgan bo'lsang?!" – deb, zohir ahlining asl tabiatini ham fosh etadi.

Ishq aro ko'nglumni ul yuz mehridin man' aylamang

Kim, emas mumkin samandar o'tdin etmak ehtiroz.

Bir kun ohimdin o'shul badmehr ko'ngli yumshag'ay,

Nechakim po'lod erur qattiq topar o'tdin gudoz [3:173].

Mazkur baytda Navoiy arzi hol etib, zohir ahli ming uringani bilan bu muhabbat sirini anglay olmaslarini oshkor aytishga jur'at topadi va: "Ishq o'tiga o'zini urgan ko'nglimni u yuzdagi nur manбайдan to'smang!" – deyish-gacha boradi. Bu ishning mumkin emasligi-ni olovda paydo bo'lib, olovda yashaydigan afsonaviy samandar qushini o'tdan saqlab bo'lmasligi bilan izohlaydi. G'azal matlaida izhor etilgan zorlanish keyingi baytda beozor "yozg'irish"ga aylanadi. Nima uchun beozor? Chunki so'rovchi beruvchiga yon bosa boshladi. Go'yo mehrga zor so'rovchi mehr egasini "badmehr" deb ayblagandek bo'ldi, ammo, alaloqibat, har qanday tosh-mehr qalb ham yumshashi mumkinligini tan oldi. Faqat buning uchun mehr tolibi yor hajrida, bamisoli, po'latni eritadigan o'tlig' ohlar urib, o'zini Allohdan yetadigan tavfiqqa tinimsiz hozirlashi kerak edi. Lekin qani bunga toqat, banda sabrsiz, hukm etishga shoshgani shoshgan:

Yo rab, oxir netgamen ul sho'xi badxo' bir-lakim,

Zulm etar, qilsam tazallum, noz etar, qil-sam niyoz.

Charxi minoyiy xati sirrig'a hamroz ista-ma

Kim, bu xat mazmunidin dam urmay o'tmish ahli roz [3:173–174].

Zulmidan nolisam, zulmini kuchaytiradi, yalinsam, battar yalintiradi, u bilan qanday kelishaman? – deb bu olamning o'jar o'yinlaridan Parvardigoriga shikoyat qiladi.

Shunda g'oyibdan nido keladi: "Falakning moviy rang xatidagi yashirin sirga sirdosh bo'lishni istamay qo'yaqol. Chunki sendan oldingi sir ahllari ham bu xat mazmunidan churq etmay o'tishgan". Falakning moviy rang xati bu – osmon. Osmon yuzi turli-tuman g'aroyib xatlarga to'la kitobning ochilgan sahifasiga o'xshaydi. Bu xat sirriga sirdosh bo'lishga munosib ko'rilgan ahllar – payg'ambarlardir. Ular sirdosh bo'lish-

ga munosib ko'rildi, lekin sirdan to'la voqif bo'lish haqqi sir Egasiga tegishli edi, buni ular angladilar, bildirilganidan ortiqchasiga intilmadilar, taqdirga tan berdilar.

Ey Navoiy, sen base oluda domansen, ma-gar

Ishq ul pok ila o'ynarsenki, derlar pokboz [3:174].

An'anaga ko'ra Navoiy g'azal maqtaini nafsiga malomat yog'dirishdan boshlaydi, o'zini "oluda doman", ya'ni "etagi bulg'angan" degan tahqiro muz ibora bilan ayblaydi. Bu iborani majoziy ma'noda tushunsak, taxminan shunday bo'ladi: *sen nazaringni, fe'ling-ni pok tutib, muhabbatda xolis bo'lish da'vo-sida yo'lga chiqqan soliksan, nega yarim yo'l-da dunyo og'ushiga o'zingni otding, o'tkinchi istaklar loyiga botding, ixlosingni arzimas matolarga sotding?! Balki bu izohlarda bir oz mubolag'a bordir, har holda, shoir ayni o'rinda behuda qo'llamagan "oluda doman" so'zi bizni shunday taxmin qilishga undadi. Misra oxirida kelgan "magar" so'zi ushbu baytni ikki xil talqin qilishga imkon beradi. Agar bu so'z shart ma'nosidagi "garchi" bog'lovchisi o'rnida qo'llangan deb e'tibor qilinsa, maqta' to'laligicha nafs malomati bilan xulosalangan bo'ladi, ya'ni shunday: "Ey Navoiy, garchi pokiza ishq bilan o'yin qurib, "pokboz – halol o'ynovchi" degan nom qozongan bo'lsang-da, bilib qo'y, dunyo muhabbati bilan etaging bulg'angan..!" G'azalning ayni tarzda bandalik, xokisorlik e'tirofi bilan xotimalanishi mantiqan to'g'ri, Navoiy e'tiqo-diga muvofiq yechim. Ammo odatda mum-toz matnlarda istisno ma'nosini ifodalovchi "magar" so'zi zidlovchi bog'lovchi vazifasida keladi. Ya'ni, o'zidan oldingi jumla bilan o'zi-dan keyingi jumlaning qarama-qarshilik asosi-da bir-biriga bog'laydi. "Magar"dan oldingi jumla ma'nosi – shoirning o'z-o'zini malo-mat qilishi, o'zining yaramas kishi ekaniga iqror bo'lishidan iborat edi. Mantiqan olin-sa, bayt shu ma'no bilan yakunlanishi kerak. Lekin Navoiy uslubiga xos yana bir xususiyat – fikrning mantiq doirasiga sig'may qolishi, to'g'rirog'i, favqulodda mantiq chegarasi-ning kengayib ketishi. Mazkur o'rinda ayni*



holat kuzatilmogda. Navoiy baytdan-baytga yashirin o'tib kelayotgan ma'noni "magar" so'zi vositasida yuzaga chiqarishga jur'at topdi: *"Ey Navoiy, solik sifatidagi da'vongni oqlolmading, dunyoga berilding, fursatni boy berding... Lekin bir ilinjing bor – sen ishq o'yiniga kirishgan oshiqsan, bu o'yinga chorlagan ma'shuqing pokboz, ya'ni halol o'yini bilan nom chiqargan pok zotdir. Bas, sening "oluda doman"liging bu ulug' ish soyasida nima u?! Arzimas bir narsa, nazarga ilinmas bir dog'dir"*. Mazkur xotimani xohlang, ulug' Zotning cheksiz rahmatidan bandaning umidvorligi deb, xohlang, murshid-murid, ustoz-shogird o'rtasidagi ma'naviy robitaning naqadar muhimligiga e'tibor qaratish deb yoki oshiq bilan ma'shuq ko'ngli orasidagi xolislikning bahosi deb biling. Bu xulosalarning barchasi Haqni tanigan tafakkur egasining zaxiraviy asosi qanchalik mustahkam, universal qamrovi nechog'li quvvatga boy ekaniga dalil bo'ladi.

Endi maqta bayt atrofida bildirilgan fikrlarga kelsak, avvalgi talqinda soddalik va ravshanlik bor. Keyingisi biroz murakkabroq tuyulsa-da, g'azalning umumiy ruhiga mos. Soddalik va ravshanlik – mazmun butunligidan bo'lsa, murakkablikning sababi – uslubiy uyg'unlikni his qilish, bu zavqni hosil qilish o'ta nozik, mehnat talab bir ish ekanligidandir. Har holda, bu talqinlar bir jihatdan, Navoiy tafakkuri ko'lamining naqadar keng va chuqurligiga ishora bo'lsa, boshqa jihatdan, bugungi o'quvchining bu dengizni bo'y-lashga naqadar ojiz ekanini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mumtoz matnni, xususan, Navoiy adabiy merosi matnlarini o'rganishda muallif konsepsiyasini e'tiborda tutgan holda olib borilgan tajribalarga misol sifatida G'afur G'ulom, Amin Umariy, Shokir Husaynzoda, Inoyat Maxsum tomonidan tayyorlangan "Xamsa" dostonlarining nasriy bayonlari, akademik olim Alibek Rustamiy, Abduqodir Hayitmetov, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqul, Nusratulla Jumaxo'jalarning g'azal sharhi bilan bog'liq qator ishlarini keltirish mumkin. Ayni jabhada keyingi davrlarda A'zamxon

Qozixo'jaye, Manzar Abdulxayrov, Akrom Maliklar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ham e'tiborga loyiq. Lekin ko'p holda olimlarimizning Navoiy g'azallarini o'rganish bo'yicha taqdim qilgan metodik qoliplari ilmiy-fundamental sharhlar uchun torlik qiladi. Ilmiy-fundamental sharhda talqinlar matn voqeligidan uzilmagan holda kengayib boradi. Bu uzluksiz kengayish shu darajaga yetadiki, bitta g'azal, bitta bayt sharhi matn tashqarisidagi hududsiz olamni matn ichiga sig'diradi, matn voqeligi butun olamni qamrab oladi. Shorih barcha zamonu makonlarni o'zida jamlagan g'azal voqeligi kuzatishi mumkin bo'ladi. Misralardagi so'zlar, jumlarlar ortiga yashirin ma'nolardan taralayotgan ovozlarga quloq tutadi, ovoz egalarini bir-bir ajratadi, ularga nom beradi. Xayoliy voqelikdagi holatlar individuallashadi, lirik qahramon, noma'lum shaxs va muallifdan iborat yig'inda balki shorihning ishtiroki ham sezila boshlaydi, baytlararo muloqot jonlanadi. A.Qozixo'jaye o'zining "Navoiy g'azalida balog'at" deb nomlangan maqolasida mazkur jarayonning muhim qirralarini shunday izohlaydi: "Vazn, qofiya, badiiy san'atlar g'azalning tashqi bezaklari bo'lib, ma'lum ma'noda mohiyatga yo'l ochadi. Lekin faqat vazn, qofiya, badiiy san'atlarni o'rganish bilan cheklanilsa, g'azal bizga o'z siru asrorlarini ochmaydi. Ajdodlar ming yillar davomida muayyan qoliplarga mahliyo bo'lib yashamagani aniq. Ular g'azal kodlarini juda osonlik bilan yechganlar, tushunganlar, zavqlanganlar. Hayotda jonli so'zgina yashovchan hisoblanadi. Jonli so'z esa monologik quruq, bir yoqlama nutqda emas, jonli dialogda yashaydi. Jonli muloqot iplari jamiyat a'zosining har biriga, bu orqali esa katta zamonga ulanib ketadi" [9:4-6].

Tahlil ravishi bosqichma-bosqich izchilik bilan matn ichkarisiga yo'naltirilgan ekan, tadqiqotchi baytlarda o'rnashgan har bir so'z, so'zlar ifodalagan holat, holatlardan tarkib topgan ma'no qadar matnga yaqinlashadi. Tadqiq tizimi ayni asosga qurilgani uchun ham tadqiqotda maqsad qilingan janr, kompozitsiya, syujet, obraz kabi poetik un-

surlarini kompleks o'rganish masalasi, nazariy yo'nalishdagi aksar ishlarda bo'lganidek, matn voqeligidan tashqaridagi hodisaga aylanib qolmaydi. Balki matn ichra yoyilib il-diz otadi, tahlilu talqinlardan sodda va aniq nazariy xulosalar o'sib chiqadi.

Qachonki talqin matndan uzilar ekan, matndan tashqarida alohida muammo paydo bo'ladi. Matnga mutloq aloqasi bo'lmagan bu muammoga sho'ng'ish jarayonida yana boshqa muammolarga duch kelinadi. Ildizi matndan uzilgan bu jarayonga "nazariyabozlik" degan nom rosa muvofiq tushadi. Ba'zan bunday "nazariyabozlik"lar mumtoz adabiyot matnlarini tasavvuf tushuncha-

lari bilan izohlashga urinib, eplay olmagan o'rinlarda yaqqol ko'rinadi. Muayyan sohada mutaxassis bo'lmagan kishi u sohani tushuntirishga harakat qilsa, faqat chalg'itadi, balki tinglovchi yo o'quvchini izidan ergash-tirib, boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yadi.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ldi-ki, Navoiyni anglashimiz uchun Navoiy bilgan narsalardan asos e'tibori bilan xabardor bo'lishimiz, imkon qadar matn ma'nosini ochadigan sabablar tomon yaqinlashishimiz birlamchi shartlardandir. Ana shundagina har bir amalda komil e'tiqod namunasini namoyon qilgan bobomiz Navoiy haqida jonli va butun tasavvurga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ali ibn Muhammad Sharif Jurjoniy. Kitobut ta'rifot. – Bayrut: Dorun nafa'is, 2018.
2. Alisher Navoiy. Hayratul abror. Ilmiy tanqidiy matn / Tuzuvchi: Porso Shamsi. – Toshkent: San'at, 1970.
3. Alisher Navoiy. Favoidul kabir. – Toshkent: Fan, 1990.
4. Alisher Navoiy. G'aroyibus sig'ar. MAT. J.III. – Toshkent: Fan, 1988.
5. Alisher Navoiy. Mahbulbul qulub. MAT. J.XIV. – Toshkent: Fan, 1998.
6. Xatib Qazviniy. Al-Iyzo' fi ulumil balog'a. – Ar-Riyod: Maktabatul maorif, 2006.
7. Abu Bakr Abdulloh ibn Abu Dunyo Qurashiy. Al-Faraj ba'dash shidda. – Qohira: Dorul bayon.
8. Mas'ud Ibn Umar Taftazoniy. Muxtasarul ma'oni. – Karachi: Maktabatul bushro, 2020.
9. Qozixo'jayev A. G'azalning serovoz olami. – Toshkent: O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2009. № 49.
10. Shayx Alouddin Mansur. Qur'oni azim muxtasar tafsiri. – Toshkent: Sharq, 2019.
11. Ю.А. Рубинчик. Грамматика современного персидского языка. – Москва: Восточная литература, 2001.



Samariddin AHMEDOV

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tayanch doktranti
e-mail.:samariddin2023@gmail.com*

QOSIM XORAZMIY – XORAZMLIK BUYUK SHOIR VA ADIB

QASIM AL-KHORAZMI, THE GREAT
POET AND WRITER OF KHORAZM

Xorazm qadimdan dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ko'plab qomusiy olimlarni yetishtirgan diyordir. Tarix sahifalariga nazar tashlansa, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Shamsulaimma Abdusattor Kardariy va Abul Xayr ibn Hammor kabi allomalar ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin.

Xorazmlik yana bir yirik alloma Qosim Sadrul-afozil bo'lib, to'liq ismi Qosim ibn Husayn ibn Muhammad Abu Muhammad Xorazmiy Nahviy (*ayrim manbalarda Ibn Muhammad emas, ibn Ahmad shaklida keltirilgan*) dir [5:704;8:88]. Olimni Abu Muhammad va Abul Fazl kabi kunyasi bo'lib, bu nomlar gohida ismidan oldin, ba'zan keyin keltirilgan. Qosim Xorazmiyga "Sadrul-afozil", "Majduddin", "Taroifiy" kabi unvonlar berilgan bo'lib, birinchi taxallusi bilan shuhrat topgan. Olimning mashhur asari "Taxmir" muqaddimasida muallifni "Shayx Imom Abu Muhammad Qosim ibn Husayn Sadrul-afozil Xorazmiy" deya keltirilgan.

Qosim Xorazmiy hijriy 555-yil 9-sha'bon (1160-yil 5-avgust) kuni tug'ilgani manbalarda aniq keltirilgan [6:153]. Jumladan, Yoqut Hamaviy (1178-1229\574-626) "Mu'jamul udabo" (*Adiblar qomusi*)da quyidagi ma'lumotni keltiradi: "Men undan (*Qosim Xorazmiy*) tug'ilgan yili qachon eka-

nini so'radim. U: "Men hijriy 555-yil sha'bon oyining 9-kuni Xorazmda tug'ilganman," dedi" [9:238].

Xorazmiyning ismi, tug'ilgan sanasi hamda vafot etgan yili haqidagi aniq, ishonchli ma'lumotlar bo'lishiga qaramay, manbalarda uning bolaligi, oila a'zolari, ilmiy safarlari, ustoz va shogirdlariga oid kam sonli xabarlar mavjud. Mazkur ma'lumotlar Xorazmiyning hayot chog'ida ziyorat qilgan hamda undan ba'zi ilmiy suhbatlar tinglagan arab tarixchisi va geografi Yoqut Hamaviydan naql qilingan. Tarixchi Xorazmni 616/1219-yil ziyorat qilgan va Xorazmiy haqidagi ma'lumotlarni o'z asarida keltirgan. [9:238].

Xorazmiyning "Saqtuz Zand" (*Zandning merosi*) nomli adabiyotga oid asarga yozgan sharhida ushbu satrlari ham qayd qilingan: "O'g'lim haqqiga aytgan marsiyalarimdan biri: "Seni tuproq va toshlar orasiga dafn etdim, agar men insof qilsaydim, seni qal-bim to'rida saqlar edim"[1:937]. Shundan ma'lum bo'ladiki, olimning o'g'il farzandlaridan biri kichik yoshida vafot etgan.

Alloma nomining o'z davrida xorij mintaqalarda mashhur bo'lmaganidan olim Xorazmdan tashqariga deyarli safar qilma-gan, deyish mumkin. Shuningdek, Mo'g'ullar bosqini davri sabab Qosim Xorazmiy kabi ko'plab olimlar ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlar yo'qolib ketgan.

Qosim Xorazmiy hijriy 617/1220-yil mo'g'ullar tomonidan o'ldirilgan va bu davr Islom tarixida og'ir yo'qotishlar davri sifatida esga olinadi [2:49]. Mo'g'ullar bosqini natijasida o'n asr davomida moddiy va ma'naviy rivojlanib kelgan madaniyat vayron etildi.

Yoqut Hamaviy Xorazmiyni xulq-atvori va ko'inishini quyidagicha sifatlaydi. "Ko'rinishi go'zal, qariligi o'ziga yarashgan, to'ladan kelgan jasadli harakatlanishga qiynaladigan, tomog'ida kattagina bo'qog'i bor edi" [9:238]. Yoqut Hamaviy qo'shimcha qilib aytadi: "U ko'ksini to'ldirib turadigan ko'krakli, iltifotli, ochiq dil, go'zal xulqli, ochiq yuzli, fasohatli edi" [9:238]. Bu vasfni tarixchi olim o'ldirilishidan bir yil oldin

616-hijriy sanada uning uyida ziyorat qilganida shu tarzda yozib qo'rgan.

Yoqut Hamaviy: "Men uning tirikchiligi haqida so'raganimda u shunday javob berdi: "Otam menga arzimagan narsa qoldirgan. Men o'shandan oz-ozdan ishlataman, shu narsa ila xalqdan behojatlik-la lazzatlanaman" [9:251]. Bu uning qanchalik iffatli, qanoatli, mansab va sultonlardan o'zini uzoq tutganini ko'rsatadi.

Xorazmiyning ilmiy mavqei, zakovati va tabiatini Yoqut Hamaviy shunday vasflaydi: "Sadrul Afodil arab tili ilmlarini egallagan zamonasining yagonalaridan bo'lgan. U davrining ulug' peshqadamlaridan edi". "O'tkir zehnlilik, nozik aql egasi, tanqidiy va samimiy xulqqa ega kishidir" [9:238]. Mazkur sifat-larning ba'zilarini ibn Sha'or va Suyutiy ham keltirgan.

Qosim Xorazmiy ilmda serjahl tabiat, tanqidiy xarakterga ega ekani nahv olimlarining fikrlarini tanqidiy muhokama qilganida namoyon bo'ladi. Misol uchun, u "Mufassal"ni sharhlash davomida nahv olimlariga shunday e'tiroz bildiradi: "Nahvshunoslarning bu masalada aytgan fikri bema'ni, tushunarsiz gap, bu qanday ham tutuqsiz qarash. Nahvshunoslarning fikrlari kulgili safsatadan o'zga narsa emas. Buning asosi xato va xatoligi aniq ravshandir" [7:248-281-325-496].

O'sha davrda Xorazm va uning atrofida-gi mintaqalarda, asosan, mu'tazila mazhab-i keng tarqalgan edi. Shunga qaramasdan Xorazmiy hanafiy mazhabida sobit turgan. Yoqut Hamaviy uning mazhabi haqida so'ragandida: "Hanafiyman. Xorazmiy emasman, Xorazmiy emasman" [9:239], deb takrorla-

gan. Yoqut Hamaviy alloma Xorazmiyning bu gapidan u o'zidan mu'tazilalikka inkor etyapti, deb tushungan [9:252]. Hoji Xalifa (1609-1657/1068-1017) Xorazmiyning ismini "Xorazmiy Nahviy Hanafiy" [4:230], deb keltirgan. Suyutiy (1445-1505/849-911) u haqida shunday deydi: "Xorazmiy Hanafiy, sunniy. U Hanafiy faqihlaridan biridir" [3:252].

Qosim Xorazmiy ko'ngli to'q, nozik tabiatli bo'lgani sababli mol-dunyo va obro'-e'tiborga intilmagan. Otasidan meros qolgan oz miqdordagi mablag'ga qanoat qilib, umrini ilm olishga va turli sohalarga oid asarlar bitishga bag'ishlagan. Olim arab tili-da sermahsul ijod qilgan. U lug'atshunoslik, grammatika, stilistika, adabiyot, falsafa, fiqh, hadis kabi fanlarga oid ko'pgina asarlar yozgan. Yoqut Hamaviy o'zining "Mu'jamul udabo" kitobida Xorazmiy asarlariga doir ba'zi ma'lumotlarni berib o'tgan.

Biografik manbalarda Xorazmiyning ilmiy asarlari umumiy tarzda keltirilgan. Jumladan, Yoqut Hamaviy "Mu'jamul udabo" kitobida olimning lug'atshunoslik, grammatika, stilistika, adabiyot, fiqh fanlariga oid 20 ga yaqin asarlarini ketirgan.

Olimning asarlarini Doktor Abdurahmon ibn Sulaymon Usaymin "Taxmir" kitobining nashr muqaddimasida uch turga bo'lgan:

1. Xorazmiyning hozirgi kunda mavjud va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan asarlari;

2. Xorazmiyning hozirgi kunda mavjudligi borasida biror ma'lumot topilmagan, biroq muallif o'zi ayrim kitoblarida zikr etgan asarlari;

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoir, adib hamda arab tili ilmlarida zamonasining durdonalaridan biri bo'lgan, Qosim Ibn Husayn Ibn Ahmad Xorazmiyning hayoti, sermahsul ijodi va ilmiy merosi borasida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Abstract. This article provides information about the life, prolific work and scientific heritage of Qasim Ibn Husayn Ibn Ahmad Khorezmi, one of the masterpieces of his time in the field of Arabic language and literature.

Kalit so'zlar: Xorazmiy, alloma, ilmiy mavqei, xulq-atvor, manba, mintaqa.

Key words: Khorazmi, scholar, scientific position, behavior, source, region.



3. Biografik manbalarda Xorazmiyga nisbat berilgan asarlar [7:23-24].

Birinchi turga mansub – Xorazmiyning hozirgi kunda mavjud va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan asarlari beshta bo'lib, ular:

1. "Taxmir" Mahmud Zamaxshariyning "Mufassal" asariga yozilgan sharh;

2. "Diromus saqt fi sharhi Saqtiz zand" Abul A'lo Maarriyning "Saqtuz zand" asari sharhi;

3. "Badoi'ul milh" ("Nodir fasohatli iboralar kitobi"), sharhi;

4. "Yumniy fi sharhil Yaminiy". Bu asarni Muhammad ibn Abduljabbor Utbiy (427) ta'lif etgan. Bu asar Yaminud davla Mahmud ibn Sabuktegin G'aznaviyning hayotiga bag'ishlangan bo'lib, yuksak adabiy uslubda yozilgan;

5. "Tavzih (*"Tushuntirish"*) fi sharhil maqomotil Haririy". Haririyning "Maqomatlar"iga bag'ishlangan sharh [7:24].

Xorazmiyning ikkinchi turga mansub – hozirgi kunda mavjudligi borasida biror ma'lumot topilmagan, biroq muallif o'zi ayrim kitoblarida zikr etgan asarlari oltita bo'lib, ular:

1. "Kitobuz zavaya val xabaya" (*"Sir-asrorlarga to'la maxfiy narsalar yoki sir-asrorlarga to'la jumboqlar haqida kitob"*);

2. "Sharhul mufrad val muallaf fin nahv". Zamaxshariyning "al-Mufrad val muallaf fin nahv" asariga yozilgan sharh bo'lib, olimning ilk asarlaridan biridir;

3. "Lahjatu shar". Xorazmiy bu asarini "Tavdih" kitobining bir qancha o'rinlarida eslab o'tgan;

4. "Sabika". "Mufassal"ga yozilgan o'rta hajmdagi sharh;

5. "Mujammara". Mahmud Zamaxshariyning "Mufassal" asariga yozilgan kichik hajmdagi sharh;

6. "Lubabul I'sor". Olimning bu asaridan Isfandariy (698) "Muqtabas" asarining bir qancha o'rinda naql qilib, kiob nisbatini Xorazmiyga bergan.

Uchinchi turga mansub biografik manbalarda Xorazmiyga nisbat berilgan asarlar quyidagi sakkizta kitobdan iborat:

1. "Anmuzaj" sharhi. Mahmud Zamaxshariyning "Anmuzaj fi nahv" asariga yozilgan sharh bo'lib, mazkur asar Yoqut Hamaviyning "Mu'jamul udabo", Ibn Sha'ar Mavsuliyning "Uqudul jamman" asarlari kabi biografik manbalarda Xorazmiyga nisbat berilgan. Mazkur sharh hijriy 1289-sanada Misrda va Istanbulda nashr etilgan. Shuningdek, milodiy 1859-yil Kristianstaadda, milodiy 1897-yil Qozonda nashr etilgan. Mahmud Zamaxshariyning mazkur asariga Xorazmiydan oldin imom Muhammad Sa'dud Dibojiy (*Mahmud Zamaxshariyning shogirdi 609-hijriy sana*) sharh yozgan;

2. "Sharhul ahajiy nahviyya". (*Mahmud Zamaxshariyning "Ahajiy" asariga yozilgan sharh*) Bu asar ikki marta: biri hijriy 1392-yil Damashqda, ikkinchisi hijriy 1393-sanada Bag'dodda nashr etilgan. Bu asarni Yoqut Hamaviy "Mu'jamul udabo" kitobida Xorazmiyga nisbat bergan bo'lib, bu asar "Bahjat bil masailin nahviyya" deb nomlandi;

3. "Muhassil lil muhassila fil bayon". Bu asarni ham Yoqut Hamaviy "Mu'jamul udabo" kitobida zikr qilib o'tgan;

4. "Xalvatur royahin fil muhadrot". Olimning bu kitobini ham Yoqut Hamaviy va ibn Sha'ar Mavsuliy o'z asarlarida zikr qilib o'tishgan;

5. "Sharhul Abniya". Olimning bu kitobini ham Yoqut Hamaviy va ibn Sha'ar Mavsuliy o'z asarlarida zikr qilib o'tishgan;

6. "Ujalatus safar fish she'r". Olimning bu kitobini ham Yoqut Hamaviy o'z asarida zikr qilib o'tgan;

7. "Ajoibun nahv". Olimning bu kitobini ham Yoqut Hamaviy va Ibn Sha'or Mavsuliy o'z asarlarida eslab o'tishgan;

8. "Sir fil i'rob". Olimning bu kitobini ham Yoqut Hamaviy va Ibn Sha'or Mavsuliy o'z asarlarida zikr qilib o'tishgan.

Xulosa qilib aytganda, Qosim ibn Husyan ibn Muhammad Abu Muhammad Xorazmiy V-VI asrlarda Xorazmda yashagan olim. U lug'atshunoslik, grammatika, stilistika, falsafa, fiqh, hadis kabi fanlarga oid ko'pgina

asarlari yozish bilan birga adabiyotning she'r va nasr yo'nalishida ham ijod qilgan. U o'z zamonasining mashhur shoiriga aylangan. Olimning boy ilmiy merosini bugungi kunda har tomonlama o'rganib, xalqimizga taqdim etish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abul Alo Maarriy. Sharhu Saqtiz Zand. J. II. – Qohira: Dorul kutubil misriyya, 1946.
2. Rog'ib Sarjoniy. Qissatu Tatar. – Qohira: Muassasatul iqro, 2006.
3. Jaloliddin Suyutiy. Bug'yatul Vuot. – Bayrut: Maktabatul asriyya, 1964.
4. Hoji Xalifa. Kashfuz zunun. J. I. – Bayrut: Dor ihyait turosil arabiy, 1999.
5. Ibn Abul Vafo Qurashiy. Al-Javohirul muziyya fi tabaqotil hanafiyya – Qohira: Maktabatul hijr, 1993.
6. Muhammad Abdulhay Lakhnaviy. Al-Favoidul bahiyya fi tarojimil hanafiyya. – Qohira: Doreu saoda, 1946.
7. Qosim ibn Husayn ibn Ahmad Xorazmiy. Taxmir. J. I. – Bayrut: Dorul g'arbil islomiy, 1990.
8. Salohiddin Safadiy. Al-Vofiy bil vafayot. – Bayrut: Dor ihyoit turosil arabiy, 2000.
9. Yoqut Hamaviy. Mu'jamul udabo. – Bayrut: Matbuot doril Ma'mun, 1936–1938.



Abdullo G'OFUROV

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, "Aqoid va fiqhiy" fanlar kafedrası o'qituvchisi
e-mail.:abdullohmagfur93@gmail.com*

"MAHBUBUL QULUB" MATNLARINING QIYOSIY TADQIQI

PUBLISHED TEXTS OF "MAHBUBUL QULUB" AND THEIR COMPARATIVE STUDY

"Mahbubul qulub" Alisher Navoiyning oxirgi asari hisoblanadi. Alisher Navoiy "Mahbubul qulub" asarida umri davomida to'plagan boy hayotiy tajribalari asosida davrining axloq qoidalarini belgilaydi, insonparvarlik qarashlarini falsafiy xulosalar va o'z hikmatli so'zlari orqali ifodalaydi. O'sha davrda mavjud bo'lgan barcha guruh va tabaqalarga o'zining xolisona bahosini beradi.

Ilm-fanda ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalardan uchtasi XVI asrga, qolganlari esa XVIII-XIX asrlarga mansubdir. "Mahbubul qulub"ning 1565-66-yillarda ko'chirilgan nusxasi Parij Milliy kutubxonasida, XVI asrda ko'chirilgan deb taxmin qilingan mukammal bir nusxasi Sank-Peterburgda, 1595-96-yillarda ko'chirilgan nusxasi ham Sank-Peterburgda, Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat kutubxonasida saqlanadi. Asar Buxoro hamda Istanbulda, 1939-yilda esa Toshkentda nashr etilgan.

Hozirgi davrda Alisher Navoiyning "Mahbubul qulub" asari yozilgan vaqtdan beri minglab muxlis va adabiyot shaydolari tomonidan qayta-qayta o'qib o'rganilib, asar yuzasidan turli tahlil va tadqiq ishlari amalga oshirib kelinadi. Boshqa tadqiqotlar singari Alisher Navoiyning "Mahbubul qulub" asari borasida ham ko'plab ilmiy-matniy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuni alohi-

da ta'kidlash o'rinliki, "Mahbubul qulub" asari Navoiy nasriy asarlari ichida eng ko'p nusxa ko'chirilgan asar hisoblanadi.

Hozirgi kunda "Mahbubul qulub" asarining bir qancha nashrlari mavjud. Ulardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutu tomonidan 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi "Fan" nashriyotida nashr etilgan yigirma jildlik Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plamining o'n to'rtinchi jildida "Munshaot", va "Vaqfiya" asarlari bilan birgalikda "Mahbubul qulub" asari ham nashr etilgan. Navoiyshunos olimi Suyima G'aniyeva matnni izohlar bilan nashrga tayyorlagan. Shuningdek, 2018-yilda "Yoshlar nashriyot uyi" tomonidan lotin yozuvida nashr etilgan nusxasi ham mavjud. Qolaversa, "Yangi asr avlodi" nashriyoti tomonidan ham kirill alifbosida qattiq muqovada nashr qilingan bo'lib, 320 sahifadan iborat.

"Mahbubul qulub" asari shoir hayotining so'nggi yillarida yozilgan nasriy asarlaridan biridir. Asar haqida yirik sharqshunos filolog olimlarning bir qancha maqola va tadqiqotlari chop etilgan. Alisher Navoiy asarlarining dastlabki akademik nashrini tayyorlash haqida so'z borganida navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov tomonidan "Mahbubul qulub"ning nashri haqida tanqidiy fikr-mulohazalar bildirilgan edi:

"Shoir tavalludining 500 yilligiga tuhfa sifatida akademik A.N.Kononov "Mahbubul qulub"ning yig'ma (сводный) matnini tayyorlab nashr ettirgan edi. Ammo unda muallif matnini qaytadan tiklash maqsad qilib qo'yilmagani uchun, undan ilmiy-tanqidiy matn o'rnida foydalanish qiyin. Shu sababdan bu turdagi asarlarning ham ilmiy matnini yaratish ehtiyoji seziladi. Zero, bu hol ham asarning til xususiyatlari, ayniqsa, lug'aviy birliklari borasida uzil-kesil ilmiy xulosalar chiqarishga ham mone'lik qilar edi. Demak, asarning mukammal ilmiy-tanqidiy matni yo'qligi hamda to'liq nashr etilmagani tufayli juda ko'p lug'aviy birliklar qomusiy manbalardan joy olmagan. Natijada, bu xildagi so'zlarning ma'no qirralari ochilmay

qolgan. Asar tilidagi bunday so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tili muammolarini yechishdagi o'zni to hanuz o'rganilmagan. Darhaqiqat, ilmiy izlanishlarimiz jarayonida yuzdan ortiq leksik jildlik birliklar "Navoiy asarlari tilining to'rt izohli lug'ati"da hamda leksik tadqiqot ishlarida ham qayd etilmagani ma'lum bo'ladi" [2:20].

Yaqin davr ichida atoqli rus olimi A.N. Kononov 1948-yili Rossiyada "Mahbubul qulub"ning yig'ma matni nashrini amalga oshirgan [6:34].

Kononov mazkur nashrdagi yig'ma matni tayyorlash uchun bir qancha qo'lyozma nusxalarni asos qilib olgan:

1. Moskva shahrida joylashgan Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida 2095-inventar raqam ostida saqlanayotgan nusxa.

2. Sankt-Peterburg shahri nusxasi (*Rossiya Milliy kutubxonasi, inv. raqami - Dorn 558*) Navoiy asarlari majmuasi tarkibida bo'lib, uni 1001-1004/1593-96-yilda Nazarali Fayziy ko'chirgan. "Mahbubul qulub" mazkur qo'lyozmaning 669-694-sahifalarida joylashgan bo'lib, 25 betdan iborat. Bundan tashqari, A.N. Kononov bu yig'ma

matni quyidagi yana besh qo'lyozma bilan solishtirib, takomillashtirgan:

A) Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida V. 283 inventar raqam ostida saqlanayotgan nusxa. 1212/1797-98-yilda ko'chirilgan.

B) Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida V. 2378 inventar raqam ostida saqlanayotgan nusxa. 1227/1812-yilda ko'chirilgan.

V) Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida S. 139 inventar raqam ostida saqlanayotgan nusxa. 1253/1837-38-yilda ko'chirilgan.

G) Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida V. 266 inventar raqam ostida saqlanayotgan nusxa. 1220/1805-06-yilda ko'chirilgan.

D) ToshDSHI ISM, 1-fond, inventar raqam - 3324. Ushbu nusxa 1260/1844-yilda ko'chirilgan.

E) ToshDSHI, 1-fond, inventar raqam - 697. Ushbu nusxa 1265/1848-49-yilda ko'chirilgan.

Filologiya fanlari doktori P.Shamsiyev "Mahbubul qulub" yig'ma matnidagi ko'pgina noaniq va matn mazmuniga to'la mos

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning oxirgi asari hisoblanadigan "Mahbubul qulub"ni yozishdagi e'tiborli jihatlar tahlil qilingan. Asarning mazmun-mohiyati, hozirgi kunimizga qadar turli fondlarda saqlanib qolgan qo'lyozma nusxalari, ular asosida yozilib chop etilgan zamonaviy nashrlari qiyosiy o'rganilgan. "Mahbubul qulub" asarini turli nuqtai nazardan tadqiq etish ishlari nafaqat o'zbek matnshunoslari, adabiyotshunoslari, balki tojik, rus va ko'plab boshqa xorijiy adabiyotshunoslari tomonidan olib borilgani tadqiq etilgan. Ilmiy ishlardagi ba'zi mulohazali holatlar haqida so'z yuritilgan.

Abstract. The article analyzes the important aspects of writing "Mahbubul Qulub", which is Alisher Navoi's last work. The essence of the work, the manuscript copies preserved in the libraries of different countries until now, and the modern editions written and published based on them are comparatively studied. It has been researched that the research work of "Mahbubul Qulub" from different perspectives was carried out not only by Uzbek textologists and literary scholars, but also by representatives of Tajik, Russian and many other foreign literary studies. Some critical situations in scientific work are discussed.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Mahbubul qulub, adabiyot, adabiyotshunoslik, manbashunoslik, nasr, nazm, tadqiqot.

Key words: Alisher Navoi, Mahbubul Kulub, literature, literary studies, source studies, prose, poetry, research.



tushmaydigan soʻzlarni asarning boshqa nusxalaridagi kalimalar bilan almashtiradi. Yigʻma matn bilan “Mahbubul qulub” joriy imlodagi nashrini sinchiklab muqoyasa qilish natijasida shunday xulosaga kelindiki, olim asarning yangi chopini tayyorlashda nihoyatda koʻp mehnat sarf qilgan. 1966-yilgi nashrning har bir sahifasi komil matnshunosning zukko va oʻta nuqtasanjligidan guvohlik berib turadi. P.Shamsiyev “Mahbubul qulub” matnini tuzishda yigʻma matn va unga asos boʻlgan nusxalardan unumli foydalangan. 1966-yilgi nashrga kiritilgan tahrir va tuzatishlar asosan A.N. Kononov chop qildirgan kitobning har betida – asosiy matn ostida berilgan farq va oʻzgarishlarga mos keladi. Shuning uchun kitobning bu va bundan keyingi qismlarida aniqlikka rioya qilish, yangi nashrga kiritilgan tahrirning manbasini koʻrsatib borish uchun A.N. Kononov tadqiqotida istifoda etilgan nusxalar va ularning shartli belgilarini aks ettiramiz:

1. V 2095, A.N. Kononov tadqiqoti uchun tayanch nusxa: V.
2. R 518, yigʻma matn uchun yetakchi yordamchi nusxa: P.
3. V 293, yigʻma matn yaratishda foydalanilgan yordamchi nusxa: V 1.
4. V 2378, yigʻma matn yaratishda foydalanilgan yordamchi nusxa: V 2.
5. S 139, yigʻma matn yaratishda foydalanilgan yordamchi nusxa: V 3.
6. V 266, yigʻma matn yaratishda foydalanilgan yordamchi nusxa: V 4.
7. T 3324, yigʻma matn yaratishda foydalanilgan yordamchi nusxa: T.
8. T 697, yigʻma matn yaratishda foydalanilgan yordamchi nusxa: T 1 [4:32-33].

Maʼlumki, zahmatkash olim A.N. Kononov “Mahbubul qulub”ning yigʻma matnini tayyorlab, 1948-yilda nashr ettirdi. Olim tadqiqot ishiga turli davrlarda kotiblar tomonidan koʻchirilgan sakkiz qoʻlyozmani jalb qilgan. Akademik A.N. Kononov “Mahbubul qulub”ning boshqa juda koʻp nusxalarini, Buxoro litografik nashrlarini, 1289-(1872-1873) yilda chop etilgan Istanbul nusxasini

ham nazardan oʻtkazgan. Leningrad Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar boʻlimining xazinasida V2095 raqami bilan saqlanayotgan nusxani tajribali olim oʻz tadqiqoti uchun tayanch nusxa sifatida tanlaydi. Mazkur qoʻlyozmaning koʻchirilish tarixi haqida matnshunosligimizda uch xil qarash mavjud. Akademik A.N. Kononov uni XVI asrda koʻchirilgan degan taxminiy xulosaga keladi. Leningraddagi sharq qoʻlyozmalari xazinalarida saqlanayotgan Alisher Navoiy asarlari nusxalarining tavsifini tuzgan sharqshunos olim S.L. Volinning koʻrsatishi-cha, zikr etilgan kitob XVII asrning boshlarida koʻchirilgan [1:30].

Filologiya fanlari doktori M.Hamidovaning xulosasiga koʻra esa, V 2095 hujjat raqami bilan saqlanayotgan qoʻlyozma XVII asr oxirlariga taalluqli. Leningraddagi Saltikov-Shchedrin nomli Davlat ommaviy kutubxonasi xazinasidagi 558-raqamli qoʻlyozma A.N. Kononov tadqiqoti uchun yetakchi yordamchi nusxa vazifasini ado etgan. Mazkur qoʻlyozma XVI asrning oxirgi choragida kotib Hazarali Fayziy tomonidan Eron Ozarbayjonining Qizilogʻoch shahrida Farhodxon kutubxonasi uchun koʻchirilgan. Yigʻma matn yaratishda istifoda etilgan qolgan olti qoʻlyozmadan toʻrttasi Leningrad Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar boʻlimining xazinasida saqlanib, ulardan biri XVIII asrda, qolgan nusxalar esa XIX asrda koʻchirilgan. Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik instituti xazinasidagi ikki qoʻlyozma XIX asrning oʻrtalarida kitobat qilingan. A.N. Kononov tomonidan tayyorlangan yigʻma matn bilan “Mahbubul qulub”ning Alisher Navoiy tanlangan asarlari 13-jildidan oʻrin olgan nashrini qiyosan nazardan oʻtkazamiz. Joriy alifbodagi mazkur nashr Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori P.Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan. P.Shamsiyev nashri bir qator afzalliklarga ega. Joriy yozuvdagi nashrda yigʻma matnda mavjud boʻlgan koʻpgina texnik va bosma xatolar bartaraf etilgan [4:21-22].

“Mahbubul qulub”ning 1966-yilda chop etilgan nusxasida yana bir tahrir – 110-tan-

behning dastlabki jumlasida nazarga tashlanadi: “Yaxshidan yomonlar ham yomonlig’ tama’ tutmas; yaxshi yomonlarga ham yaxshilig’ni unutmas” (A.N. Kononov, 155-sahifa). Porso Shamsiyev matndagi “tama”ni “ko’z” so’zi bilan almashtirib, ma’noga aniqlik kiritgan. Tama’ hirsga tegishli tuyg’u bo’lgani uchun istak, intilish, talpinish kabi xususiyatlar uning tabiatini belgilaydi. Biroq hech bir inson farzandi hech qachon o’ziga yomonlik istab intilmaydi. Shuning uchun ham ko’chirilgan iqtibos mag’ziga “tama” singmaydi, hayot mantiqiga zid keladi. “Ko’z” esa o’zidan keyingi “tutmas” bilan birgalikda “kutmas” ma’nosini ifodalaydi [4:22].

“Mahbubul qulub”ning yig’ma nashridagi bosma xatolar arab alifbosidagi imlosi bir-biriga o’xshash harflar ost va ust nuqtalarining almashinib tushishi, “yo’qdan bor, bordan yo’q” bo’lishi, nuqtalar soni kam yoki ortib yo’rni o’zgarib qolishi oqibatida yuzaga chiqqan. Matndagi bunday qusurlar aksariyat hollarda asardagi fasl, bob va tanbehlar mohiyatiga jiddiy zarar yetkazmasa-da, o’quvchi ruhiga salbiy ta’sir etadi [4:21-30].

Misol tariqasida A.Kononovning nashridagi farqlar bilan tanishib chiqamiz:

“Mahbubul qulub”ning “Dehqonlar zikrida”gi o’ttiz birinchi fasli quyidagi jumla bilan xotima topgan: “Mundoq dehqon Odamning farzand va xalafidur, balki marzuqlar anga farzand va ul Odamiy safiydur” [3:21-30]. A.Kononov nashrining 47-sahifasida *خالفي دور* “xalafidur” so’zi o’rniga *خالقي دور* so’zi “xalqidur” deb berilgan. Har ikkala so’zning ham eski yozuvimizda bir xil bitilishi, ularning farqi yuqorisidagi nuqtalarda ekani kotibni ham, noshirni ham diqqatini tortmasligi, chalg’itishi tabiiy. Shuningdek, xalq, xaloyiq, kishilar guruhi ma’nolarida keluvchi “xalq” matn mazmuniga ta’sir o’tkazmaydigandek ko’rinsa-da, ma’noga katta ta’sir etadi. Biroq ko’chirilgan jumla mantig’i “xalq”ning qayd etilgan ma’nolarini ko’tara olmaydi. Mazkur kalima ifodalaydigan paydo qilingan, vujudga keltirilgan tushunchalari ham mazmunan bir-biriga mu-

tanosib emas. Chunki Odam (*alayhissalom*) Alloh taolo tomonidan yaratilgan (*xalq qilingan*)dir. Izdosh, o’rinbosar ma’nolarini anglatadigan “xalafidur” esa fasl va jumla mazmuniga to’la mos tushadi. Yana bir muhim jihati shundaki, “xalafidur” “Mahbubul qulub” badiiy uslubida markaziy o’rin tutgan saj’ mukammalligini (*xalafidur-safiydur*) ta’min etadi. Qolaversa, “xalafidur” so’zi oyati karima va hadisi shariflarga ham mos keladi. Zero, Alloh taolo Qur’oni karim “Baqara” surasining 30-oyatida ham Odam (*alayhissalom*)ni “xalifa”, deb atagan [5:33-34].

“Mahbubul qulub” muqaddimasida ulug’ mutafakkir o’quvchilarni o’z asariga zo’r diqqat-nazar bilan qarab, har kimning undan fahmlash qobiliyati va anglash darajasiga ko’ra foyda, lazzatu huzur olishini umid qilgan ekan, o’z istaklariga quyidagi so’zlar bilan nuqta qo’yadi: “...Bitguchiga ham bir duo bila bahra yetkurgaylar va ruhini ul duo ruhidin suyundurgaylar” [6:8]. P.Shamsiyev nashrida “ruhidin” o’rniga “P” nusxasidagi “futuhi bila” bitilgan. Bu o’rinda “duo”ga nisbatan “ruhidin”ning qo’llanishi ma’noni xira torttiradi. Ochilish, kushoyish mazmunidagi “futuhi” esa “bila” ko’makchisi bilan birgalikda ma’no yorqinligini ta’minlaydi.

“Karam va futuvtat tariqi”ga bag’ishlangan 13-tanbehda shunday jumla mavjud: “Bu virdda karam sabzasi taraf urush do’konidin o’zga yerda topilmas va mehr guli sipehru tezko’sh gulshanidin o’zga yerda ochilmas”. Satrlar nafaqat saj’ san’ati, balki kinoya, istiora (“mehr guli”, “sipehr gulshani”), tashxis (“sipehri tezko’sh”) singari bir qancha ma’naviy go’zalliklar bilan ham bezatilgan. Masalaning bunday tus olishi matndagi har bir so’zu iborani sinchiklab nazardan o’tkazishni taqozo etadi. Ko’chirilgan iqtibosda Navoiy asarlarida nisbatan kam uchraydigan “vird” so’zi mavjud. Mazkur so’z P.Shamsiyev tomonidan “davrd” tarzida tuzatilgan. “Vird” – biror narsa, voqea-hodisaning kelib chiqish o’rni, avvali; buloq, chashma, sarchashma; manba, kon kabi ma’nolarga ega. Navoiy asarlari lug’atida



ushbu kalimaning: “Tark etmay, doim bajaran turiladigan vazifa, duo” mazmunida ishlatilishi qayd etilgan. “Vird” “vard” tarzida ham o‘qiladi va atirgul ma’nosini ifodalaydi. Ko‘rinadiki, munozaraga sabab bo‘layotgan so‘zning lug‘atlarda zikr qilingan ma’nolari uning ko‘chirilgan iqtibos mag‘ziga singmasligini asoslaydi. So‘z boshida kelishi lozim bo‘lgan “dol”ning so‘z oxirida bosilishi oqibatida “davrdan” o‘z shakli va mazmunini yuqoridagi kabi o‘zgartirgan. Mana bu misolda esa o‘zakdagi “dol”ning tushib qolishi bilan so‘z o‘z ma’nosini mutlaqo yo‘qotgan: “Sabr... achig‘dur, ammo sumand: qatig‘dur, ammo dofi‘ gazand”.

Munozarabop so‘z “Mahbubul qulub”ning joriy alifbodagi nashrida “sudmand” (*foydali*) tarzida to‘g‘ri yozilgan. Harf tushib qolish hodisasini quyidagi jumla tarkibidagi so‘zdan ham ko‘rish mumkin: “Zamon navoyibidin ko‘ngli g‘amsiz, falak havodisidin xotiri alamsiz”. “Yoy”dan keyingi “be”ning yo‘qligidan “navoyibidin” yig‘ma matnda “navoyidin” shaklini olgan. Qayg‘u (*“navoyib”*) g‘ayri mantiqiy ravishda “navo”ga aylanib qolgan.

Shuningdek, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoy asarda har bir so‘zni go‘yo sadafdek joylashtirgan. Bir qarashda sodda va ravon tilda yozilgandek ko‘rinadigan bu nasriy bayonni qanchalik o‘qiganimiz sari murakkab tafakkur dunyosiga qadam qo‘yayotganimizni qalban his etib, aqlan idrok eta boshlaymiz. Go‘yo kishi nasriy bayon emas, ash‘or o‘qiyotgandek bo‘ladi. Quyida ana shunday so‘zlarning ma’nolari xususida to‘xtalib o‘tmoqchimiz:

“Qora quzg‘unni oq tuyg‘un desa, qozni yaxshi olur demagan muqassir. Yorug‘ kunni tiyra tun desa, suho ko‘rinadur demagan mudbir”.

Ramz tilida bitilgan ushbu jumalardagi tuyg‘un, qoz so‘zlari Navoiy asarlarining ko‘p jildli izohli lug‘atida e‘tirof etilmagan. Navoiyning tilsimli tilida qo‘llanilgan tuy-

g‘un so‘zi qirg‘iy yoki qarchig‘ayning nari ma’nosini anglatga, qoz so‘zi esa, “suvda suzuvchi yirik qush, g‘oz” ma’nosini anglatib, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi g‘oz so‘zining dastlabki fonetik varianti hisoblanadi. Qoz so‘zi ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan hozirgi o‘zbek adabiy tilida, shuningdek, sheva materiallarida qo‘llanilib kelinmoqda. Demak, “Mahbubul qulub” asaridagi o‘z qatlamiga xos yangi aniqlangan so‘zlarning ayrimlari turli sohalarga oid bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘aviy tarkibiga nisbatan unchalik katta o‘zgarishlarga uchramagan deyish mumkin. Bu xildagi leksik birliklarning iste‘mol doirasi ham chegaralanmagan: cholg‘uchi, yasanchoq, yolg‘onchi, yo‘rg‘a, sog‘lig‘, tillik va boshqalar. Bundan tashqari asar tilidagi yana bir qator turkiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida ma’nosi to‘raygan: masalan: toqcha so‘zi “Mahbubul qulub” tilida bir o‘rinli qo‘llanilib, “uya”, “in” ma’nosida ham qo‘llangan: “obodlar aning zulmidan vayrona, kabutar toqchalari boyqushg‘a oshiyona”. Bu so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida asosan mahalliy uylarda idish-tovoq va anjomlar qo‘yish uchun devorga o‘yib ishlangan maxsus joy tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, hazrat Alisher Navoiyning nasriy merosi, xususan, “Mahbubul qulub” asarini turli nuqtai nazardan tadqiq etish ishlari uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan jarayon bo‘lib, bu jarayonda nafaqat o‘zbek matnshunoslari, adabiyotshunoslari, balki tojik, rus va ko‘plab boshqa xorijiy adabiyotshunoslik vakillari ham faol ishtirok etgani quvonarli holdir. Alisher Navoiyning nasriy asarlari mavzu, janr va badiiyati jihatidan rang-barangdir. Bu asarlar qanday mavzuga bag‘ishlanganidan yoki qaysi janrga mansubligidan qat‘iy nazar, o‘sha davrdagi nasrning ilmiy-badiiy, estetik talab va mezonlariga to‘la-to‘kis muvofiq bo‘lib, Navoiyga qadar bo‘lgan turkiy-o‘zbek nasrini har jihatdan boyitgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Navoiy. Mahbubul qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
2. M.Abdulxayrov. Navoiy so'z maxzani. – Toshkent: 2005. – B. 20.
3. Alisher Navoiy asarlari. J. XIII. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1966
4. Sh.Hayitov. Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi birinchi bosqich magistrarlari uchun darslik. – Buxoro: Fan va ta'lim, 2022.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muahmmad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2012.
6. Алишер Навои. Возлюбленный сердец. Сводный текст, подготовил А.Н. Кононов. – Leningrad: Изд. АН СССР, 1948.



Farhod JO'RAYEV

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
islom instituti "Aqoid va fiqhiy
fanlar" kafedrası mudiri
e-mail.: farhod1828@gmail.com*

HANAFIY MAZHABIDAGI MO'TABAR MANBA

RESPECTIVE LEGAL TEXTS IN THE HANAFI SCHOOL

Buyuk tariximiz zarvaraqlarini kuza-
tar ekanmiz, diyorimizdan yetishib
chiqqan olimlar ilmning barcha sohasi rivo-
jiga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shgan-
lar.

Ana shunday olimlardan biri Hofizuddin
Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn
Mahmud Nasafiy (1232-1310)dir [3:295].
Xayruddin Zirikliyning "A'lom" nomli kitobi-
da aytilishicha, u zot Nasaf, ya'ni hozirgi
Qarshi shahrining yaqinidagi, Qovchin qish-
log'ida tavallud topgan.

Abul Barakot Nasafiy Abu Mansur
Moturidiy asos solgan moturidiyya ta'limoti
namoyandalaridan bo'lib, ushbu ta'limot-
ning yoyilishiga eng ko'p hissa qo'shgan.
O'sha vaqtda paydo bo'lgan mu'taziliyya,
jahmiyya, karromiyya, botiliyya kabi oqim-
larning nosog'lom fikrlariga qarshi kurash-
gan, ularga ishonchli hujjatlar bilan asosli
raddiyalar bergan. U zotning dinimiz sofligi-
ni saqlash yo'lidagi xizmatlari mana shu yer-
da yaqqol namoyon bo'ladi. Bu zot o'z davri-
da paydo bo'lgan turli adashgan oqimlarga
qarshi turgan. U zotning birinchi ustozı -
otasi Muhammad ibn Muhammad bo'lgan.
Abul Barakot Nasafiy hayotining ko'p qismi-
ni Samarqand va Buxoroda o'tkazgan. U
davrlarda Samarqand va Buxoro Islom ola-
mining ko'zga ko'ringan ilm markazlaridan
edi.

Ma'lumki, har bir mazhabning fiqhiy
matn kitoblari mavjud. Bu sohada hanafiy
fiqhi faqihlarining asarlari peshqadam de-
sak, mubolag'a bo'lmaydi. Aslida, "Fiqh"
so'zi lug'atda daqiq fahmni, ya'ni bir narsani
nozık joylarigacha tushunishni anglatadi.
Ana shunday ilmiy malakaga ega bo'lgan
odamni "faqih" deyiladi. Shariat istilohida
esa shar'iy dalillardan far'iy hukmlarni chiq-
arishga "fiqh" deyiladi. Ushbu ta'rifdagi "shar-
'iy dalil" istilohidan asosan Qur'oni karim
oyatlarini va Payg'ambarimiz Muhammad
(*alayhissalom*)ning sunnatlarini tushuna-
miz. "Far'iy hukmlar" esa lug'atda asliyning
teskarisi, ya'ni shaxobcha, kichik ahamiyatli
degan ma'noni anglatadi. Shariatda esa, ibo-
dat va muomalot masalalarini o'z ichiga
oluvchi hukmlar far'iy hukmlardir. Bir so'z
bilan aytganda fiqh ilmi - Islom shariatidagi
amaliy hukmlar haqidagi ilmdir. Fiqh ilmi-
dagi matn uslubida iboralar qisqaligi, o'qi-
lishi osonligi, dalil va hujjatlari zikr etilma-
gani, zaif rivoyatlar uchramasligi hamda eng
ahamiyatli masalalar zikr qilingani va unga
ketadigan vaqtning tejalishi bilan batafsil
yozilgan fiqhiy manbalardan ajralib turadi.
Ulamolarimiz hanafiy fiqhiga doir ko'plab
matnlar yozishgan. Bularga misol tariqasida
"Muxtasarut Tahoviy", "Xizonatul fiqh",
"Muxtasarul Karxiy" va "Tuhfatul fuqaho"
kabi asarlarni zikr qilish mumkin. Biroq ke-
yingi ulamolar "Muxtasarul Quduriy",
"Viqoyatur rivoya", "Muxtor lil fatvo" va
"Kanzud daqoiq" asarlarini hanafiy fiqhidagi
eng mo'tabar matnlar, deb e'tirof etishgan.

Abul Barakot Nasafiyning "Kanzud daqoiq"
asari ana shu mo'tabar fiqhiy matnlar-
dan biri bo'lib, ular orasida o'ziga xos o'rin-
ga ega. Ibn Obidin ushbu kitobni ta'riflab:
"Albatta, "Kanzud daqoiq" hanafiy mazhabi-
dagi mo'tabar matnlardan bo'lib, mazhabda-
gi masalalarni naql qilish uchun bitilgandir",
degan [5:256].

Ushbu kitobning to'liq nomi "Kanzud
daqoiq fi ilmil furu'" (*Furu' ilmida nozik ma-
salalar xazinasi*) bo'lib, muallifning "Vofiy fil
furu'" (*Furu'ul fiqh borasida vafo qiluvchi*)
asaridan qisqartirib olingan [4:174].

Muallifning o'zi asar muqaddimasida tolibi ilmlarning keng va katta hajmli kitoblarni o'qishdan zerikishlari, inson tabiati qisqa bitilgan kitoblarga rag'batli ekani va vaqt tejilishi sababli ushbu kitobni yozganini aytgan.

Asarning qisqaligi va uni "Kanzud daqiq" deb nomlanish sababini Imom Badriddin Ayniy ushbu asar sharhi bo'lmish "Ramzul haqiq"ning muqaddimasida quyidagicha bayon qilgan: "Asarda salafi solihlar jamlagan masalalar ko'pligi e'tiboridan muallif asarni "Kanz" ("xazina") va ushbu masalalar nihoyatda qisqa va nozik tarzda bayon qilgani sababidan "daqiq" ("nozik") deb nomlagan. Asar qiyin va chigal o'rinlardan xoli hamda odamlar muhtoj bo'ladigan "Fatvo" va "Voqeot" masalalari bilan ziynatlangan" [2:45].

Hanafiy mazhabi ulamolari ushbu asarga ko'p ahamiyat qaratganlari va ular nazdida yuqori darajaga egaligi sababli asarga yozilgan sharh, ta'liq, hoshiya va manzumalar yuzdan ortadi. Hatto keyinchalik imom, faqih, qozi va muftiylik darajasiga yetgan ko'plab olimlar ushbu asarni yod olishgani zikr qilinadi [2:47].

Muallif ushbu qisqa asarda fiqhning barcha bobiga tegishli qirq mingta masalani keltirgan. Biroq masalalarning dalili zikr qi-

linmasdan, goho illatlari bayon etib ketilgan xolos. Eng muhimi, odamlar o'rtasida ko'p yuzaga keladigan masalalar bilan cheklanilgan. Asarda barcha masalalar Imom Abu Hanifa (*rohimahulloh*)ning so'zi asosida keltirilgan. Faqat o'ntaga yaqin masalada ikki imomning so'zi olingan.

Asarda dalillar va ixtiloflarga to'xtalinmagan, balki mashhur mujtahidlarning ismlariga belgi qilib, bosh harflari berilgan xolos. Masalan, "ha" harfi Abu Hanifa, "sin" Abu Yusuf, "mim" Muhammad, "za" Zufar, "fo" Shofeyi, "kof" Molik, "vov" hanafiy mazhabi olimlari rivoyatlari uchun belgi qilib olingan [2:55].

Asar imom Abu Hanifaning mashhur shogirdlari imom Muhammadning "Jomius sag'ir", "Jomiul kabir" va "Ziyodot" (*Ziyoda masalalar*) asarlari hamda imom Quduriyning "Muxtasarul Quduriy", imom Abu Hafs Nasafiyning "Manzumatul xilofiyot" (*Qiyosiy huquqshunoslikka oid nazm*) va fatvo kitoblaridagi turli masalalarni o'zida jamlagan. U fiqhga oid barcha kitoblar kabi tahorat kitobidan boshlangan. Lekin "Hidoya" va "Muxtasarul viqoya" kabi asarlardan farqli o'laroq "faroiz", ya'ni meros ilmi bobi ham kiritilgan. Asar tartib jihati-dan Muhammad ibn Hasanning "Jomi'us sag'ir" kitobiga o'xshab yaxshi tartiblangan

Annotatsiya. Bu maqolada "Kanzud daqiq" asari hanafiy mazhabidagi mo'tabar, ahamiyatli va eng muxtasar fiqhiy matnlardan biri ekani hamda olimlar tomonidan ushbu asar va uning muallifiga nisbatan aytilgan fikrlar, shu bilan birga bu asarni mutolaa qilgan shaxs qisqa vaqtda ko'p ma'lumotga ega bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Shuningdek, maqolada asarning yozilish uslubi, muallifning asarni yozishda boshqa asarlarda uchramaydigan o'zgacha yondashuvi haqida ham so'z yuritilgan.

Abstract. In this article, the work "Kanzud Daqiq" is one of the most reliable, important and concise jurisprudence texts of the Hanafi school, the opinions expressed by scholars about this work, its author, and the person who reads this work will have more information in a short time information about the possibility is given.

The article also talks about the writing style of the work, the author's unique approach to writing the work, which is not found in other works.

Kalit so'zlar: fiqh, faqih, fiqhiy mazhab, hanafiy, matn, muxtasar, mujtahid, mufassal, sharh, illat, dalil, imom.

Key words: jurisprudence, jurist, school of jurisprudence, Hanafi, text, summary, mujtahid, mufassal, commentary, demerit, evidence, imam.



hamda daqiq so'zlar, qisqa va lo'nda iboralar so'llanilgan.

Asarning iboralari qisqaligidan tashqari, yana bir o'ziga xos bir jihati fiqhiy masalalar bayon qilingan o'rinda ko'rinadi. Ya'ni, biror fiqhiy masala bayon qilganida ayrim o'rinlarda masala to'liq berilmagan. Faqat muallifning o'zi tushunadigan harflardan tashkil topgan so'z keltirilgan. Har bir harf xos bir so'zga dalolat qilib, bundan muallif nimani iroda qilganini boshqa fiqhiy manbalarda kelgan shunga tegishli masalalar orqali bilish mumkin. Masalan: muallif asardagi "Suvning hukmlari" bobida "Quduq masalasi "jaht"dir", degan. Bu bilan "Agar bir junub odam suvi bor quduqqa tushib ketsa, ushbu odam va suvning poklik hukmi nima bo'ladi?" degan masalaga javob berishni ko'zlagan. Masalaning bayoni: Imom Abu Hanifaning nazdida odam (*najas*) nopokligida qoladi va suvni ham nopok qiladi. Bunga "j" harfi bilan ishora qilgan. Imom Abu Yusufning nazdida odam nopokligida va suv esa o'z pok holida qoladi. Bunga "h" harfi bilan ishora qilgan. Imom Muhammadning nazdida odam poklanadi va suv (*tohir*) pokligicha qoladi. Bunga "ط - t" harfi bilan ishora qilgan. Ya'ni, "najas" so'zidagi "j", "holi" so'zidagi "h" va "tohir" so'zidagi "t" harflarini olib, "jaht" deb ishora qilgan.

"Namoz kitobi"da bulutli kunda shoshiltirib o'qish sunnat bo'lgan namozlarni bayon

qilishda "bulutli kunda "ayn" harfi bor namozlar...", degan. Bu bilan "asr" va "xufton" namozlarini iroda qilgan.

Muallif mana shunga o'xshash qisqartmalarni "namozda qo'l ko'tarish sunnat bo'lgan o'rinlar" va "hibani qaytarib olish mumkin bo'lmagan holatlar" kabi masalalarni bayon qilishda ham ishlatgan.

Xulosa qilib aytganda, bu kitob muxtasar shaklda yozilgan manbalarning eng ixchami hisoblanadi. Bu asarni o'qigan tolibi ilm qisqa fursatda fiqhning barcha boblaridan boxabar bo'ladi. Xususan, hanafiy fiqhi bo'yicha mazhabdagi asliy masalalarni o'rganib chiqadi. O'rni kelganda ko'proq fikr yuritib, mujmal joylarini kashf qilishga urinadi. Bu esa fiqhiy masalarni to'g'ri tushunish malakasini oshiradi. To'g'ri tushungan faqih to'g'ri amal va to'g'ri harakat qilishga intiladi. Zero, Payg'ambarimiz Muhammad (*alay-hissalom*):

“من يرد الله به خيراً يفقهه في الدين...”

"Alloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni dinda faqih qilib qo'yadi"[1:30], deganlar.

Demak, din ta'limotlarini yaxshi tushunadigan bo'lish banda uchun katta baxt-saodat, unga Alloh taolo yaxshilikni iroda qilganining alomatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Bayrut: Dor ibn Kasir, 2002.
2. Abul Barakot Nasafiy. Kanzud daqoiq. – Madina: Dorus siroj.
3. Qurashiy. Al-Javohirul muziyya fi tabaqotil hanafiyya. J. II. – Ar-Riyod: Dor Hajr, 1993.
4. Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: Movarounnahr.
5. Ibn Obidin. Raddul muxtor. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 1994. J. I.
6. Ibn Tag'riy Berdi. Al-Manhalus sofiy val mustavfo ba'dal vofiy. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 2008. J. II.

Qodirxon MAHMUDOV

*Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot
markazi ilmiy xodimi
e-mail.:qodirxon.ar@mail.ru*

AR-RAHMON SURASINING NOZIL BO'LISH SABABI VA FAZILATI

THE REASON AND MERIT ARRIVAL OF OF SURAH "AR-RAHMAN"

Har bir suraning o'z fazilati, nozil bo'lish sababi bo'lganidek, "ar-Rahmon" surasi ham bundan mustasno emas. Bu sura Makkada nozil bo'lgan suralardan hisoblanadi. Ayrim mufasssirlar bu suraning Madinada nozil bo'lganini ta'kidlasa ham Makkada nozil bo'lgan, deganlar ko'proqdir. Ma'lumki, Qur'oni karim oyatlarining makkiy va madaniy ekanini bilish belgilari bor, o'sha qoida va belgilarga binoran qaraydigan bo'lsak, "ar-Rahmon" surasi makkiy ekani ustun bo'ladi.

Suralarning qayerda nozil bo'lganini nozil bo'lish sababi bilan bog'lab o'rganish mumkin. Yuqorida aytganimizdek, bu sura Makkada nozil bo'lgani ehtimoli yuqoriroq. Bu haqda aksar sahoba va tobeinlar ta'kidlab o'tgan.

Ba'zi mufasssirlar bu suraning nozil bo'lishiga mushriklarning so'zlari sabab bo'lganini aytadilar. Sura Qur'ondagi mushriklarning so'zlariga javoban kelgan. Furqon surasining 60-oyatida bunday deyilgan: **"Qachonki, (mushriklarga): "Rahmonga sajda qilingiz!" deyilsa, ular: "Nima u Rahmon? Sen buyurgan narsaga sajda qilaveramizmi?" deyishadi va (bu so'z) ularni yanada (iymondan) yiroqlashtiradi"** [1:365]. Demak, Allohning Rahmon vasfini isbotlash ma'nosiga ko'ra, sura so'zini Rahmonga qo'shish e'tibori bilan nomlagan. Alloh taolo mushriklarga Nabiy (*alayhissalom*)ga Qur'onni o'rgatgan Rahmondir, deb

javob berdi. Bu birinchi nozil bo'lgan suralardan biridir [10:228]. Bu o'rinda "ar-Rahmon" surasi "Furqon" surasi ortidan nozil bo'lganiga guvoh bo'lamiz. "Furqon" makkiy sura hisoblanadi.

Ba'zi olimlar bu sura mushriklarning Nabiy (*alayhissalom*) haqida, "Nahl" surasining 103-oyatida **"Unga (Muhammadga Qur'onni) biror odam o'rgatmoqda"** [1:279], deganlari sababli nozil bo'lganini aytgan. Mushriklarga Qur'onni o'rganishdan ko'ra Nabiy (*alayhissalom*)ga uni kim o'rgatgani qiziqroq bo'lgan. "Nahl" surasi Makkada nozil bo'lgani, "ar-Rahmon" surasining Makkada nozil bo'lganidan dalolat beradi.

Asmo binti Abu Bakr: "Rasululloh (*alayhissalom*)ning buyurilgan narsani aytishlaridan oldin rukn (*Ka'baning rukni*)ga qarab namoz o'qiyotganlarini ko'rdim. U zot **"Bas, (ey insonlar va jinlar!) Rabbingizning qaysi ne'matlarini inkor etasiz?!"** (oyati)ni qiroat qilar edilar. Mushriklar esa eshitib turardi", dedi [5:689]. Bu "ar-Rahmon" surasining "Hijr" surasidan oldin nozil bo'lganini taqozo qiladi.

Rivoyat qilinishicha, Ibn Mas'ud (*roziyallohu anhu*) u surani Ka'bada baland ovozda qiroat qilgan. Quraysh majlisidagilar unga qarshi turib, uni kaltaklashgan. Bu voqea hijratdan oldin bo'lgan. Voqeaning tafsiloti bunday bo'lgan. Sahobalar: "Quraysh bu Qur'onni hech qachon baland ovozda eshitmagan. Ularga eshittira oladigan odam bormi?" deyishdi. Ibn Mas'ud (*roziyallohu anhu*): "Men qiroat qilaman", dedi. Ular: "Biz sizga zarar yetishidan qo'rqamiz, biz uni himoya qiladigan urug'i bo'lgan bir odamni xohlaymiz", dedi. Ibn Mas'ud (*roziyallohu anhu*) rad etib, Maqomi Ibrohimda turib qiroat qila boshladi: "Ar-Rohmaan. Allamal Qur'aan" So'ng ovozini baland ko'tarib davom etdi. Quraysh o'z majlislarida edi. Ular tafakkur qilib, "Ibn Ummu Abd nima demoqda?" dedi. "Muhammad o'ziga vahiy bo'lgan deb o'ylaganini aytyapti", dedi. So'ng uni kaltaklashdi, hatto yuzida iz qoldirishdi [7:737].



“Ar-Rahmon” surasining Madinada nozil boʻlganini ma’qullaydigan tobeinlarning Ibn Abbos (*roziyallohu anhumo*)dan rivoyat qilgan gapi bor. Bu sura Hudaybiya sulhida Suhayl ibn Amr yozgan ahdnoma vaqtida nozil qilinganini aytgan. Shuningdek, Ibn Mas’ud (*roziyallohu anhu*)ga nisbat berilgan bir xabarda madaniy suralarga kirishi haqida ma’lumot kelgan.

Yana bir xabarda Ibn Abbos (*roziyallohu anhumo*)dan naql qilinadi. Unda **“Osmonlar va yerdagi (barcha) jonzot (hojatlarni) Undan so’rar. Har kuni U (tinimsiz) faoliyatdadir”** oyatidan boshqasi Makkada nozil boʻlgani ta’kidlangan. Bu esa suraning makkiy ekanini tasdiqlaydi. “Ar-Rahmon” surasi “Hijr” va “Fotir” suralaridan oldin, “Furqon” surasidan keyin nozil qilingan [10:228].

Suradagi oyatlardan kelib chiqib, uning makkiy suralar sirasiga kirishini, shuningdek, Qur’oni karimdagi Makkada nozil boʻlgan boshqa suralardagi xususiyatlarni qiyoslash orqali ham makkiyligini bilish mumkin. Demak, aytish mumkinki, “ar-Rahmon” surasi musulmonlar qalbida johiliyatdagi butparastlik tubanligidan poklangandan keyin iymon asoslarini tasdiqlashga dalolat qiladi. Shuningdek, uning markazi qayta tirilish va

qilmishiga yarasha mukofotini olish, jazo va savobga qaratilgan. Bu mavzular Qur’ondagi makkiy suralar asosini tashkil etgan.

Suraning uslubi va qoidalari, ko’rinishi, oyatlarning qisqaligi, va’da va ogohlantirish oyatlarining ajralib turgani, ogohlantiruvchi oyatlarining shiddati va va’da oyatlaridagi xushxabarlar uning makkiy ekaniga eng yaxshi dalildir.

Qur’oni karim barcha odamlarga har bir makon va zamonda murojaat qilish uchun mos boʻlgan hidoyat va shariat kitobidir. Ibn Oshur “Tahrir vat tanvir” nomli tafsirining beshinchi muqaddimasida bunday degan: “Qur’on ummatni hidoyat qilish va unga shariat qonuni boʻlib kelgan kitobdir. Bu hidoyat ehtiyojdan oldin kelishi ham mumkin (*Ya’ni Alloh hidoyatga biror narsani sabab qilmasligi ham mumkin*). Gohida u bir qavmga tanbeh yoki maqtov yo boshqa ko’rinishdagi xitob bo’lishi mumkin. Shuningdek, u o’ziga tegishli bo’lgan har bir kishiga xitob bo’lishi ham mumkin. U bularning barchasida shariat va intizomning umumiy tushunchalarini olib kelgan. Buning hikmati shundaki, ummatning diniga bo’lgan diqqat-e’tiborini yengil qilish, dinning to’g’ri yetkazilishiga imkon yaratish va ummat ulamolari uchun

Annotatsiya. Ushbu maqolada takrir san’ati eng ko’p qo’llanilgan “ar-Rahmon” surasi haqida kengroq ma’lumotlar beriladi. Suraning Makkada yoki Madinada nozil bo’lgani, o’zidan oldingi va keyingi suralar bilan bog’langani o’rganiladi. Nozil bo’lish sababi ham sahoba va tobeinlarning xabarlarini, allomalarning fikrlari orqali bayon etiladi.

Suraning fazilati, naqadar buyuk va qadrli ekani yetuk olimlarning manbalari asosida yoritiladi. Shuningdek, ne’matlarga shukr lozimligi asosiy maqsadlardan biri ekani namoyon etiladi.

Abstract. This article provides more information about Surah Rahman, which is the most widely used art of takrir. It is studied whether the surah was revealed in Makkah or Madinah, and whether it is related to previous and subsequent surahs. The reason for the revelation is explained through the messages of the Companions and followers, and the opinions of scholars.

The virtue of the surah, how great and valuable it is, is explained on the basis of the sources of mature scholars. It is also shown that gratitude for blessings is one of the main goals.

Kalit so’zlar: ar-Rahmon, takrir, makkiy, madaniy, ogohlantirish, ta’didlash, jannat, do’zax, ikki bog’.

Key words: “ar-Rahman”, repetition, mecciy, madaniy, warning, accent, paradise (heaven), hell, two gardens.

undan hukm olish afzalligining borligidadir [9: 50]. Qur'on ilmlariga tegishli bu kitoblar shu ma'no bilan boyigan.

Yuqorida suraning qayerda nozil bo'lgani haqidagi ma'lumotlarda nozil bo'lish sabablari ham keltirildi. Shunga qo'shimcha qilib quyidagi hadisni keltirib o'tamiz. Abu Bakr Siddiq (*roziyallohu anhu*) qiyomat kunidagi tarozi, jannat va do'zax haqida eslab, bunday degan: "Qaniydi yam-yashil ko'katlardan biri bo'lsam, hayvonlar kelib meni yesa edi. Men (*odam bo'lib*) yaratilmaganimda edi" [6:250]. Shunda Alloh taoloning: **"Parvardigori (huzurida) turishdan (so'ralishdan) qo'rqqan kishi uchun ikki jannat (bog'i) bordir"** [1:533] ("ar-Rahmon" surasi 46-oyat), so'zi nozil bo'lgan.

Makkiy suralarning asosiy mavzusi bo'lgan aqida asoslari masalasi bu suraning ham mavzusidir. Unda Yaratganning bandalariga in'om etgan turli moddiy va ma'naviy ne'matlari haqida so'z yuritiladi. Shuning uchun uni Ne'mat surasi ham deb atash mumkin.

Rasululloh (*alayhissalom*) hadislarida bu suraning fazilatlarini bayon qilganlar. Qur'onning kelinchagi, uni o'qigan kishini ham, ahlini ham Alloh taolo rahm qilishi haqida bunday deganlar:

Ali (*roziyallohu anhu*)dan rivoyat qilinadi: "Nabiy (*alayhissalom*): **"Har bir narsaning kelini bor, Qur'onning kelini "ar-Rahmon" surasidir"**, dedilar" [4:489]. Chunki bu surai karima xuddi kelinlar bezaklari bilan boshqalardan farqlanib turgandek, o'ziga xos uslubi bilan boshqa suralardan ajrab turadi.

Abu Hurayra (*roziyallohu anhu*)dan rivoyat qilinadi: "Rasululloh (*alayhissalom*): **"Kimki "ar-Rahmon" surasini o'qisa, Alloh taolo uning zaiflariga rahm qiladi va unga bergan ne'matlarning shukrini ado qilgan bo'ladi"**, dedilar [8:366].

Parvardigorning bizga bergan ne'matlarining son-sanog'i yo'q. Ne'matlarning haqqini ado qilish, ularga shukr qilish bilan bo'ladi. Ne'mat beruvchi Zotga shukr qilmaslik, Alloh taolo bergan ne'matlarni inkor

qilish demakdir. Shukr iymonning dalillaridan biri, noshukurlik esa kufrning dalilidir.

Fotima (*roziyallohu anho*)dan rivoyat qilinadi: "Rasululloh (*alayhissalom*): **"Hadid", "Iza vaqoa" va "ar-Rahmon" suralarini o'qiydigan qori osmonlaru yer saltanati-da "Firdavsda yashovchi" deb chaqiriladi"**, dedilar" [4:490-b].

Aksar mufasssirlar "ar-Rahmon" surasi haqidagi so'zboshida Jobirning hadisini keltirishgan. Muhammad ibn Munkadirdan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sahobalarining oldiga chiqib, ularga "ar-Rahmon" surasining avvalidan oxirigacha qiroat qilib berdilar. Ular sukut saqladilar. Shunda u zot: "Uni jin kechasi jinlarga qiroat qilib bergandim. Ular sizlardan ko'ra chiroyliroq javob qaytardi. Alloh taoloning har: **"Bas, (ey insonlar va jinlar!) Rabbigizning qaysi ne'matlarini inkor etasiz?!"** degan so'ziga kelganimda, ular: "Rabbimiz, Sening ne'matlaringdan biror narsani inkor etmaymiz. Senga hamd bo'lsin!" der edilar" [11:415].

Qurtubiy tafsirida bunday keltirgan: "Qays ibn Osim Minqariy Rasululloh (*alayhissalom*)ga: "Menga vahiy qilingan narsani o'qib bering", dedi. U zot "ar-Rahmon" surasini o'qib berdilar. U: "Qaytaring", dedi, u zot uch marta takrorladilar. Shunda Qays: "Allohga qasamki, uning bir nazokati bor, uning ustida halovat bor, pastki qismi to'yinagan, yuqori qismi esa mevalidir. Buni (*oyatlarni*) odamzod aytmagan. Men guvohlik beramanki, Allohdan o'zga iloh yo'q va siz Allohning Rasulisiz", dedi" [12:112].

Abu Bakr ibn Abdulloh ibn Qays (*roziyallohu anhu*) otasidan rivoyat qiladi: "Rasululloh (*alayhissalom*) bunday dedilar: "Jannatda ikki g'ovak marvariddan chodir bor. Uning eni oltmish mil. Har bir burchagida bir ahl bor bo'lib, narigilarini ko'rmaydilar. Mo'min ularni aylanib chiqadi.

Ikki jannat kumushdandir. Idishlari ham, ichlaridagi narsalar ham. Ikki jannat falon narsadandir. Idishlari ham, ichlaridagi narsalari ham. Adn jannatida odamlar bilan ularning Rabbilariga nazar solishlari ora-



sida U Zotning Yuzidagi kibriyo ridosidan boshqa narsa bo'lmaydi" [13:363]. Ya'ni, tirikligidayoq tayyorgarlik ko'rib yurganlar, yaxshilik bilan kun kechirganlar uchun ikki jannat bor. Undagi kishilar birinchi jannat bog'lari bilan ikkinchi jannat bog'lari orasida sayr qilib yuradilar. Ular rohat ustiga rohat, farog'at ustiga farog'atda bo'ladilar. Bu hadisi sharif "ar-Rahmon" surasidagi oyatlar xususida aytilgan.

Suraning tavsifi. Rahmon – Allohning go'zal ismlari va sifatlaridan biri bo'lib, ilk oyati shu so'z bilan boshlangani uchun suraga shunday nom berilgan. "Ar-Rahmon" surasi Usmoniy mus'hafda ellik beshinchi sura bo'lib, "Zariyat", "Tur", "Najm" va "Qamar" surasidan keyingi, "Voqea" surasidan oldingi, mufassal bo'limining beshinchi surasidir. Uch yuz ellik ikkita so'zdan va bir ming besh yuz sakson besh harfdan iborat.

Madinada nozil bo'lganini qo'llab-quvvatlovchi olimlar nozil bo'lish tartibi to'qson sakkizinchi, "Ra'd" surasidan keyin va "Inson" surasidan oldin nozil bo'lganini aytganlar.

Makkada nozil bo'lgan deganlar esa, nozil bo'lish tartibi qirq uchinchi, "Fotir" surasidan oldin va "Furqon" surasidan keyin bo'lganini ta'kidlagan.

Suraning oyatlarini Shom va Kufa olimlari yetmish sakkizta, Makka va Madina olimlari yetmish yettita, Basra ulamolari yetmish oltita, degan [10:215].

"Ar-Rahmon" surasi insonlar va jinlarga ato qilingan ne'matlar haqida nozil bo'lgan. Birinchi bo'lib eng ulkan ne'mat – Qur'oni karim tilga olinadi. Qur'oni karimning har bir oyati, har bir surasi ham lafz, ham ma'no, ham hukmiy xabarlar jihatidan odamlarni ojiz qoldiruvchidir. Ya'ni, insonlar har qancha urinsalar ham unga o'xshash narsani ijod qila olmaydilar.

Suraning 31-oyatidan boshlab do'zax hamda gunohkorlar tasvirlanadi, 46-oyatidan boshlab jannat vasfi keladi.

Mazkur surada "**Bas**, (ey insonlar va jinlar!) **Rabbingizning qaysi ne'matlarini inkor etasiz?!**" [1:531-534] oyati o'ttiz bir

marta takrorlangan. Bu oyatning takriri bit-ta surada ajralib kelgan so'z va ma'noning takror turiga kirib, shulardan sakkiz martasi Allohning ajoyib san'ati, qudrati, maxluqotning yaratilishi, ularning qayta tirilish zikridan keyin, yettitasi esa do'zax va uning qiyinchiliklari zikridan so'ng, undan keyingi sakkiztasi esa, jannat va uning ahli zikridan keyin kelgan. So'nggi sakkiztasi esa oldin zikri kelgan jannatlardan boshqa jannat va uning vasfidan keyin kelgani ma'lum bo'ladi. Kimki avvalgi sakkiztaga e'tiqod qilsa va unga yarasha amal qilsa, Alloh taolo unga jannat eshiklarini ochib, do'zax eshiklarini yopadi [3:418].

Ba'zida Alloh taoloning bergan ne'matlari zikridan so'ng shu ne'mat Allohdan ekani ta'kidlash, uni e'tirof etib, shukr qilishga da'vat ma'nosida kelgan bo'lsa, ba'zida insonning Allohga qilgan isyoni zikridan so'ng qo'rqitish, kufrdan qaytarish ma'nosida kelgan [14:9]. Suraning oxiri Alloh taoloni ulug'lovchi oyatlar bilan tugagan.

Oldingi sura bilan munosabati haqida aytadigan bo'lsak, Qamar surasida "ogohlantirish"ni inkor etuvchilarga qarshi shiddatli, tahdid ma'nosidagi so'zlar aytilgan bo'lib, unda kofir, dinni yolg'onga chiqaradigan xalqlarning halokatga uchrashi haqida bir necha ko'rinishlar keltirilgan. Suraning oxirida bu mutakabbir va adashgan kimsalar taqdiri haqida qisqa ishoralar kelgan: "(Bugina emas) **balki ularga** (jazolashga) **va'da qilingan vaqt qiyomatdir. Qiyomat esa, yanada halokatli va achchiqroqdir. Albatta, jinoyatchilar gumrohlik va xatolikdadir. Ular yuz tuban hollarida do'zax sari sudraladigan kunda** (ularga): **"Do'zax ta'sirini totib ko'ringiz!"** (deyilur)" [1:530] ("Qamar" surasi 46-48-oyatlar). Bu qisqacha ma'lumot ortidan "ar-Rahmon" surasida qiyomatning alamli vasfi, koinot, so'ng do'zax va uning ahli batafsil tasvirlangan: "(Balki) **jinoyatchi (osiy) kimsalar o'z belgilaridan tanilib, peshona sochi va oyoqlaridan tutilurlar** (va jahannamga tashlanurlar). **Bas**, (ey insonlar va jinlar!) **Rabbingizning qaysi ne'matlarini inkor**

etasiz?! Jinoyatchi (kofir)lar yolg'on dey-digan jahannam mana shudir. Ular o'sha (jahannam) bilan o'ta qaynoq suv o'rtasida aylanib tururlar" [1:533] ("ar-Rahmon" surasi 41-44-oyatlar).

"Qamar" surasining oxiridagi ikki oyat solihlar uchun qisqa ko'rsatma bo'lib, ular mustahkam iymon va solih amallari uchun nimalarga loyiq ekaniga dalolat qiladi: **"Albatta, taqvodorlar (jannatdagi) bog'lar-da va daryolar uzradirlar. (Ular) qudratli podshohning (Allohning) huzuridagi sadoqat maqomida bo'lurlar"** [1:531]. Bu ma'noning tafsiloti "ar-Rahmon" surasining 46-oyatida Rabbi huzurida turish va Uning azobidan qo'rqqanlar haqida kelgan: **"Parvardigori (huzurida) turishdan (so'ralishdan) qo'rqqan kishi uchun ikki jannat (bog'i) bordir"** [1:533]. Shuning uchun bu bog'larda nam shox-novdalar, oqayotgan chashmalar va mo'l-ko'l mevalar kabi ne'matlar borligi vasf qilingan.

Mashhur mufasssir Imom Olusiy ham shunday ma'noni ta'kidlagan: "Qamar" surasini "ar-Rahmon" surasidagi jumlar tartib bo'yicha to'ldirib kelgan. Qiyomatning almini tavsiflashdan boshlab, uning shiddatiga ishora qilgan. So'ng do'zax va uning ahli vasfini keltirgan. Bu haqda Alloh taolo: **"(Balki) jinoyatchi (osiy) kimsalar o'z belgilaridan tanilib, peshona sochi va oyoqlaridan tutilurlar (va jahannamga tashlanurlar)"** [1:533] ("ar-Rahmon" surasi 41-oyat), dedi. So'ngra jannat va uning ahlini tavsif etgan. Ular haqida Alloh taolo: **"Parvardigori (huzurida) turishdan (so'ralishdan) qo'rqqan kishi uchun ikki jannat (bog'i) bordir"** [1:533] ("ar-Rahmon" surasi 46-oyat), degan. Bu esa taqvoning ayni o'zi va mohiyatidir. Ajratish va batafsillikda lafzlarning muvofiq kelishi uchun "iymon keltirgan yoki itoat qilgan yo shunga o'xshagan kishi uchun", degan ma'nolarni aytmagan. Shundan bu suraning o'zidan oldingi suraga sharh kabi ekani e'tirof etiladi" [2:97].

Voqea surasi bilan muvofiqligi haqida aytadigan bo'lsak, "ar-Rahmon" surasida uch toifa odamlar taqdim etilgan. Birinchisi

azobga loyiq bo'lgan jinoyatchilar. Qolgan ikki toifaning biri yaxshilikda o'zib ketganlar, ular haqida **"Parvardigori (huzurida) turishdan (so'ralishdan) qo'rqqan kishi uchun ikki jannat (bog'i) bordir"**, degan. Ikkinchisi haq (o'ng tomon) egalari, ular uchun **"U ikkisidan boshqa yana ikki bog' bordir"**, deyilgan. Lekin bu surada ularni aniq nom bilan keltirmagan va chegaralab qo'ymagan.

"Voqea" surasida esa, bu uch toifaning nomlari, martabalari va oxiratda oladigan haqlari batafsil yoritilgan. "Voqea" surasining 7-oyatida **"Sizlar esa uch toifa bo'lursiz"** [1:534]. Ular: yaxshilikda o'zib ketganlar, o'ng tomon egalari va jinoyatchi (*osiy*)lar. Surada jannat ahli ikki katta toifa bo'lib, ular yaxshilikda o'zib ketganlar va o'ng tomon egalari. Ularning har birida baraka borligini ko'ramiz. "ar-Rahmon" surasida Alloh taoloning **"Parvardigori (huzurida) turishdan (so'ralishdan) qo'rqqan kishi uchun ikki jannat (bog'i) bordir"** degan so'zidan bu ikki jannat "yaxshilikda o'zib ketganlar" uchun ekaniga ishora qilingan edi. Ular yuqori martabaga ega bo'lgan jamoa uchundir va u "Voqea" surasining 10-11-oyatlarida **"Ezgu ishlarda o'zib-o'zib ketgan zotlar. Aynan o'shalar (Allohga) yaqin zotlaridir"** [1:534] deb zikr etilgan jamoa bo'lishi mumkin. So'ngra yuqorida aytilgandan boshqa yana ikkita jannat borligini bildik. Bu ikki jannat egalari yuqoridagi ikki jannat egalari yaqin jamoa ekaniga ishora qilamiz va u "Voqea" surasining 8-oyatida **"Bas, (u uchtaning biri) o'ng tomon egalari. O'ng tomon egalari (bo'lmoq) ne (sodat)dir!"** [1:534] deb zikr qilingan jamoa bo'lishi mumkin. Azobga loyiq bo'lgan jinoyatchilarni esa, Voqea surasining 9-oyatida **"(Bir toifa) chap tomon egalari. Chap tomon egalari (bo'lmoq) ne (baxtsizlik)dir!"** [1:534] deganiga muvofiqligini ko'rishimiz mumkin.

"Ar-Rahmon" va "Voqea" suralari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri qiyomat, jannat va do'zaxning tavsifini o'z ichiga olgan. Abu Hayyondan ri-



voyat qilinadi: “Undan – “Voqea” surasidan – oldingi “ar-Rahmon” surasi jinoyatchilar uchun azob va mo‘minlar uchun saodatni o‘z ichiga oladi. Alloh taolo mo‘minlardan ba‘zilarini ikki jannatga, qolgan ba‘zilarini yana boshqa ikki jannatga ajratdi. Yetuk kishilar buni kofirlar, solih mo‘minlar va gunohkor mo‘minlarga bo‘lgan. Shunga asoslanib, bu suraning boshlanishi ularning “o‘ng tomon egalari”, “chap tomon egalari” va “yaxshilikda o‘zib ketganlar” bo‘lishlaridan kelib chiqqan”, degan. Ba‘zi ulamolar esa aytganlar: “Alloh taoloning: **“Qachonki, qiyomat voqe (qoim) bo‘lganda”** [1:534] (“Voqea” surasi 1-oyat) va **“Bas, qachonki, (qiyomat qoim bo‘lgach) osmonlar yorilib...”** [1:532] (“ar-Rahmon” surasi 37-oyat) degan so‘zida bog‘liqlikka qarangki, “ar-Rahmon” surasida faqat osmonlarning yorilishini zikr qilish bilan, “Voqea” surasida esa yerning larzaga ke-

lish zikri bilan cheklangan. Shuning uchun bu ikki sura bir-biriga bog‘liq bo‘lib, xuddi bitta suradek taassurot qoldirgan. Shunday qilib, bu ikki surada hamma narsani zikr etgan va tartibni teskari qilgan. Shuning uchun “Voqea” surasining boshida “ar-Rahmon” surasining oxiridagi narsani va “ar-Rahmon” surasining boshida “Voqea” surasining oxiridagi narsani zikr qilgan. “ar-Rahmon” surasi Qur‘on, quyosh va oy, o‘simliklar haqida, inson va jinlarning yaratilishi, qiyomat kuni, do‘zaxning, so‘ngra jannatning sifatlaridan boshlab ochib bergan. “Voqea” surasi esa qiyomatning eslatmasi bilan boshlanib, jannat va do‘zaxning tavsifi, insonning yaratilishi, o‘simliklar, suv, olov, so‘ngra yulduzlar zikr qilingan. “Ar-Rahmon” surasida zikr qilinmaganlarni “Voqea” surasida eslatilgan. Bu bir-birini qiyoslashni o‘z ichiga olgan to‘ldiruvchi kabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2021.
2. Abul Barakot Nasafiy. Madorikut tanzil. J. III. – Bayrut: Dorul kalimit toyib, 1998.
3. Bayhaqiy. Shuabul iymon. J. II. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiya, 1990.
4. Ibn Asir. Usdul g‘oba. – Bayrut: Dor Ibn Hazm, 2022.
5. Ibn Odil Dimashqiy. Al-Lubob fi ulumil Kitob. J. XVIII. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiya, 1998.
6. Ibn Oshur. At-Tahrir vat tanvir. J. I. – Tunis: Dor sahnun, 1997.
7. Ibn Oshur. At-Tahrir vat tanvir. J. XXVII. – Tunis: Dor sahnun, 1997.
8. Jaloliddin Suyutiy. Ad-Durrul mansur. J. VII – Bayrut: Dorul fikr, 1993.
9. Jaloliddin Suyutiy. Lubobun nuqul fi asbobin nuzul. – Bayrut: Muassasatul kutubis saqofiyya, 2002.
10. Muhammad Ali Sobuniy. Muxtasar tafsir Ibni Kasir. J. III. – Bayrut: Dorul Qur‘onil karim, 1981.
11. Muhammad ibn Ahmad Qurtubiy. Al-Jomi’ li ahkomil Qur‘on. J. XX. – Bayruta: Muassasatur risola, 2006.
12. Oltin silsila. Sahihul Buxoriy. J.VI. – Toshkent: Hilol-Nashr 2018.
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. J. VI. – Toshkent: 2008.
14. Shihobiddin Mahmud Olusiy. Ruhul ma‘oniy fi tafsiril Qur‘on. J. XXVII. – Bayrut: Dor ihyoit turosil arabiy, 2009.

Ahmadxon RASHIDOV

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
islom instituti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail.: axmadxon1978@gmail.com*

QIROAT ILMINING BUYUK USTOZI

THE GREAT TEACHER OF THE SCIENCE OF QURAN READING

Qur'oni karim Rasululloh (*alayhissalom*)ga Allohdan vahiy orqali bo'lib bo'lib nozil qilingan va u zotning qalblarida yod bo'lgan. So'ngra Payg'ambar (*alayhissalom*) ushbu omonatni sahobalarga yetkazganlar. Asta-sekin sahobai kiromlarning ichida Qur'oni karimni to'liq yod olib qiroat bobida ko'zga ko'ringanlari yetishib chiqqan boshladi. Ular boshqa sahobai kiromlarga va keyingi avlodlarga Qur'oni karim qiroatidan dars beradigan bo'ldilar. Rasululloh (*alayhissalom*)dan qanday eshitgan va o'rgangan bo'lsalar, shunday holda tajvid-tartil bilan o'zlaridan keyingilarga yetkazganlar va ta'lim berganlar.

Vaqt o'tishi bilan Islom dini arab jazirasidan boshqa mamlakatlarga tarqala boshlagach, arablardan boshqa xalqlar orasida Qur'oni karim tilovatini o'rganishda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Shu bois, ulamolar tomonidan bu muammoni hal etishga kirishildi. Avvalda nuqta va harakatlardan xoli bo'lgan Usmoniy Mus'hafga nuqta va harakatlar qiroat sohasi mutaxassisleri va tilshunos olimlar tomonidan qo'yildi. Shu tariqa asta-sekinlik bilan Qur'oni karimni o'quvchi har bir kishi amal qilishi lozim bo'lgan qiroat va tajvid qoidalari nazariy jihatdan ishlab chiqildi.

Tobeinlar davriga kelib Islom ko'p yerga tarqalgan, musulmonlarning soni ko'paygan va har bir o'lka o'z qorilariga ehtiyoj sezib qolgan edi. Shuning uchun ham to-

beinlardan qiroatga mohir va ustoz bo'lganlar, turli o'lkalarda o'z maktablari faoliyatini joriy qilganlar.

Qur'on qiroati haqida so'z yuritilganda, uning ilmiy nazariyalarini ishlab chiqqan yetuk olimlar yodga keladi. Mazkur peshqadam olimlardan biri, shubhasiz, imom Shotibiydir.

Qorilar sayyidi, shayx, alloma, imom Shotibiyning to'liq ismi Abu Muhammad Abul Qosim ibn Firruh ibn Xalaf ibn Ahmad Ru'ayniy Andalusiy Shotibiydir. U hijriy 538- (milodiy 1143) yil Andalusiya (*hozirgi Ispaniya*)ning Shotiba shahrida tavallud topgan [4:423]. Manbalarda uning ko'zlari ojiz holda tug'ilgani zikr qilinadi.

Ba'zi tadqiqotchilar uning kunyasi bo'lmish Abul Qosimni o'zining Qosim degan ismi deydi. Uning mashhur kunyasi Abu Muhammaddir. Imom Zahabiy "Ma'rifatul qurroil kibor", "Tazkiratul huffoz", "Ibar" kitoblarida, Ibn Jazariy "G'oyatun nihoya" kitobida, Ibn Qozi Shuhba "Tabaqot" kitobida uning ismi Qosim ekanini to'g'ri deb ta'kidlaganlar.

Firruh nomi Andalusiya shevasidagi lotin tilidan olingan bo'lib, ma'nosi arab tilida "hadid" ("temir") ma'nosini ifoda etadi. Ruayniy Yamandagi Zi Ruayn qabilasiga nisbat bo'lib, ushbu qabilaga mansub odamlar Misr va boshqa shaharlarga ham ko'chib borgan ekanlar. Imom Shotibiyning asli ham ushbu qabilaga mansub hisoblanadi.

Shotibiy deyilishiga sabab esa olimning tug'ilgan shahariga nisbat berishdir. Shotiba Andalus sharqida qal'a bilan o'ralgan katta shaharning nomi hisoblanadi.

Abu Amr ibn Saloh "Tabaqotush shofeyya" asarida yozishiga ko'ra, Abul Qosim Shotibiy o'z vatanida Abdulloh Abu Os Nafariy oldida Qur'oni karimni to'la hifz qildi va undan yetti qiroatni o'rgandi. Qadimiy Andalusiyanning Valensiya shahriga ko'chib o'tgach, ikkinchi ustoz Abul Hasan ibn Huzayldan qiroat ilmiga oid "Taysir" kitobidan ta'lim oldi. Keyinchalik Shotibiy mazkur asar asosida o'zining mashhur qasidasini yozdi".



Mashhur tarixchi Ibn Xallikon deydi: “Shotibiyning ustozlari uni Abu Muhammad Vosil deb ataganlar. Shotibiy behuda, befoyda va ortiqcha gapirmasdi, faqat zarurat yuzasidan soʻralgan narsaga javob berardi. U bemor boʻlib qolsa, kasalligi haqida hech kimga shikoyat qilmas va sezdirmasdi. Agarda uning ahvoli soʻralsa, u “Allohga shukr, sogʻligʻim yaxshi” deb qoʻyar edi, xolos”.

Imom Shotibiyning Abul Hasan ibn Naʼma, Abu Abdulloh ibn Saoda, Abu Muhammad ibn Omr, Abu Abdulloh ibn Abdurrahim, Alim ibn Abdulaziz kabi oʻz davrining yetuk qiroat ustozlardan ham taʼlim olgani maʼlum.

Imom Shotibiy hijriy 572 (milodiy 1177) -yilda haj ibodatini amalga oshirish maqsadida safarga otlanadi va safar davomida Misr davlatining Iskandariya shahriga keladi. U bu shaharda yashab qolgan Imom Hofiz Abu Tohir Ahmad ibn Muhammad ibn Salafa Isfahoniy va boshqa olimlardan hadis eshitadi. Bundan Imom Shotibiyning qiroat ilmi bilan bir qatorda hadis ilmini ham oʻz davrining yirik ulamolaridan oʻrganganini koʻrish mumkin.

Makka shahrida esa Abu Tohir Silafiy kabi katta olimlardan taʼlim oladi [4:424]. Shuningdek, Abu Abdulloh Muhammad ibn Hamid huzuriga shogirdlikka borib undan mashhur tilshunos olim Sibavayhning “Komil” nomli kitobini va Ibn Qutaybaning “Adabul kotib” nomli kitoblardan taʼlim oladi. Shundan keyin haj safariga otlanadi [1:498].

Abu Shoma Saxoviy Imom Shotibiy haqida bunday degan: “Shotibiy muborak haj ziyorati maqsadida safar qildi. Natijada, boshqa mamlakatlarda ham boʻlib, koʻplab olimlardan taʼlim oldi va oʻz navbatida boshqa shogirdlariga taʼlim berdi”.

Imom Shotibiy Misrga safar qilib borganida, qozi Fozil Abdurrahim unga alohida ehtirom koʻrsatib, “Foziliyya” madrasasida talabalarga Qurʼon, hadis, nahv va arab tilidan dars berishga taklif qiladi va unga barcha qulay sharoitlarni yaratib beradi. Shu asnoda Imom Shotibiy bu madrasada Qurʼon qiroati ustozlariga boshchilik qildi hamda nomi mashhur boʻldi. Qurʼon oʻqitish boʻyicha raislik darajasigacha yetdi va undan taʼlim olish maqsadida har tarafdin ilm toliblari kela boshladi. Alloma Shotibiy vafotigacha shu yerda dars berib qoldi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Sulton Salohiddin Ayyubiy Baytul Maqdis diyorini fath qilgach, hijriy 589 (milodiy 1193) -yilda u kishi Imom Shotibiy ziyoratiga borib, Ramazon roʻzasini u bilan birga tutadi [3:495].

Shotibiy Qurʼon qiroati, Rasululloh (*alayhissalom*) hadislari va tafsir ilmida olim darajasiga yetgan va zamonasining nahv ilmi boʻyicha ham taniqli olimlardan boʻlgan. Uning oldida Imom Buxoriy va Imom Muslimning “Sahih”lari va Imom Molikning “Muvatto”laridan hadis oʻqilsa, kitobga qaramasdan ulardagi xatolarni yoddan aytardi va kitoblarni grammatik jihatdan harakat-

Annotatsiya. Ushbu maqolada koʻplab islomiy ilmlar bilan bir qatorda Qurʼoni karimni toʻgʻri oʻqish qoidalarini bayon qiluvchi Qurʼon qiroati va tajvid ilmida Andalusiya diyorining XII asrdagi peshqadam olimlaridan biri boʻlmish alloma Abu Muhammad Shotibiyning hayoti, ilm yoʻli va ustozlari, ilmiy salohiyati va oʻziga xos xislatlari, shogirdlari, ilmiy merosi, vafoti haqida soʻz yuritiladi.

Abstract. In this article, along with many Islamic sciences, the full name of Allama Abu Muhammad Shatibi, one of the leading scholars of the 12th century in the science of Qurʼan recitation and tajwid, which describes the rules of correct reading of the Holy Quran, year and place of birth, life, path of science and teachers, scientific potential and unique qualities, students, scientific legacy, death are discussed.

Kalit soʻzlar: Qurʼon, yetti qiroat, tajvid, shayx, manba, asar, sharh, hijriy.

Keywords: Quran, seven recitations, tajweed, sheykh, source, work, commentary, hijri.

laridagi juz'iy kamchiliklarni ham to'g'rilab qo'yardi.

Imom Shotibiy fiqh ilmida ham mohir bo'lgan. Uning huzurida bir fiqhiy masala tug'ilib qoladi. Shunda u zot bu xususda hujjat aytib, kitob keltirishni so'raydi va: "Bu haqda falon joydan qidiringlar", deb, qaysi bet, qaysi o'rin va qaysi mavzuda kelganigacha aytib beradi. Talabalar dalillarni aytilgan joydan topishgach: "Fiqhni ham yodlaganmisiz?" deb so'rashdi. Imom Shotibiy: "Men bir tuyaga yuk bo'ladigan kitoblarni yodlaganman", – deb javob beradi. "Unday bo'lsa, fiqhdan dars bermaysizmi?" – deyishganda u zot: "Ko'rlarniki faqat Qur'ondir", – deb javob beradi.

Imom Shotibiyning ilm majlislarida ishtirok etgan shogirdlari, u kishidan ko'p karomat va ajoyib nasihatimiz hikoyalar tinglaganlarini tilga olib o'tishgan.

Ibn Jazariy: Abul Maoliy ibn Aynul Fuzaloning "Misbah" nomli kitobida ushbu narsani o'qigan edim: "Imom Shotibiy aytdilar: "Men ketma-ket o'n kecha Rasululloh (*alayhissalom*)ni ravzai sharifda ko'rib, u zotga Qur'on o'qib berdim. Shunda u zot (*alayhissalom*) menga: "Alloh seni shubhalardan himoya qilsin", deganlar".

Imom Shotibiyning Alloh taologa bo'lgan iymoni va qalbi kengligiga dalolat qiluvchi karomatlaridan yana biri haqida shogirdi Alamiddin Saxoviy (vaf. 643/1245) shunday deydi: "Bir kuni u zot menga: "Shayton bilan mening o'rtamizda suhbat bo'lib o'tdi. U menga: "Agar bunday qilsang, seni halok qilaman", degan edi, men unga: "Bilganingni qil, menga baribir", dedim", dedi".

Imom Shotibiy hayotidagi go'zal voqealardan yana biri, u Misrga borgan vaqtida Misr voliysi u zotga juda katta hurmat ko'rsatib o'zining saroyidan joy berib, go'zallik va nasabda tengi yo'q aslzoda ayollardan biriga nikohlab qo'ydi. Keyinchalik bir qancha kanizaklar uning ayoliga fitna qilib "Siz go'zal, tengi yo'q, aslzoda ayol edingiz, podshohimiz sizni ko'zi ojiz kishiga nikohlab berdi, qiroat imomi bo'lsa ham sizni tengingiz emas, u kishining ko'p vaqti mad-

rasada o'tsa, sizning qadringizga yetarmidi? Siz u kishidan talog'ingizni so'rang, so'ngra falonchi vazir yoki falonchi shahzodaga tegib olasiz!", – dedilar. Imom Shotibiy madrasadan kelib tahorat olmoqchi bo'lib turganida, uning rafiqasi yuqorida kanizaklar unga aytib o'tgan sifatlarini zikr qilib bu sifatlardan esa, Shotibiyning bexabarligi, ya'ni rafiqasini jamolda tengi yo'q ayollardan ekanini ko'ra olmasligini aytib, eridan talog'ini berishini so'raydi.

Shunda Shotibiy rafiqasiga tahoratga suv olib kelishini buyuradi. Rafiqasi suvni olib kelganida, Shotibiy uni yoniga cho'kkalab o'tirishini buyuradi. Rafiqasining sochlari orasida bor-yo'g'i bir dona oq soch tolasini sochlari orasidan topib: "Mana buni ko'ringmi? Men seni ko'raman va jamolingni qadrlayman, xotirjam bo'l!" deydi. Shundan so'ng ayoli aytgan so'zlariga pushaymonligini aytib, kechirim so'raydi.

Rivoyatlarga ko'ra, Shotibiy "Foziliyya" madrasasida subh namozini o'qigach, qiroatdan dars berishga o'tirar edi. Kishilar o'qib berishga navbat olish uchun bir-birlari bilan musobaqalashishni tunda boshlab, u zot huzuriga yetib kelishar edi. Shotibiy o'z o'rinlariga o'tirgach, "Kim birinchi kelgan bo'lsa, o'qisin", degan so'zdan boshqani gapirmas edi. So'ng birinchi kelgan kishining, keyin undan so'ng kelgan kishining darsini tinglar edi. Bir kuni Shotibiy odatga xilof ravishda: "Kim ikkinchi bo'lib kelgan bo'lsa, o'sha o'qisin", – dedi. Ikkinchi kelgan kishi o'qishni boshlaydi. Birinchi kelgan talaba qolib ketganidan hayron bo'lib, buning sababini bilolmay, "Shayxning darsidan mahrum bo'lishimga qaysi gunohim sabab bo'ldi ekan", deb o'ylanib qoladi va o'sha kechasi ehtilom bo'lgani, qiroatga ishtiyoqi qattiqligidan g'usl qilishni unutmagan va uyqudan turiboq shayx huzuriga kelganini eslaydi. Shotibiy bundan voqif bo'lgani uchun uning emas, ikkinchi kelgan kishining o'qishiga ishora qilgan bo'ladi.

So'ngra haligi yigit madrasa yonidagi hammomga yugurib boradi va g'usl qilib,



shayx o'sha ikkinchi kishi qiroatini tinglab tugatmasidanoq yetib keladi. Ko'zi o'jiz shayx avvalgi holatida o'tirar edi. Ikkinchi qori qiroatini tugatishi bilan u: "Kim birinchi kelgan bo'lsa, o'qisin", deydi. Yigit qiroatni boshlaydi.

Imom Shotibiydan o'z zamonining yirik allomalariga aylangan shaxslar ta'lim olgan. Jumladan, Abul Hasan Ali ibn Muhammad Saxoviy qiroat ilmlarini ta'lim olgan. Aynan Abul Hasan Saxoviy ustoz Shotibiyning vafo-tidan so'ng qorilarning ustoz sifatida e'tirof etilgan. Bundan tashqari, Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar Qurtubiy, Sadid Iso ibn Makkiy, Murtazo ibn Jamoa, Kamoliddin Ali Shujo Zarir (*Shotibiyning kuyovi*), Zayn Muhammad ibn Umar Kurdiy, Abul Qosim Abdurrahmon ibn Said Shofeyi, Iso ibn Yusuf ibn Ismoil Maqdisiy, Ali ibn Muhammad ibn Muso Najbiy, Abdurahmon ibn Ismoil Tunisiy va boshqalar.

Imom Shotibiyni dunyoga tanitgan jihat uning ilmiy merosidir. U asarlarini arab tilida, asosan, nazmda bitdi. Jumladan, Islom olamida e'tirof etilgan, yetti qiroat qoidalarini nazariy bayon qiluvchi "Hirzul amoniy va vajhut tahoniy" nomli asari o'qilishi va yod olinishi oson bo'lgani bois asrlar davomida madrasalarda asosiy darslik bo'lib xizmat qildi. Jumladan, bir necha asr Buxoro madrasalarida o'qitib kelingan. Ushbu asar "Shotibiyya" nomi bilan mashhur. Asar 1173 ta baytdan iborat manzuma bo'lib, har bir baytning oxiri "lom" harfi bilan tugaydi.

Rivoyat qilinishicha, olim mazkur asarini yozib bo'lganidan so'ng Ka'bani o'n ikki ming marta aylanib tavof etgan va har aylanishda: "Ey Allohim, asarimni xalqqa foydali qilgin!", - deya duo qilgan. Manbalarda Imom Shotibiy mazkur kitobini yozganidan so'ng uning Payg'ambarimiz (*alayhissalom*)ni tushida

ko'rgani naql qilinadi. U Rasululloh (*alayhissalom*)ga mazkur kitobini ko'rsatadi. U zot kitobni qo'llariga olib, "Yaxshi kitob bo'libdi, kim uni o'qisa, jannatga kirsin", - deb duo qilganlari aytilgan [2:75].

Qiroat ilmi ulamolaridan Imom Jazariy aytadi: "Lomiyya" nusxasi ustiga bitib qo'yilgan quyidagi matnni ko'rganman: "Imom Shotibiydan rivoyat qilinishicha, kim bu qasidani yodlasa, jannatga kiradi". Ushbu yozuvni o'qigan qorilardan biri bu haqda so'rash uchun uning huzuriga boradi. So'ralmasidan turib, u zotning karomatlari sababli ayon bo'lgan holda: "Ha, kim yodlasa, jannatga kiradi, hatto kim vafot qilsa-yu, ushbu qasida uyida bo'lsa ham, jannatga kiradi", degan.

Bundan tashqari, Imom Shotibiyning qiroat ilmiga bag'ishlangan o'nga yaqin asarlari mavjud va ular hozirgacha qayta-qayta nashr qilinmoqda. Jumladan, Ibn Abdalbarrning "Tamhid lima fil Muvatto minal maoniy val asonid" nomli kitobini qasida uslubida 500 baytdan iborat holatda bitgan va "Qasidayi doliyya" deb nomlagan. Olimning "Nozimatus zuhr fi addi oyis suvar" nomli asari ham mashhur.

Imom Shotibiy 590-hijriy yilning jumadul oxir oyining (milodiy 1194-yil, 20-iyun) 28-kuni 52 yoshida Misrda vafot etdi va dushanba kuni Sulton Salohiddin Ayyubiyning vaziri, do'sti va ko'makchisi hamda "Insho" devonining sohibi, qozi Abdurrahim ibn Ali ibn Hasan Qoziy Laxmiy Asqaloniy Misriy maqbarasiga dafn qilindi. Qohiraning Vafora qishlog'ida joylashgan ushbu maqbara ziyoratgohga aylangan. Taniqli qiroat olimi Imom Jazariy u haqda aytadi: "Men Shotibiyning qabrini bir necha marta o'z shogirdlarim bilan ziyorat qildim. U kishi qabri oldida turib, shogirdlarim bilan qilgan duomni Alloh ijobat etdi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibn Xallikon. Vafayotul a'yon. J. III. - Bayrut: Dorul fikr, 1998.
2. Ali Qori. Al-Minahul fikriyya bi sharhi muqaddimatil Jazariyya. - Misr: Al-Azhar, 1308.
3. Toshko'prizoda. Miftohus saoda va misbohus siyoda fi mavzuotil ilm. - Istanbul: 1894.
4. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Siyar a'lomin nubalo. J. V. - Bayrut: Dorul fikr, 1997.

Islom UBAYDULLAYEV
*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
 islom instituti "Taxfizul Qur'on"
 kafedrasida katta o'qituvchisi,
 e-mail: Islomubaydullaev1997@com*

ALLOMA ALI QORIY HAYOTI VA ILMIY MEROSI

LIFE AND SCIENTIFIC HERITAGE OF ALI AL-QORI

Islom olamida alloma Ali Qoriy nomi bilan mashhur bo'lgan olimning to'liq ismi Nuriddin Ali Ibn Sulton Muhammad Hiraviy Makkiy Hanafiydir. U Qur'on tilovatida kashshoflardan biri bo'lgani uchun Qoriy nomi bilan atalgan va shuhrat topgan [4:21]. Muhammad Abdulhay Kattoniy (*vaf. 1886/1961*) "Tarotiybul idoriyya" risolasida: "Qoriyning kunyasi Abul Hasan, Nuriddin esa uning taxallusidir", deb ta'kidlagan [2:2].

Mullo Ali Qoriyning nasl-nasabi podshohlar sulolasiga borib taqalishi haqidagi ma'lumotlar faqat tarixchi Abu Is'hoqning unga bergan tavsifida keltirilgan. Biroq boshqa manbalarda hech qanday ma'lumot uchramaydi.

Shuningdek, tarixchi Abdulmalik Osimiy Shofeyy (*vaf. 111/1699*) o'zining "Samtun nujumil avoliy" asarida otasining ismi Sulton bo'lganini ta'kidlaydi [1:45]. Muhammad Abu Fayz Muhammad Murtazo ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Biroq Zabidiy "Tojul arus min javohiril qomus" kitobining muqaddimasida, Shayx Muhammad Abdulhay Lakhnaviy "Tarbul amosil bi tarojimil afozil" asarida shunday yozadi: "Sulton Ali Qoriy. Otasining ismi Muhammad, Sulton bobosining ismi, shuning uchun otasi Sulton ibn Muhammad", deyilgan [2:4-5]. Olimning qachon tug'ilgani haqida ma'lumot saqlanmagan. Ali Qoriy haqidagi ma'lumotlar uning o'z asarlarining so'zboshisida keltiril-

gan. Manbalarda allomaning oilasi va ota-onasi haqida boshqa aniq ma'lumotlar berilmagan.

Mullo Ali Qoriy Xurosonning qadimiy Hirot shahrida tug'ilib, umrining bir qismini shu yerda o'tkazgan. Birinchi rofiziylar podshohi Sulton Ismoil bin Haydar Safaviy Hirotni zabt etib, musulmonlarga haddan tashqari tazyiq o'tkazib, rofiziylar o'z shiorini qo'ya boshlagach, Hirotning ba'zi ulamolari ko'chib ketishga majbur bo'lishdi. Bu davrga kelib ilm talabi bilan sayohat qilish ham tezlashdi. Buning quyidagi sabablari bor edi:

1. Olimlarning turli shaharlarga tarqalishi;
2. To'qima hadislarning ko'pligi.

Xatib Bag'dodiy aytadi: "Hadis o'rganish uchun safarlar ikki maqsad bilan qilingan:

1. Eng yuqori isnod va uzoq vaqt ustozlardan hadislarni tinglab olish;
2. Hadislarni ko'p yod olganlar bilan uchrashib, ilm olish.

Agar o'z shahrida ikki jihat bo'lsa, boshqa shaharlarga sayohat qilish befovdadir".

Ali Qoriy Hirotida va xorijda bo'lgan paytlarida o'z davrining mashhur allomalaridan ta'lim olgan, har yerda ulamolarning o'rtasida bo'lib o'tadigan ilmiy majlislarda qatnashib, doimo o'z bilimini oshirishga intilgan.

Makka madaniyat, savdo va ziyoratchilar tashrif buyuradigan shahar bo'lgani sababli ilm-fan rivoj topib, u yerda o'z davrining ko'plab buyuk allomalari jamlangan. Bu olimlarning ko'pchiligi kitob va sharhlar yozgan, maktab va madrasalarda dars bergan. Shuning uchun Ali Qoriy ham ilm talabida Makkaga borib, umrining oxirigacha shu yerda yashadi. U zot: "Menga bid'at yurtidan payg'ambarlik berilgan, vahiy va sunnat bor yerga ko'chib o'tishga kuch va quvvat bergan Allohga hamdlar bo'lsin", der edi. Olim Makkada buyuk qorilar homiyligida Qur'on ilmini mukammal o'rganish va ajratish usuli bilan yod olishda davom etdi va yetti xil qi-roatni mukammal o'zlashtirdi.

Ali Qoriy o'z davrida iboralarni tuzatish va tushuntirishda mohir imom, fiqh, usul va nahv ilmi bilimdoni, muhaddis, mufas-



sir, mutakallim, mutasavvif, tarixchi, adabiyotshunos, aqliy va naqliy bilimlarni o'zida mujassam etgan, shuhrati butun Islom olamiga yoyilgan yetuk olim edi. Nabaviy sunnatda ham u malakali mutaxassis edi. Shavkoniyning yozishicha: "Ali Qoriy hijriy birinchi ming yillikning boshida ana shu asarlari tufayli mujaddid darajasiga ko'tarilgan" [3:90].

Ali Qoriyning hijriy 1014-yil shavvol oyida (milodiy 1605-yil mart) Makkai Mukarrama shahrida vafot etgach, o'sha shahardagi mashhur Muallo qabristoniga dafn etilgan. Uning vafoti haqidagi xabar Misrga yetib borgach, Azhar masjidida ko'plab olimlar uning ilm va dindagi yetakchiligiga hurmat izhor qilgan holda unga janoza namozi o'qishgan, unda to'rt mingdan ortiq kishi qatnashgan [3:91].

Ali Qoriy ko'p sohalar mutaxassisi bo'lib, bir qancha ilmiy asarlar yozgan. Bularga hadis, fiqh, Qur'on, kalom, tasavvuf tarixi, tarjima va adabiyotshunoslik ilmlariga oid asarlari kiradi.

Olim o'zining noyob, nodir va puxta bitilgan asarlari, latif va mazmunli mulohazalari bilan mashhur. Manbalarda keltirilishicha, olimning 125 dan ortiq kitob va ko'plab risolalari mavjud bo'lib, kitoblaridan ba'zilari bir necha jilddan iborat bo'lgan.

Olim tomonidan to'plamlar yozishning o'ziga xos usuli shundaki, u barcha asarlaridagi boblarni qimmatli ma'lumotlar va bahs-munozaralar bilan boyitish bilan bir qatorda boshqa olimlar asarlarida uchramaydigan o'ziga xos uslubda yozilgan va hech qanday mavhum iboralar qo'llanilmagan holda tuzgan. Shuningdek, Ali Qoriy nafaqat shariat ilmlari, balki xattotlik bilan ham muntazam shug'ullangan. Shayx Muhammad Tohir ibn Abdulqodir Kurdiy o'zining "Tarixul xattil arabiy va adabihi" asarida shunday yozadi: "Ali Qoriy nasx, nasta'liq va suls harflari bo'yicha mohir xattot bo'lib, ko'plab musobaqalarda g'olib chiqqan. Olim Mar'ashiyning shogirdi shayx Hamidulloh Amosiydan xattotlik mahoratini o'rganib, yil davomida Mus'haf va "Jalolayn"ga sharhlarni yozib tugatgandan so'ng shulardan kelgan daromadni o'z ehtiyojlariga sarflagan" [3:90].

Mashhur huquqshunos Husayn ibn Muhammad Said Abdulg'aniy Makkiy Hanafiy o'zining "Irshodus soriy ila manosiki Ali Qoriy" asarida: "Ali ibn Sul-ton Muhammad Qoriy o'z davrining buyuk allomasi, o'tish davri ilmlarini o'zida jamlagan va Qur'on ilmining sharhlarini asoslovchi ko'zga ko'ringan olim va tadqiqotchidir" [1:45], deb yozadi.

Annotatsiya. Maqolada Ali Qoriyning hayoti va faoliyatiga doir bir qancha muhim ma'lumotlarga e'tibor qaratildi. Allomaning ustoz va shogirdlari haqidagi manbalar o'rganilgan. Bunda XVI asr Xuroson va Hijozdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ham tahlilga tortilgan. "Anvorul Qur'on va asrorul Furqon" asarining tarkibiy tahlili, o'ziga xos xususiyatlari hamda ilmiy ahamiyati ochib berilgan. Olimning fiqh, tasavvuf, diniy ta'limotlar borasidagi nuqtai nazari va boshqa masalalar haqida ilmiy mulohazalar bildirilgan.

Abstract. The article focused on some important information about Ali Qari's life and work. Sources about Alloma's teacher and students were studied. The socio-political processes in Khurasan and Hijaz of the 16th century were also analyzed. Structural analysis, specific features and scientific significance of the work "Anvorul Qur'an and Asroul Furqan" have been revealed. The scientist's point of view on jurisprudence, Sufism, religious teachings and other issues were expressed.

Kalit so'zlar: Ali Qoriy, "Anvorul Qur'on va Asrorul Furqon", Qur'on, usullar, ilmiy tahlil, olim, Movarounnahr, Hijoz, tadqiqot.

Key words: Ali al-Qari, "Anwar-al-Quran and Asra-al-Furqan", study, work, Quran, methods, role, achievement, scientific, analysis, scholar, Mowarounnahr, Hijaz, research.

Ali Qoriy Makkada ko'plab ulamolardan ilm olgan va tinimsiz izlanishlari natijasida yetuk olimlik darajasiga erishgan. O'sha paytda Makkada, xususan, arab diyoralari-da shofeiy, molikiy va hanbaliy mazhablari ko'proq tarqalgan edi. Bu mazhablarning ba'zilari, xususan, shofeiy mazhabida buyuk alloma Imom A'zamni faqat ra'yga asoslangan, deb kamsitishardi. Ba'zi ulamolar esa, Abu Hanifani qoralashar va uni hadis ilmida jaholatda ayblashardi.

Hanafiy mazhabida bo'lgan Ali Qoriy ilm-fan sohasida shu qadar ko'zga ko'ringan ediki, u Abu Hanifaga shubha bilan qaragan ba'zi mazhab imomlariga ergashgan kimsalarning qarashlariga e'tiroz bildira oldi va Abu Hanifa mazhabini himoya qilib, muvafqiyatga erishdi.

Shavkoniy uning jasorati haqida shunday deydi: "Bu uning yuksakligining yana bir dalilidir, chunki mujtahidning vazifasi bahsli masalalar bo'yicha haqiqiy dalillar keltirish va o'z qarashlarini avvalgi olimning fikrlariga muvofiq shaklda yetkazishdir" [3:90].

Olimning ilmiy faoliyatiga nazar solinsa, u matnlarga sharhlar yozish bilan shug'ullanganini ko'rish mumkin. Olim o'z ilmiy va ijodiy faoliyatida arab tili va adabiyotiga katta hurmat bilan qaragan, asarlarini shu tilda yozgan. Uning asarlari ko'plab sohalarni qamrab olgan.

Olimning asarlari nafisligi, foydaliligi bilan ajralib turadi, ular sodda tilda yozilgan. Shuningdek, uning asarlarni sharhlash uslubida sodda va tushunarli tilda bayon etilgani, Islom fiqhi asoslaridagi Islom arkonlari haqidagi fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini Qur'on oyatlari bilan isbotlagani bilan ajralib turadi [3:89].

Ali Qoriyning asarlari ko'p va rang-barangdir. Quyida ulardan ba'zilari keltiriladi:

1. "Sharhul Mishkot" yoki "Mirqotul mafotiyh". Bu asar Xatib Tabriziy asariga sharh bo'lib, o'n bir jilddan iborat.

2. "Sharh Ali ibn Sulton Muhammad Qoriy Hanafi alal Fiqhil akbar li imomil A'zam Abu Hanifa Nu'mon ibn Sobit Kufiy"

(vaf. 150/767). Ali Qoriy bu asarga ilohiyotga oid sharhlar bergan.

3. "Irshodus soriy". Uning bu asari Islomning farzlaridan biri bo'lgan hajga bag'ishlangan.

4. "Al-Asmorul janiyya fi asmoil hanafiy-ya". Ushbu kitob hanafiy ulamolar faoliyatini yoritishga bag'ishlangan [3:86].

5. "Nuzhatul otiril fotir fi tarjimatil Sayyid Abulqodir" kitobi Islom olamining eng mashhur shayxi Abulqodir Jiloniyning tarjimai holi va hayoti tarixiga bag'ishlangan.

6. "Mubiynul muiyn li fahmil arbaiyn" Imom Navaviyning qirq hadis to'plamiga sharhdir [3:87].

7. "Sharhul burda" mashhur "Qasaidai burda" asarining sharhi [3:88].

8. "Fathu bobil inoya" asari "Nuqoya" kitobining muhim sharhlaridan biridir. Mullo Ali Qoriy bu asarida barcha mazhablarga nisbatan hanafiy mazhabining dalillarini oyat va hadislar asosida isbotlagan [3:89].

9. "Tazyiynul ibora fi raf'is sabboba". U tashahhud mavzusini qamrab oladi [3:90].

10. "Arbaiynal hadis fil Qur'on", "Arba'inul hadis fi tarkibi la ilaha illalloh" va "Arbaiynal hadis fi qiroatil basmala fi avvali" asarlari. Bu asarlar Rasululloh (*alayhissalom*)dan rivoyat qilingan "Qur'onning fazilatlariga haqida", "La ilaha illalloh", "Suralardan oldin "Bismillahir Rohmanir Rohim" tilovati haqidagi qirq hadisdan iborat [2:90].

Ali Qoriy tafsiri ham boshqa asarlardan o'ziga xos jihatlari va masalalarning kengligi bilan ajralib turadi. Olim asarlarining qo'l-yozmalari, bosma nashrlari turli fondlarda saqlanmoqda. Masalan, Mustafo Bobiyning 1905-yilda Misrda 12317-son bilan nashr etilgan nusxasi va 8349, 8552, 10125-son ostidagi Ahmad Nojiyning 1905-yilgi Misr nashrini keltirish mumkin. E'tiborlisi shundaki, Ali Qoriyning bu asarlari 2012-yilda o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Ali Qoriy keng ommaga ochiq bo'lishi uchun ko'plab sohalarda noyob san'at asarlari shaklida sharhlar yozgan. Ulardan: "Nomus", "Hoshiyatul Jalolayn", "Sharh qasi-



datit Tavhid”, “Sharhush shifo”, “al-Hirzus samiyn lil hisnil hasiyn”, “Asmor fil fiqh”, “Sharhush Shamoil” asarlarini keltirish mumkin[2:92].

Ali Qoriyning boshqa kitob va risolalari ham ko'p bo'lib bu kitoblarning ba'zilari

hozirgacha ko'plab Islom universitetlarida darslik sifatida foydalaniladi. Mazkur ilmiy asarlar o'tmishda ham, undan keyingi davrlarda ham odamlarga ko'p foyda keltirgan bo'lsa, hozirgi davr yosh olimlari uchun katta izlanish manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulmalik Osimiy. Samtun nujumil Avoliy. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 1998. J. I.
2. Ali Qoriy. Mirqotul mafotih sharh Mishkotil masobih. J. I – Qohira: Dorul kitobil islomiy, 1966.
3. Shavkoniy. Al-Badrut toli'. – Qohira: Dor al-kitobil islomiy. 1909.
4. Muhammad Muhibbiy. Xulosatul asar fi a'yonil qarnil hodiy ashar. O'zFASHI, Litrografiya, inv. N 8130.

Bahodirjon A'ZAMOV

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tayanch doktoranti
e-mail.: bahodirazamov1989@gmail.com*

HAKIM TERMIZIYNING "AMSOL MINAL KITOB VAS SUNNA" ASARI TAVSIFI

DESCRIPTION OF HAKIM TERMIZI'S WORK "AL-AMSAL MINAL-KITAB VAS-SUNNA"

Dunyo kitob fondlarida Qomusiy olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziyning "Amsol minal Kitob vas sunna" (*Qur'on va sunnatdan masallar*) asarining turli asrlarda ko'chirilgan kam sonli qo'lyozma va foto nusxalari saqlanadi. Bu haqda yaqin davrgacha ko'pchilik tadqiqotchilarda batafsil ma'lumot yo'q edi. Asarda Qur'oni karim hamda hadisi shariflardagi ikki yuzdan ortiq masal-tamsillar va ularning mazmun-mohiyati sodda va ravon uslubda bayon etilgan. 1975-yilga qadar bu asarni o'rganish va uni ilmiy muomalaga kiritishga arab yoki ajamlardan biror tadqiqotchi qo'l urmagan. Misrlik tadqiqotchi olim doktor Ali Muhammad Bijoviy bunga alohida to'xtalib, shunday degan: "Kamina bu kitob haqida chuqur ilmiy izlanishlar olib borib, uni nashrga tayyorlab, muhtaram kitobxonlarga taqdim etmoqdaman. Afsuski, bugunga qadar mening bilishimcha, u unut bo'lgan, uni odamlarga taqdim etishga hech kim qo'l urmagan edi. U haqda deyarli hech kimda ma'lumot yo'q, faqatgina "amsol" janrida asar yozgan ba'zi mualliflar Hakim Termiziyning shu mavzuda asar yozgani haqida qisqacha qaydlar bilan kifoyalangan. Jumladan, misrlik doktor (*Mahmud ibn Sharif "Amsol fil Qur'on"*) kitobini yozganida doktorlik ilmiy darajasi olmagan edi. Shu sabab Ali

Muhammad Bijoviy ham o'z tadqiqotida uning doktorligini yozmagan. O'rganish davomida u keyinroq doktorlik ilmiy darajasini olgani va undan keyingi barcha kitoblariga Doktor Mahmud ibn Sharif deb yozilgani ma'lum bo'ldi. Shuning uchun maqolada uning ilmiy darajasi ham qo'shib yozildi) Mahmud ibn Sharif "Amsol fil Qur'on" (*Qur'ondagi masallar*) nomli kitobida bu asarni biroz boshqacha nom – "Rasoilul Hakim Termiziy" – "Hakim Termiziy risolalari" shaklida zikr qilgan [7:120]. Buyuk mufassir Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Ansoriy Qurtubiy ham "Jomi' li ahkomi Qur'on" (*Qur'on hukmlari majmuasi*) nomli asarida bu kitobga murojaat qilib, undan iqtibos keltirgan. Lekin uni "Navodirul usul" (*Noyob asllar, qoidalar*) deb Hakim Termiziyning boshqa asari nomi bilan almashtirib tilga olgan [2:322]. Darhaqiqat, bu ikki asar muallifning turli fan va mavzularga oid alohida ikki kitobidir.

Bu asar islomiy fanlar sirasiga kiruvchi tafsir, tasavvuf hamda hadislar sharhiga oid bo'lgani uchun ta'lifning islomiy odoblariga ko'ra, basmala ya'ni "Bismillahir Rohmanir Rohiyim" iborasi va Alloh taolodan ko'mak o'tinchidagi duo, Unga hamdu sano va Payg'ambarimiz (*alayhissalom*)ga salovat bitiklari bilan boshlangan. So'ng uning yozilish sababi – aksar mualliflarning muborak odatlariga muvofiq Hakim Termiziyning o'zi tomonidan – asar muqaddimasida quyidagi satrlar bilan bayon qilingan:

"أما بعد فإنك سألتني عن شأن الأمثال وضررها للناس..."

Ma'nosi: "Ammo ba'd. Siz mendan masallar va odamlarga zarbulmasal qilish haqida so'ragan edingiz...". Demak, asar o'sha davrdagi ilm ixlosmandlarining iltimoslariga javoban yozilgan. Bu jumladan so'ng muallif masal janrining Qur'oni karimda ham keltirilgani, mazmun-mohiyati odamlarga tushunarsiz, noma'lum bo'lgan narsa va hodisayu holatlarni ularga ma'lum bo'lgan, ko'rgan-bilgan, anglagan narsalariga o'xshatish orqali tushuntirishning eng samarali usuli ekanini aytib o'tgan [3:1].

Asarning kolofonida quyidagi iboralar bor: "Allohga hamd bo'lsinki, bu kitob Uning



ko'magi va fazli karami bilan nihoyasiga yetdi. Allohning nabiyi Muhammad (*alayhissalom*)ga, uning ayollariga, zurriyoti va sahobalariga Allohning salovoti – rahmatu mag'firati bo'lsin. Bizlarni ham O'z fazli-karami bilan ular qatorida qilsin", degan duo mazmunidagi bitiklar bor. So'ng xattot o'zi haqida quyidagilarni yozgan: "Bu kitobni oxirigacha ko'chirish Allohning rahmatiga muhtoj banda Ali ibn Sulaymon ibn Ahmad ibn Sulaymon Murodiy Andalusiyning qo'li bilan adog'iga yetkazildi. Alloh unga buni manfaatli qilsin, undagi ilmlarni yuqtirsin va O'z fazli va rahmati bilan O'zining nabiyisiga ergashuvchilardan aylasin. Uni va ota-onasini hamda Muhammad (*alayhissalom*)ning barcha ummatlarini mag'firat qilsin!" [3:352].

Bu asarning mag'ribiy xatida yozilgan eng mo'tabar qo'lyozma nusxasi Parij milliy kutubxonasida 5018-inventar raqam ostida saqlanayotgan majmua tarkibida 10-asardir

(5018/X). Majmuaning 138b-184a varaqlaridan o'rin olgan asar taxminan hijriy beshinchi asrga mansub qo'lyozma hisoblanadi [3:13].

Uning nasta'liq xatida ko'chirilgan boshqa bir nusxasi Turkiyaning Asitane (*Istanbul*) [8] shahridagi "Aşir Efendi" kutubxonasida mavjud bo'lib, u 1479-inventar raqam bilan qayd etilgan, u majmuaning 42-97-varaqlaridan o'rin olgan. Bu nusxa avvalgisidan sahifasining yon tomonida sarlavhalari borligi bilan ajralib turadi. Sarlavha mavzuning bosh qismida emas, yon tomonida yozilganidan uni muallif emas, balki kotib yozganini xulosa qilish mumkin.

Asarning yana bir qo'lyozma nusxasi Hindistonning Kalkutta shahridagi "Jam'iyatul Asiyaviyya" (*Osiyo jamiyati*) nomli kutubxonasida saqlanadi. U 1056/I raqamli majmuaning 1-81-varaqlaridan o'rin olgan. Kitobning nomi: "Tibyonul amsol" (*Masallar*

Annotatsiya. Maqolada Hakim Termiziyning qalamiga mansub "Amsol minal Kitob vas sunna" asarining qo'lyozma, foto nusxalari hamda zamonaviy nashrlari haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, asarning Parij milliy kutubxonasi, Istanbul shahridagi "Aşir Efendi" kutubxonasi, Hindistonning Kalkutta shahridagi "Jam'iyatul asiyaviyya" kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari tadqiq etilib, ularning qaysi asrga mansubligi, kim tomonidan ko'chirilgani, xat turlari, o'zaro farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, misrlik tadqiqotchi olim doktor Ali Muhammad Bijoviy tomonidan asarning Qohira shahridagi "Dorul kutubil Misriyya" manbalar xazinasidagi ikki foto nusxasi asosida nashrga tayyorlangan yig'ma qiyosiy matni haqida ham ma'lumot berilgan. Asarning yozilish sababi, kolofoni, xotima qismi, tarkibiy tuzilishi, bosh g'oyasi, mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berilib, bugungi kundagi axloqiy ahamiyati bayon qilingan.

Abstract. In this scientific research, information is given about manuscripts, photocopies and modern scientific publications of the book "Amsol minal Kitob vas sunna" written by Abu Abdullah Muhammad ibn Ali Hakim Termizi. In particular, the manuscript copies of the work kept in the National Library of Paris, the "Ashir Efendi" library in Istanbul, and the "Jamiyyatul Asiyaviyya" library in Calcutta, India, were researched to determine which century they belong to, which calligrapher copied them, the types of letters, different aspects are highlighted. Also, information was given about the comparative text of the work, prepared for publication based on two photocopies in the "Darul Kutubil Misriyya" source treasure in Cairo, by Dr. Ali Muhammad Bajowi, an Egyptian research scientist. A scientific description of the reason for writing, colophon, concluding part, structural structure, main idea, content of the work is given, and its moral significance today is explained.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, amsol, tibyon, rasoil, kutubi sitta, sahih, zarbulmasal, zohiriy ma'no, tafsir.

Key words: Holy Quran, al-amsal, book, tibyan, rasail, kutubi sitta, sahih, zarbulmasal, zahiri mano, tafsir.

bayoni). Muallifning nomi: Hakim Termiziy. Nusxaning ko'chirilgan vaqti: IX hijriy asr. Aralash xatda ko'chirilgan va 81 varaq. Bichimi: 100x190 sm. Uning titul varag'i bo'lmish ilk betida asarning yozilish sababiga oid iboralar bor:

فإنك سألتني عن تبيان الأمثال وضررها للناس...

Bundan asarning nomi qo'lyozma nusxalarda bir xil shaklda emas, balki "Amsol", "Tibyonul amsol" kabi bir-biriga yaqin ma'noli nomlar bilan qayd etilganini xulosa qilish mumkin. Shuningdek, bu nusxada asarning qisqacha kolofoni va qisqa ilmiy tavsifi – nomi, muallifi, qaysi asrga oidligi, varaqlar soni, bichimi va xat turi, asarning qanday ibora bilan boshlangani haqida to'liq ma'lumot berilganini ko'rish mumkin.

Qohira shahridagi "Dorul kutubil misriyya" fondi, Parij milliy kutubxonasidagi 5018 va Istanbulning "Aşir Efendi" kutubxonasidagi 1479-inventar raqamli qo'lyozmalarning foto nusxalari mavjud. Shuningdek, Qohira shahridagi "Ma'hadul maxtutotil arabiyya" (*Arabiy qo'lyozmalar tadqiqot instituti*)da asarning 3142-raqamli foto nusxasi ham mavjud. Bu esa Hindistonning Kalkutta shahridagi "Jam'iyatul Asiyaviyya" nomli fondidagi 1056/I raqamli qo'lyozmadan tasvirga olingan nusxadir. Uning oxirida quyidagi bitiklar bor: "Bu nusxaning tasvirga olish ishlari Kalkutta shahridagi "Jam'iyatul Asiyaviyya" nomli kutubxonada hijriy 1371-yili rajab oyi-ning 27-sanasida, dushanba kuni, milodiy 1952-yilning 21-aprel kunida adog'iga yetdi" [1].

Asarning bosma nashrini ilk bor 1975-yili misrlik tadqiqotchi olim doktor Ali Muhammad Bijoviy Qohira shahridagi "Dorul kutubil Misriyya" manbalar xazinasidagi mazkur ikki foto nusxa asosida yig'ma-qiyosiy matnini nashrga tayyorlab, Qohira shahridagi "Dorun nahda" va "Maktabatu dorituro" nashriyotlarida chop etgan [6:13].

Bijoviy asarning yig'ma qiyosiy matnidan avval o'n uch betdan iborat kirish so'zi yozib, unda Hakim Termiziyning tarjimai holi, ilmiy faoliyati, ulamolarning muallif haqidagi e'ti-

roflari, bu asarning tarkibiy qismi, turli qo'lyozma va foto nusxalari hamda tadqiqot xususiyatlarini batafsil bayon qilgan. Nusxalar orasida farqli joylar uchrasa, uni ostki havolada keltirgan. Asar matnining sharhga muhtoj iboralarini sharhlab, Hakim Termiziyning chuqur tasavvufiy-botiniy ma'noli tafsirlarini o'quvchiga tushuntirish uchun mashhur tafsir kitoblarga murojaat qilib, ular asosida oyatlar tafsirini matn ostida izohda bayon qilgan. Qur'oni karim oyatlarini qaysi suraning nechanchi oyati ekanini havolada bayon qilgan. Qo'lyozmada berilgan oyatlarning ma'nosi tugallanmay qolgan o'rinlarda ularni oxiriga yetkazib qo'ygan. Asardagi hadislarini ham kutubi sitta – Islom olamida "Olti sahih hadislar to'plami" deb e'tirof etilgan manbalarga murojaat qilib, ularning qay birida keltirilganini izoh qismida bayon etgan. Hadislardagi ba'zi izoh talab bo'lgan so'zlarni ham sharhlagan. Shuningdek, 21816-inventar raqamli nasta'liq xatli nusxa asosida asar mavzulariga munosib sarlavhalarni matndan farqli o'laroq, yo'g'on qora harflarda yozgan.

Shuningdek, misrlik tadqiqotchi doktor Sayyid Jumayliy (*Amsol minal kitob vas sunna. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy. Doktor Sayyid Jumayliy tadqiqoti. – Damashq: Usoma, 1987.*) va suriyalik olim shayx Ahmad Abdul Ol Tahtoviy (*Ali Ahmad Abdul Ol Tahtoviy. Sharhu kitobil Amsol minal Kitob vas sunna lil Hakim Tirmiziy. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 2007.*) lar ham qisqacha ta'liq etib, matn osti izoh-sharhlari hamda ba'zi qisqa ilmiy ilovalar bilan asarning zamonaviy nashrini tayyorlashgan.

Aytish kerakki, Hakim Termiziyning hayoti va ijodi butun dunyo miqyosida keng o'rganilgan bo'lishiga qaramay, allomaning ushbu asari bugungi kunga qadar yetarli darajada tadqiq etilmagan. Asar haqida mazkur uch nashrdan tashqari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Misrlik olim doktor Muhammad Ibrohim Juyushiy asar haqida o'z mulohazalarini bir qadar yozib qoldirgan [4:77-80]. Biroq u bergan ma'lumotlar ham to'liq emas. Tarix fanlari nomzodi I.Usmonov "Hakim Termiziy" nomli risola-



sida allomaning tafsir va Qur'on ilmiga oid asarlari qatorida faqatgina ushbu asarning nomini aytib o'tish bilan kifoyalangan [5:25]. O'zbekistondagi qo'lyozma fondlarida asarning nusxalari mavjud emasligi sabab uning xorijiy nusxalarini olib kelib o'rganish lozim.

“Amsol” asarini chuqur tadqiq etib, uning mazmun-mohiyatini yoritib berish, yosh avlodni madaniy meros durdonalari bilan tanishtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “Istambul” ismi nereden geliyor?” // Turkiya: Hurriyet gazetasi, 2012.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Ansoriy Qurtubiy. Tafsirul Qurtubiy. J. VII. – Bayrut: Dorul-kutubil-ilmia, 1998.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy. Amsol minal kitob vas sunna. Ali Muhammad Bijoviy tadqiqoti. – Qohira: Maktabatu dorit-turos, 1975.
4. Doktor Muhammad Ibrohim Juyushiy. Hakim Tirmiziy. Dirosa li asarihi va afkarihi. – Qohira: Dorun-nahda al-arabiyya, 1980.
5. Hakim Termiziy. Ibrohim Usmonov. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, – 2014.
6. Ma'hadul maxtutotil arabiyya. – Qohira. Qo'lyozmalar instituti, foto nusxa.
7. Mahmud ibn Sharif. Amsal fil Qur'on. – Bayrut: Dorul-Hilal, 2010 (ikkinchi nashr).
8. Mualliflar jamoasi. Fihrisul maxtutot. Birinchi qism. – Qohira: 1961.

Xurshida USMANOVA

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tayanch doktoranti
e-mail.:xusmanova435@gmail.com*

SHAYX XOVAND TOHUR RISOLALARI TAHLILI

ANALYSIS OF THE TREATISES OF SHEIKH KHOVAND TOHUR

Har qaysi millat milliy qadriyatlarini o'z maqsadi-muddaolari, shu bilan birga umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira, ajdodlar merosining o'rganilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, o'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida insonparvarlik, himmatlilik, iymon-e'tiqod, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob kabi umuminsoniy fazilatlarini jamlagan.

Xalqimizga ming yillik madaniy qadriyatlarini tiklash imkonini bergan mustaqillik sharofatidan bugun yurtimizda ana shu ma'naviy meroslarni qayta tiklash, o'qib o'rganish uni targ'ib qilish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda. Prezident Sh.Mirziyoyev bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri sifatida "Tariximiz, madaniyatimiz, dinimizga aloqador bir varaq qo'lyozma bo'lsa ham ularni to'plab, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va betakror merosimiz borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug' merosga munosib etib tarbiyalash" [4:16] ekanini ko'rsatib o'tdi.

Bugungi kun ma'naviy hayotida hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan, "Barkamol inson" g'oyasi bosh maqsadi sanalgan tasavvuf ta'limotining namoyandalari ma'naviy merosini o'rganish, tahlil qilish bugun-

gi rivojlanib borayotgan davr uchun katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, musulmon olamida buyuk shayx deya e'tirof etilgan Shayx Xovand Tohur ilmiy merosi xalq hayoti, jamiyat manfaatiga xizmat qilishi, shaxs ma'naviyatini shakllantirishi, uning axloqiy va huquqiy bilimlarini boyitishi bilan bugungi kunda ham ahamiyatlidir.

Shayx Xovand Tohurning tavallud yillari ma'lum bo'lmasa-da, vafotlari 1355 yoki 1359-yillar deb taxmin qilinadi. Shayx Xovand Tohur tug'ilgan xonadon ham ota, ham ona tomonidan ilm-ma'rifatli, yetuk, shariatda mashhur tan olingan kishilar edi. Jumladan, otasi Umar Bog'istoniy Bahouddin Naqshband tomonidan kamoli ehtirom bilan hurmat etilgan bo'lsa, ona tomonidan Mavlono Tojiddin Darg'amiy ham bu sohada yuksak maqom sohibi bo'lgan edi. Bu haqida Xoja Ahror Valiyning muridlaridan biri Faxriddin Ali Safiy "Rashahot" kito-bida shunday yozadi: "...Olim erdilar ulumi zohiriy va botiniyga va varog' bila ahvoli va karomati zohira bila ma'ruf edilar" [7:290].

Ana shu xonadonning olijanob an'analari yosh Xovand Tohurga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Avval otasi Shayx Umar Bog'istoniy tarbiyasida zohiriy va botiniy ilmlarni chuqur o'zlashtirib, hidoyat ahlining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan.

"Shayx Xovand Tohur Buxoroga kelib, o'sha davrning mashhur donishmandlari Xoja Muhammad Bobo Samosiy, Sayyid Amir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshband va boshqalar bilan muloqotda bo'lgan, xojagon tariqati to'g'risidagi ma'lumotlarni yanada chuqur o'zlashtirgan" [13:148].

Shayx Xovand Tohurning qaysi yili Toshkentga kelgani ma'lum emas. U ham otasi kabi xalqni ilmu ma'rifat, o'zligini anglash, iymon-e'tiqod, diyonat va adolatli bo'lishga chaqirgan. Diniy va dunyoviy bilimlarni berish bilan birga tasavvuf ta'limoti g'oyalarini yoyishga ham o'z hissasini qo'shgan. Shayx Xovand Tohur otasidan farqli o'laroq, asarlar yozib qoldirishga harakat qilgan. Risolalar va she'rlar yozgan. Allomaning asarlari haqidagi ma'lumotlarni qator islomshunos olimlar:



M.Hasaniy [1], Z.Islomov [2,], N.Muhamedov [5], K.Qilicheva [6], R.Kenjaboyeva [3] va boshqalar Shayx Xovand Tohur hayoti va ijodiga bag'ishlangan risola va tadqiqot ishlari-da ta'kidlab o'tgan.

Bugungi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida ikki qo'lyozma jildda Shayx Xovand Tohur asarlari saqlanmoqda. Risolalar fors-tojik va arab tillarida yozilgan bo'lib, ularning har birida Shayx Xovand Tohurning mazmundor g'azallari, ruboiylari va qit'alari joy olgan.

Birinci risola "Risola dar masoili shariat va tariqat" (*Shariat va tariqat masalalari haqida risola*) [11] deb nomlanib, katta hajmga ega. Risolaga muallifning o'zi maxsus nom bermagan va uning boshi va oxirida ham o'z ismini ko'rsatmagan. Risolaning Shayx Xovand Tohur qalamiga mansubligini undagi g'azallardan bilib olish mumkin. Muallif risoladagi har bir g'azalga "Tahuriy" taxallusini qo'ygan. Risolaga yuqoridagi nom Muhammad (*alayhissalom*)ning shariatga oid hadislarini sharhlashdan boshlangani sababli shartli ravishda berilgan. O'zRFA Sharqshunoslik institutidagi tavsif kartotekalarida Shayx Xovand Tohurning barcha asarlari bir xilda "Risolai Tohuriya" nomi bilan atalavergan [1:23].

Risolada shariat hamda tariqat talab qiladigan muhim masalalar yoritilgan bo'lib, unda insonning avvalo o'zligini anglashi, o'zining insoniylik burchini ado etishi lozimligi ta'kidlanadi. Shayx Xovand Tohur o'z fikrini insonlarning xulq-atvorlarini dunyoda bedavo hisoblangan kasalliklarga ma'naviy-axloqiy kasallik nuqtai nazaridan solishtirish orqali bayon qiladi. Ular: istisqo (suvga to'ymaslik), diqq (*sil kasalligi*), juzom (*moxov kasalligi*) va devonagiy (*jinnilik*) kasalliklaridir. Muallifning yozishicha bu kasalliklardan biri "Istisqo bu – dunyo va uning moliga haddan tashqari hirs qo'yishdir. Istisqoga uchragan odam qanchalik ko'p suv ichmasin, baribir to'yamaydi, dunyoparast ham shundaydir, har ikkovining oxiri o'limdir". Demak, istisqo kasalini davolash qiyin bo'lgani kabi, mol-dunyoga ruju qo'ygan insonni tarbiyalash ham og'irligi, uni faqat ilohiy shifoxona tabiblari, ya'ni ilm ahllari tarbiyalashlari mumkin ekanini uqtiradi. Shayx Xovand Tohur qolgan kasalliklarni ham insonning yomon fazilatlar bilan solishtirma tarzda ifodalaydi. Bu yomon ilatlardan poklanish zarurligini, bu esa shariat, tariqat va Payg'ambar (*alayhissalom*) sunnatini mahkam ushlab orqali hosil bo'lishini ta'kidlaydi.

Shayx Xovand Tohur risolada qanoatsiz, yaxshi tarbiya ko'rmagan insonlarni, tashqi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Islom manbashunosligining bugungi kundagi ahamiyati, yosh avlod kamolotida uning o'rni haqida, xususan, buyuk ajdodimiz Shayx Xovand Tohur hayoti va ijodi, uning bugungi kunda qo'lyozmalar fondida saqlanib kelinayotgan ilmiy merosi "Shariat va tariqat masalalari haqida risola", "O'nta shart haqida risola", "Islom arkonlari haqidagi risola" hamda "Tariqat odoblari haqida risola" singari risolalari tahlili batafsil keltirib o'tilgan.

Abstract. In this article, the importance of current Islamic source studies, its role in the development of the young generation, especially the life and work of our great ancestor Sheikh Khovand Tohur, his scientific heritage preserved today in the Oriental Studies Foundation, "Treatise on Sharia and Tariqat Issues", "Treatise on Ten Terms", "Treatise on the Archons of Islam" and "Treatise on Tariqat Etiquette" are analyzed in detail.

Kalit so'zlar: Shayx Xovand Tohur, fiqh, tasavvuf, shariat, tariqat, risola, istisqo, taqvo, mushfiq, pir-murid.

Key words: Shaykh Khovand Tohur, jurisprudence, Sufism, Sharia, tariqat, treatise, istiq, taqwa, mushfiq, pir-murid.

olamlariga zeb berib, Haq yo'lidan adashgan ayrim olim va oriflarni o'zining g'azallari orqali tanqid ostiga oladi.

Risolaning keyingi sahifalarida shariat, vahiy, risolat nima ekani, shariat va tariqatning bir ekani masalasi, shuningdek, haqiqat masalalariga ham to'xtalib o'tiladi. Bir so'z bilan aytganda insonning poklanishi va kamolga yetishi uchun zarur sanalgan barcha unsurlar qalamga olinadi.

Shayx Xovand Tohur qalamiga mansub keyingi risola "Risolai dah shart" [12] (*O'nta shart haqida risola*) deb nomlanib, unda tariqat yo'lidagi solik (*shogird*)ning amal qilishi zarur bo'lgan o'nta qoida bayon qilingani bois yuqoridagi shartli nom berilgan. Bu risola go'yo muridga qo'llanma sifatida tuzilgan. Ular quyidagilardan iborat:

birinchi shart, "har bir shogird o'zida namoyon bo'ladigan yaxshilik va yomonlik, ne'mat va zahmat barchasiga tan berishi", ikkinchi shart, "shogird ustozlariga muhabbatli bo'lishi", uchinchi shart, "xalqqa yaxshilik qilib, hech kimga ozor yetkazmaslik", to'rtinchi shart, "shogird o'z hayotidan rozi bo'lib yashashi", beshinchi shart, "shogirdning kamtar bo'lishi", oltinchi shart, "shogird o'zini hech bir narsaning egasi deb bilmasligi", yettinchi shart, "imkon qadar ahli ilmlar bilan muloqotda bo'lishi", sakkizinchi shart, "hech qanday holatda yolg'on so'zlamasligi", to'qqizinchi shart "g'aflatda qolmaslik" va o'ninchi shart, "shogird pirni ulug' deb bilishi" uqtiriladi.

Risoladagi shartlardan ko'rinib turibdiki, unga amal qilgan har bir kishi mukammal odob-axloqqa ega bo'ladi. Chunki ushbu shartlar har bir kishini chin insoniylik fazilatlariga chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishga undaydi.

Shayx Xovand Tohurning yirik risolaridan biri "Risola dar arkoni Islom" [10] (*"Islom arkonlari haqidagi risola"*)dir. Risola shu masalalarga bag'ishlangani sababli unga shartli ravishda bu nom berilgan.

Risolada inson Alloh yaratgan mavjudotlar ichida azizu mukarrami bo'lib, u faqat yuksaklikka intilishi, hayotini behuda

o'tkazmasligi, uni aziz tutib, ezgu ishlarga sarflashi lozimligi ta'kidlanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Islom dinining ustuni bo'lmish iymon, namoz, zakot, ro'za va haj masalalarini yoritishda Yahyo ibn Mu'oz, Yusuf Husayniy, Abu Hanifa, Abu Homid G'azzoliy va boshqa olimlarning arab tilidagi fikrlaridan keng foydalanadi.

Risolada fiqhiy masalalarga ham keng o'rin ajratilgan. Unda masjid va u bilan bog'liq masalalar, masjidda namoz o'qishning fazilatlarini, tahorat va uning xosiyatlari, ba'zi afzal oylarda o'qiladigan nafl namozlar oyat va hadislar asosida bayon qilingan. Umuman olganda bu risolada Islom dinining besh asosiy ustuni, uning arkonlari to'lig'icha bayon qilingan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti fondida saqlanib kelayotgan Shayx Xovand Tohurning tariqat masalalariga bag'ishlangan risolalaridan yana biri "Risola dar odobi tariqat" [9] (*"Tariqat odoblari haqidagi risola"*)dir.

Risola mazmunida asosan shariat va tariqat, taqvo, mushfiq va mehribon bo'lish, pir-murid (*ustoz-shogird*) munosabatlari, tariqat yo'lini tutganlarga xos bo'lgan o'n uchta masala bayoni berilib o'tilgan. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchi masala shariat, tariqat va haqiqat masalalari bayoniga qaratilib, kimki shariat, tariqat va haqiqatni bir-biridan ajratsa, xatoga yo'l qo'yibdi, deya ta'kidlaydi. Bu fikrni isbotlash maqsadida "Risolai Tohuriya" [8:72 a,b], "Risola dar odobi tariqat" [9:208 a,b] nomli risolalarida Ahmad Yassaviyning "Shariat hamchu po'st astu tariqat hamchu mag'z ast" (*shariat po'st kabidir, tariqat mag'z kabidir*) iborasi orqali o'z fikrlarini mustahkamlab boradi.

Ikkinchi masala "muridning shayxga soch berishi" – ustoz-shogird munosabatlari bayoni. Bundan ko'zlangan maqsad muridning o'z ixtiyorini pirga berishi, murid yosh go'dak bo'lsa, pir ta'lim beruvchi tarbiyachi ekanini anglatishdir. Pir shunday quvvatga ega bo'lishi lozimki, u muridagi yomon xis-



latlarni va shaytoniy xayollarni quva olishi lozim [9:206 a,b].

Uchinchi masala muridga (*shogirdga*) aso (*hassa*) berish masalasi. Bu masala tariqatda shogirdning balog'atga yetganini ifodalovchi holatdir.

To'rtinchi masala zikr aytish masalasidir. Bu masala borasida Shayx Xovand Tohurning maxfiy zikri tarafdori ekanini kuzatishimiz mumkin. Bu borada u o'z risolasida "Zikrni iloji boricha yashirin aytingki, bu tavozega yaqinroqdir va Haq taoloning rizoligiga loyiqroqdir" [9:208 a,b], deydi.

Beshinchi masala – simo, ya'ni do'stlik xitobi, muhabbat sharobi, mardlar xazinasi, Haqqa tobelik nishoni ifodasidir.

Oltinchi masala pir (*ustoz*)ga itoatkorlik masalasi.

Yettinchi masala kiyinish ma'suliyati haqida bo'lib, allomaning fikricha, xirqa kiyish darveshlik, ko'k kiyish azadorlik belgisidir.

Sakkizinchi masala dasturxon yozish odobi bo'lib, ushbu masalada boshqalarga tortiq qilingan ne'matlar halol mehnat mahsuli bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi.

To'qqizinchi masala muomalot odobidir. Bu masalada muridning piriga keltirgan hadyasi nazarda tutilib, pir bunday muomalada ehtiyot bo'lishi lozimligi haqida ham ta'kidlab o'tiladi.

O'ninchi masala xilvat masalasi bo'lib, bu borada Shayx Xovand Tohur Bahouddin Naqshbanddan farqli tarzda xilvatnashinlik tarafdori bo'lganini kuzatishimiz mumkin.

O'n birinchi masala karomat talab qilmoq bayoni bo'lib, Shayx Xovand Tohur insonning barcha narsadan aziz va mukarramligi haqida xabar beradi. Uning yozishicha, karomat deyilganda Haq taoloning insonga bergan nutqi tushuniladi.

O'n ikkinchi masala ishq-muhabbat da'vosi. Bu o'rinda alloma muhabbat insonni poklovchi kuch ekanini e'tirof etadi.

O'n uchinchi masala muridga shayxlik qilish uchun ruxsat berish borasida bo'lib, bu tariqatda eng muhim masalalardan biri sanaladi. Muallif bu yo'lda muridning shayx darajasigacha bosib o'tishi kerak bo'lgan yo'lni va qoidalarni Qur'on oyatlari va hadislar asosida tushuntirib berish orqali ilmda kamolotga yetgan murid boshqalarni tarbiyalashi lozimligini uqtiradi.

Risola so'ngida shayx Xovand Tohurning ibratli so'zlari keltirilib, tariqat yo'lidagi kishi o'zining hayotida beshta ish bilan doimo mashg'ul bo'lishi va besh amaldan uzoq yurishi kerakligini keltirib o'tadi. Bular tariqat yo'lidagi kishi doimo bajarishi kerak bo'lgan ishlar: namoz o'qish, Qur'on o'qish, ro'za tutish, ko'ngilni shariat bo'yicha shod qilish va uzlatdir. Tark etilishi lozim bo'lgan amallar esa: zulm, yolg'onchilik, zino, harom va yomon insonlar suhbatidan qochish bo'lib, bu amallarning oxiri insonni afsus va nadomatga yetaklashini alloma ta'kidlab o'tadi.

Shayx Xovand Tohur tomonidan yaratilgan risolalar nafaqat o'tmish, balki bugungi kun uchun ham o'zining mazmun va mohiyati nuqtai nazaridan ahamiyatli hisoblanadi. Alloma merosini chuqur tadqiq qilish orqali bugungi kun ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan jarayonlarning bir qadar yechimi uchun javob bo'la oladigan ma'lumotlarni topish mumkin. Jumladan, jamiyat orasida yuzaga kelayotgan ixtilofli diniy muammolar va ertamiz egalari bo'lmish yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni yechish mumkin bo'lgan ma'lumotlar shular jumlasidanidir. Darhaqiqat, shayx Xovand Tohur g'oyaviy qarashlari bugungi kunda yoshlar uchun ma'naviy tarbiya manbai sanaladi. Xususan, ajdodlar ilmiy merosi va ularning tutgan hayot yo'li yoshlarni kamol topishida mana shu ma'naviy barkamollik yo'lidan borishi uchun ta'lim-tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hasaniy M, Qilicheva K. Shayx Xovandi Tahur.- Toshkent – Imom Buxoriy Respublika ilmiy-ma'rifiy markazi, 2004.
2. Islomov Z. Maqsudov D. Shayx Xovand Tahur yodgorlik majmuasi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015.
3. Kenjaboyeva R. Toshkentlik buyuk siymolar. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2018. – B. 172.
4. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 16.
5. Muhamedov N. Shosh vohasi olimlarining ilmiy merosi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007. – B. 148.
6. Qilicheva K. Oliy ta'lim tizimida tasavvuf ta'limoti vositasida talabalar ma'naviyatini shakllantirish. Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent: 2009.
7. Faxriddin Ali Safiy. Rashahot aynil hayot (Obi hayot tomchilari). Tarjimon: Xudoybergan ibn Bekmuhammad. Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriddin Umrzoqov. – Toshkent: 2004.
8. Shayx Xovand Tohur. (Risolayi Tohuriya) Tohuriya risolasi. O'zRFASHI qo'lyozmasi, inv. № 1206.
9. Shayx Xovand Tohur. Risola dar odobi tariqat. (Tariqat odoblari haqida risola). O'zRFASHI qo'lyozmasi, inv № 3303, № 12061.
10. Shayx Xovand Tohur. Risola dar arkoni islom. (Islom arkonlari haqida risola). O'zRFASHI qo'lyozmasi, inv № 3303.
11. Shayx Xovand Tohur. Risola dar masoyili shariat va tariqat. (Shariat va tariqat masalalari haqida risola). O'zRFASHI qo'lyozmasi, inv № 3303.
12. Shayx Xovand Tohur. Risolai dah shart. O'zRFASHI qo'lyozmasi, inv № 3303.
13. Valixo'jayev B. Buyuk ma'naviy murshid. – Toshkent: Fan, 2004.

IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTINING “ISLOM MA’RIFATI” JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarining professor-oqituvchilari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari, magistrantlari, talabalari hamda kutubxonalar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyatning fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin.
Jurnaldan iqtibos olinganda manba qayd etilishi shart.

Bosh muharrir:

Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Soatmurod PRIMOV

Mas‘ul kotib:

Ma‘murjon ERKAYEV

Xorijiy tildagi matnlar muharrirlari:

Javohir SOBIROV,

Saodat VALIYEVA

Sahifalovchi-dizayner:

Suhayl MUHAMMAD

Manzlimiz: 100002, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Zarqaynar 18-berk ko‘cha, 47-uy.

Tel.: (+99871) 227-42-37

Web: <https://oliymahad.uz/> E-mail: islom-instituti@umail.uz

“MUHARRIR NASHRIYOTI” MChJ bosmaxonasida bosildi.

Bosishga 15.01.2024 yil ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.

Bosmaxona manzili: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
20A-mavze, So‘galli ota ko‘chasi, 5-uy.

E-mail: muharrir@list.ru



Murojaat uchun:

71 227 42 37

